



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISH VA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Umummiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilari
uchun metodik qo'llanma**

Toshkent - 2017

Sh.S.Sharipov, O.A.Qo‘ysinov, Sh.T.Ergashev, O‘O.Tohirov, Z.S.Shamsiyeva, F.Nasrullayeva, U.Talipova. Texnologiya fanini o‘qitish va psixologik xizmatni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: _____ nashriyoti, 2017.-80 b.

Metodik qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 aprelda “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli Qarori va Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Texnologiya” fani o‘quv dasturi asosida tayyorlangan bo‘lib, qo‘llanmada texnologiya fanidan o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan davlat ta’lim standartini amaliyotga joriy etish yo‘llari, fanni o‘qitishda pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish orqali ta’lim samaradorligini oshirish, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda interfaol metodlardan foydalanish, yangi avlod darsliklaridan foydalanish metodikasi, o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish asoslari, dars intizomiga salbiy munosabatga ta’sir etuvchi omillarning tahlili hamda dars intizomiga salbiy munosabatda bo‘lgan bolalarga ta’sir etish usullari to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Metodik qo‘llanma yuzasidan fikr-mulohazalaringizni **basmla@inbox.ru** yoki **1mehnatmetodist@inbox.uz** elektron pochta manzilimizga yuborishingiz mumkin.

Taqrizchilar:

L.Yunusov

Toshkent shahar xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, kafedra mudiri

X.Yakubova

Nizomiy nomidagi TDPU “Kasb ta’limi metodikasi” kafedrasida katta o‘qituvchisi

D.Mirahmedova

Sergeli tumanidagi 7-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi mehnat ta’limi fani o‘qituvchisi

Ushbu metodik qo‘llanma Respublika ta’lim markazi qoshidagi “Mehnat ta’limi va kasbga yo‘naltirish” Ilmiy-metodik kengashining 2017 yil _____dagi ____-sonli va Respublika ta’lim markazi Ilmiy kengashining 2017 yil _____dagi ____-sonli yig‘ilishi qarorlariga asosan nashrga tavsiya etilgan.

S O‘ Z B O S H I

Mamlakatimizda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, umumiy o‘rta ta’lim fanlarini o‘qitishning uzluksizligi va izchilligini ta’minlash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ishlari keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda.

Bu ishlardan ko‘zlangan maqsad mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, “Yosh avlodni salohiyatli kadrlar etib tarbiyalashdagi birinchi bosqich – maktab ta’limini tubdan takomillashtirish, ilmiy kadrlar va yuksak malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonining uzluksizligini ta’minlash zarur. Bu yo‘lda hech narsani ayamaymiz. Ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirish”dan iboratdir.

Bugungi kunda ta’limda bo‘layotgan islohot va o‘zgarishlar o‘quvchilarda nafaqat ta’limiy, balki hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan davlat ta’lim standartlari olimlar, metodistlar va tajribali o‘qituvchilardan iborat ijodiy guruhlar tomonidan ishlab chiqildi, takomillashtirilib, bugungi kunda amaliyotga joriy etilmoqda.

O‘quvchilarni texnologiya darslarida texnik ijodkorlikni, qobiliyatini, tafakkurini rivojlantirish, dars jarayonida turli va tabiiy hamda metall va metallmas materiallarga ishlov berish usullarini o‘rgatish orqali kasb-hunarga yo‘naltirishni yanada kuchaytirish, xalq hunarmandchiligi asoslari, ro‘zg‘orshunoslik, elektrotexnika ishlarini bajarishda kasb-hunarga yo‘llash bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash hamda ularni hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantirish ko‘zda tutilgan.

O‘quvchilarda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlarida belgilangan malaka talablari – tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish, ta’lim sifatiga erishish va uni rivojlantirish, xorij tajribasini o‘rganish, hamda o‘zaro tajriba almashish, maktab o‘quvchilarining kasbiy mahoratini doimiy va uzluksiz ravishda oshirib borishni talab etadi.

Sizga tavsiya qilinayotgan qo‘llanmada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 aprelda “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli Qarori va Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Texnologiya” fanidan o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan davlat ta’lim standartini amaliyotga joriy etish yo‘llari, fanni o‘qitishda pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini tadbqiq etish orqali ta’lim samaradorligini oshirish, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda interfaol metodlardan hamda yangi avlod darsliklaridan foydalanish metodikasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

O‘ylaymizki, mazkur qo‘llanma sizning pedagogik mahoratingiz, ilmiy-kasbiy tajribangiz, shaxsiy xususiyat hamda insoniy fazilatlarinigiz asosida “Texnologiya” fanidan o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish va ta’lim samaradorligini oshirishda katta ahamiyat kasb qiladi.

AMALIY FANLAR BO‘YICHA O‘QUVCHILARDA KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN DAVLAT TA‘LIM STANDARTINI AMALIYOTGA JORIY ETISH YO‘LLARI

Jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar asosida umumiy o‘rta ta‘lim mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni keskin ortib borishi, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlanishi hamda tadbirkorlik faoliyatini keng joriy qilishda o‘quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi, ta‘lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etilayotganligini inobatga olgan holda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘qitiladigan “Mehnat ta‘limi” fani nomi **“Texnologiya” fani** deb o‘zgartirildi hamda bugungi kun talablaridan kelib chiqib ko‘p tarmoqli yo‘nalishlarga asoslangan holda ishlab chiqildi.

Texnologiya fani boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida umumlashgan holda, 5-9-sinflarda **“Texnologiya va dizayn”**, **“Servis xizmati”** yo‘nalishlarida o‘qitilishi belgilandi. 5-9-sinflarda **“Texnologiya va dizayn”**, **“Servis xizmati”** yo‘nalishlariga yangidan “Polimer materiallarga ishlov berish texnologiyasi”, “Elektronika asoslari” va “Ro‘zg‘orshunoslik asoslari” bo‘limlari kiritilib, mavjud bo‘limlardagi mavzular qayta ko‘rib chiqilib, takomillashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasida ta‘limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda tayanch va fanga oid kompetensiyalar shakllantiriladi.

O‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirish asosida ishlab chiqilgan o‘quv dasturi hamda amaldagi o‘quv dasturining qiyosiy tahliliga ko‘ra, 1-sinfda 48,4 %, 2-sinf 47%, 3-sinf 50%, 4-sinf 44%, 5-sinf 40%, 6-sinf 33%, 7-sinfda 48%, 8-sinfda 58%, 9-sinfda 59% **umumiy hisobda 53%** o‘quv dasturiga o‘zgarishlar kiritildi.

Ma‘lumki, mustaqillik yillarida mehnat ta‘limi fanidan o‘quvchilar uchun darslik va o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar yaratilmagan edi. Bu borada 2015 yilda 2-, 3- va 5-sinflar uchun “Mehnat ta‘limi” darsligi yaratildi va ijara tizimiga kiritildi.

Bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o‘quv dasturi asosida mualliflar guruhi tomonidan 1-, 4-, 6-, 7-sinf darsliklari 50%-70%gacha o‘zgartirishlar kiritilib, nashrga tayyorlandi.

Joriy yilning sentyabr oyiga qadar 1-, 4-, 6- va 7-sinflar uchun darsliklari chop ettirilsa, 2018-2019 o‘quv yilida 8- va 9-sinflar uchun darsliklar kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta‘lim standarti asosida chop etilishi rejalashtirilmoqda.

Musiqqa madaniyati fani o‘quvchilarning ma‘naviy, badiiy, axloqiy madaniyatini shakllantirish orqali milliy g‘urur, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didini o‘stiradi. Shuningdek, musiqqa madaniyati fani o‘quvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotda qo‘llash orqali ularda kuzatuvchanlikni, musiqiy xotirani, obrazli tasavvur qilishni, ijodkorlikni, tashabbuskorlikni, badiiy va musiqiy didni rivojlantirib, fikr doirasini kengaytiradi.

O'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv dasturiga **umumiy hisobda 30 %** (1-sinfda 23%, 2-sinf 25%, 3-sinf 28%, 4-sinf 33%, 5-sinf 35%, 6-sinf 30%, 7-sinfda 34%) o'zgarish kiritildi.

Jismoniy tarbiya fani o'quvchilarni jismonan baquvvat, epchil, sog'lom qilib tarbiyalaydi, inson salomatligi to'g'risidagi bilimlarini rivojlantiradi, sog'lom turmush tarzini shakllantirishga va unga amal qilishga o'rgatadi, fan doirasida egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantiradi. Ushbu jismoniy tarbiya fanining Davlat ta'lim standarti malaka talablariga (1-9-sinf) o'quvchilarga 1-sinf dan boshlab sportning shaxmat turini o'rganish yuzasidan talablar singdirildi.

Shuningdek, jismoniy tarbiya darslari orqali o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, o'z sog'lig'i uchun befarq bo'lmaslikka o'rgatish, turli zararli odatlarga o'rganmaslik kabi nazariy ma'lumotlar bilan takomillashtirildi.

Ushbu fan bo'yicha o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv dasturiga **umumiy hisobda 32,7 %** (1-sinf 20%, 2-sinf 30%, 3-sinf 30%, 4-sinf 25%, 5-sinf 35%, 6-sinf 35%, 7-sinf 35%, 8-sinf 35%, 9-sinf 40%) o'zgarish kiritildi.

Tasviriy san'at fani o'quvchilarda tasviriy savodxonlikni rivojlantirib, badiiy tafakkurni yuksaltirish orqali estetik didni va emotsional sezgirlikni o'stirish bilan ijtimoiy hayotda zarur bo'lgan bilimlarni egallashda, ulardan kundalik hayotida foydalanishga o'rgatadi. O'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirish asosida ishlab chiqilgan o'quv dasturi hamda amaldagi o'quv dasturining qiyosiy tahliliga ko'ra, 1-sinf 15 %, 2-sinf 50 %, 3-sinf 50%, 4-sinf 25 %, 5-sinf 30 %, 6-sinf 30 %, 7-sinf 30 %, **umumiy hisobda 33 %** o'quv dasturiga o'zgarishlar kiritildi.

Chizmachilik fani o'quvchilarning hayotiy tasavvurini amaliy faoliyatda ifodalash orqali tafakkurini o'stiradi, murakkab bo'lmagan texnik chizmalarni bajarishga, o'qishga va o'z fikrini grafik tasvirlar vositasida ifoda etishga o'rgatadi.

O'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirish asosida ishlab chiqilgan o'quv dasturi hamda amaldagi o'quv dasturining qiyosiy tahliliga ko'ra, 8-sinfda 20%, 9-sinfda 25%, **umumiy hisobda 22,5%** o'quv dasturiga o'zgarishlar kiritildi.

Mazkur o'quv dasturlariga kiritilgan o'zgarishlar va undagi tayanch hamda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishda o'qituvchi nimalarga ahamiyat berishi kerakligi haqida texnologiya fani misolida ko'rib chiqamiz. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar qanday shakllantiriladi? degan savol bugungi kunda har o'qituvchi o'ylantirishi mumkin.

Darhaqiqat, nima uchun aynan ushbu kompetensiyalar tanlanganligi haqida fikr yuritib, uning mazmun-mohiyatini anglab olsakgina, mazkur kompetensiyalarni o'quvchilarda qanday shakllantirishimiz onson bo'ladi.

Birinchidan, "Buyum va mahsulot turlarini, ularni tayyorlash va ishlov berish usullarini bilish, texnologik loyihalash hamda amalga oshirish kompetensiyasi" - texnologiya fani bugungi kunda umumta'lim maktablarida 1-9-sinflar o'qitiladi. Har bir sinflar kesimida o'qitiladigan mazularning umumiy soatining 75% amaliy mashg'ulotdan iborat bo'lib, o'quvchi qaysi sinfda taxsil olmasin u har bir darsda

ma'lum bir buyumni yasash texnologiyasi bilan tanishadi. Buyumni yasashdan avval, bu buyum qaerda va qachon nima maqsadda ishlatilishi mumkinligini, ya'ni ishlatilishi sohasi, kelib chiqish tarixi, xom-ashyosi, tayyorlanish bosqichlari va turlari haqida ma'lumotga ega bo'ladi. O'quvchi ma'lumotlarga asoslangan holda uning yangi ko'rinishini texnologik loyihalaydi, xom-ashyoga ishlov berish usullaridan foydalanib, buyumni dizayniga o'zgartirish kiritgan holda yasaydi.

Ikkinchidan, buyumni yasashda psixomotor, funksional, hamda amaliy faoliyat turlarini bajarishdagi operatsion kompetensiyani qo'llaydi. O'quvchi buyum yasashda albatta muskullar harakatida foydalanadi. Bu esa o'z navbatida inson miyasi tomonidan boshqariladigan harakatlarni ifodalaydi. Demak, o'quvchi yubka tikishi uchun avval gazlama tanlashi, gazlaning nuqsonlari bor-yo'qligini tekshirishi, tayyorlangan andazani gazlamaga to'g'ri joylashtirib, bichishi, chok turlarini to'g'ri tanlagan holda, bichiq bo'laklariga texnologiya asosida ishlov berishi, yubkani birinchi kiydirib ko'rishga tayyorlash, undagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etishi, yubkaga oxirigi ishlov berish bilan birga, dazmollash qoidalariga roiya qilgan holda dazmollashi lozim. O'quvchi har bir ishni bajarishda texnologik operatsiyalarni to'g'ri qo'llashi va xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi kerak. Mazkur operatsiyalarni bajarishda bosh miya tomonidan qo'l harakatlari ongli ravishda boshqarilishi, ishni bajarish tartibi ketma-ketlikda to'g'ri qo'llanilishi natijasida o'quvchi sifatli buyumni tez va oson, ijodiy yondashgan holda yasay oladi. Psixomotorik harakatlar oddiy, o'rtava kompleks harakatlarga ajratiladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida oddiy va o'rta harakatlar bajarilsa, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari bu harakatlar kompleks amalga oshiriladi.

Uchinchidan, Texnologiya fani umumiy o'rta ta'lim fanlari orasida asosiy kasb-hunarga yo'naltiruvchi fan hisoblanadi. Shu sababli texnologiya faninigng har bir dars jarayonida o'quvchilarga kasb-hunarlar haqida ma'lumotlar berish bilan birga ularni to'g'ri va ongli kasb tanlashga o'rgatiladi, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olishiga zamin yaratiladi.

Demak, o'quvchida fanga oid kompetensiyalar shakllanishi natijasida, u o'z hayotida kerak bo'ladigan zaruriy kompetensiyalarni egalladi.

Jumladan, o'quvchi kundalik hayoti uchun zarur bo'lgan salatlarni, birinchi, ikkinchi va parhez taomlarni, turli shirinliklarni, ichimliklar (choy: qora, ko'k, shirchoy, shifobaxsh choy, qahva, sharbatlar, kompot)ni texnologiya asosida tayyorlay oladi, andaza asosida kiyimlar tikadi, ta'mirlaydi, ko'rinishiga o'zgartirish kiritadi, ishlatilishiga yaroqsiz bo'lgan buyumlarga ishlov berib, kichik hajmdagi ro'zg'orbop buyum yoki bolalar uchun kiyimlar tika oladi, turli xil buyumlarni to'qiy oladi, dazmollash sirlarini o'rganadi, umumiy xolda kundalik ro'zg'or uchun zarur bo'lgan ishlarni bajarish malakalarini egallaydi. Bir so'z bilan etganda, Texnologiya fani o'quvchini kelajak hayotga tayyorlaydi, boshqa fanlardan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini hayotda qo'llay olish layoqatini rivojlantiradi.

Quyida amaliy fanlar kesimida berilgan tavsiya va dars ishlanmalariga ijodiy yondashgan holda dars jarayoniga tatbiq etishingizni taklif qilamiz.

TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA PEDAGOGIK VA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI TADBIQ ETISH ORQALI TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

“Ta’lim to’g’risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o‘zlashtirish zarurligi ko‘p karra takrorlanadi. Jumladan, “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunining 26-moddasida ta’limni boshqarish bo‘yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining xuquq doirasiga “ **... o‘qitishning ilg‘or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta’limning texnik va axborot vositalarini o‘quv jarayoniga joriy etish**” masalasi kiritilgan bo‘lsa, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida esa “ **... ta’lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualarni yaratish va o‘quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta’minlash**” zarur ekanligi belgilab qo‘yilgan.

O‘z-o‘zidan savol tug‘iladi: Pedagogik texnologiyalarning o‘zi nima va u an’anaviy ta’lim metodlaridan nimasi bilan farqlanadi?

Hozirgi kunda pedagogik adabiyot, ta’lim muammolariga oid ma’ruzalar, rasmiy hujjatlarda “Yangi pedagogik texnologiya”, “Ilg‘or pedagogik texnologiya”, “Zamonaviy pedagogik texnologiya” iboralari keng qo‘llanilmoqda. Ammo “Pedagogik texnologiya” tushunchasi hali ham bir qolipga tushirilmagan, qomuslarda izohlanganicha yo‘q, uning mazmunini yagona talqini ishlab chiqilmagan va shuning uchun iboraning bir-biridan farqlanuvchi ko‘pgina ta’riflari mavjud. Bularning orasida e’tiborga loyiqrog‘i YUNESKO ta’rifidir: **“Pedagogik texnologiya – bu ta’lim shakllarini optimallashtirish masalasini qo‘yuvchi, texnik va insoniy imkoniyatlarni va ularning o‘zaro munosabatlarini hisobga olib o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish butun jarayonini yaratish, qo‘llash va belgilashga sistemali yondashishidir”**.

Pedagog o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishganligini qanday biladi?

Pedagogik maqsadlarga erishganlik yoki erishmaganlikni bilishning aniq vositalari bo‘lgandagina, pedagog o‘zining mehnati samarali ekanligiga va tanlagan uslublari maqsadga muvofiqligiga yoki, aksincha, samarasiz ekanligiga ishonch hosil qilishi mumkin. Odatdagi o‘qitish uslubini tadqiq qilishda pedagogik texnologiya tarafdorlari aynan shu narsani nazarda tutishgan edi.

O‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishda pedagogik texnologiyani qaysi tomondan tahlil qilmaylik, uning asosi ta’lim samaradorligini oshirishga, **ya’ni kam vaqt sarflab, ko‘proq sifatli natijaga erishishga qaratilgandir.**

Qo‘llanadigan pedagogik texnologiya natijasi esa, pedagogning mahoratiga, pedagogik klassifikatsiya turlaridan mohir foydalana olishiga, ilmiy-kasbiy tajribasiga, shaxsiy xususiyat hamda insoniy fazilatlariga bog‘liqdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi pedagogik texnologiyaning asosiy tarkibiy qismlariga oid slaydlarni keltirmoqchimiz.

Texnologiya darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalar

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING ASOSIY TARKIBIY QISMLARI



texnologiya.zn.uz

Texnologiya darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalar

PEDAGOGIK MOTIVLAR: EHTIYOJ, MANFAAT, MAQSAD



texnologiya.zn.uz



Texnologiya faniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish orqali ta'lim samaradorligini oshirishda elektron axborot-ta'lim resurslari katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Elektron axborot-ta'lim resursi – o'rganish va ta'lim berish uchun qulay tarzda shakllantirilgan, ilmiy jihatdan tizimlashtirilgan, turli yoshdagi va ta'lim olish darajasidagi o'quvchi va o'qituvchilarga mo'ljallangan, ma'lum bir fanni o'rganish uchun mantiqiy ketma-ketlikda shakllantirilgan elektron axborot manbalari majmuasidir.

Elektron axborot ta'lim resursi maqsadga yo'naltirilgan, shaxsning rivojlanishiga mo'ljallangan, ta'lim maqsadiga erishish uchun pedagogik metodlar va texnologiyalarning uslubiy izchililigiga ega bo'lgan pedagogik senariy asosida tuziladi. O'quv materialining joylashtirilishi tuzilmasi pedagogik senariyga mos tarzda amalga oshiriladi va ta'lim berish sifatini oshirish uchun xizmat qiladi.

Elektron axborot ta'lim resursining asosiy tashkil etuvchilari quyidagi slaydlarda keltirilgan:

1-slayd



Elektron axborot-ta'lim resurrlaridan samarali foydalanish



Texnologiya fani bo'yicha xalq ta'limi boshqarmalari, XTMFMTTE tuman (shahar) bo'limlari texnologiya fani metodistlari va ta'lim muassasalari pedagoglariga uzluksiz amaliy-metodik yordam ko'rsatish maqsadida mualliflar Sh.S.Sharipov, O.A.Qo'ysinov, O'.O.Tohirov, D.N.Mamatov, D.Aripovalar tomonidan "Masofaviy metodik xizmat" ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha Ziyonet partali negizida "texnologiya.zn.uz" veb-sayti faoliyati ish boshladi. Ushbu veb-saytda sohaga oid me'yoriy hujjatlar, soha olimlari to'g'risidagi ma'lumotlar, ular tomonidan yaratilgan adabiyotlar, axborot ta'lim resurslari, plakat, buklet, pedagoglarga yordam, kutubxona va boshqa ruknlar keltirilgan bo'lib, ulardan samarali foydalanish metodik ta'minotini mustahkamlashga xizmat qiladi.



TEXNOLOGIYA FANIDAN AMALIY MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

(sinflar kesimida dars ishlanmalardan namunalari)

Sinf: 5-sinf

Yo‘nalish: Servis xizmati.

Ro‘zg‘orshunoslik asoslari bo‘limi

Mavzu: Kashtachilikda ishlatiladigan naqshlar. Naqsh elementlaini chizish. Kashtachilik ranglari va tikiladigan kashta uchun rang tanlash.

Darsning texnologik xaritasi

Bosqichlar	Mazmuni	Metodlar	Vahti
1-bosqich Tashkiliy qism	Salomlashish Davomatni aniqlash Darsga tayyorgarlik ko‘rish O‘quvchilar diqqatini jalb etish		5
2-bosqich O‘tilgan mavzuni mustahkamlash	O‘tilgan mavzu yuzasidab berilgan topshiriqlarni so‘rash va rag‘batlantirish.	“Xalq hunarmandlar shahriga sayohat” o‘yinini	15
3-bosqich Yangi mavzu bayoni	Yangi mavzu o‘quvchilarga to‘liq tushuntiriladi.	“Zinama – zina” texnologiyasi, “Suxbat”, “Taqdimot”	25
4-bosqich Yangi mavzuni mustaxkamlash	Yangi mavzu yuzasidan amaliy mashg‘ulot ishlari bajariladi. Amaliy mashg‘ulot davomida yuzaga kelgan muammoli vaziyatlar ustida ishlanadi.	“Qor parchalari”	25
5-bosqich O‘quvchilarni baholash	O‘quvchilar amaliy mashg‘ulotdagi ishlari orqali baholanadi. Xato va kamchiliklar ustida ishlanadi.	“O‘zini o‘zi baholash”	10
6-bosqich Uyga vazifa, darsni yakunlash	Yangi mavzuni o‘qib o‘rganish. Kashtachilikda ishlatiladigan naqsh elementlarini chizib kelish. Ish joyini tartibga keltirish. Ish qurollarini topshirish.	“Loyihalash”	10

Dars maqsadi:

Ta’limiy: O‘quvchilarga iplar grafikasining rivojlanishi tarixi xaqida ma’lumot berish. Tikish usullarini o‘rgatish. Fanga oid bo‘lgan kompetensiya elementlarini to‘liq shakllantirish.

Tarbiyaviy: O‘quvchilarni tejamkorlikka, tozalikka, mehnatsevarlikka o‘rgatish. Turmushdagi ehtiyojlar va ulardan foydalanishni tushuntirish. Tayanch kompetensiyalar elementlarini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarda tayanch va fanga oid bo‘lgan kompetensiyalarning shakllanishiga ko‘maklashish. O‘quvchilarda mavjud shakllangan kompetensiyalarni ko‘ra olish. Soddadan murakkablik tomon ish olib borishni tushuntirish.

Darsning turi: Yangi bilim beruvchi, amaliy.

Darsda foydalaniladigan metodlar: “Gul yaproqlari”, “Zinama-zina” “Hunarmandlar shahriga sayohat” “Taqdimot”, “Suhbat”, “Qor parchalari”

Texnik vositalar: proyektor, notebook.

Darsning jihozi: mavzu yuzasidan tayyorlangan tarqatma materiallar, mato, igna, qaychi, turli rangdagi iplar, naqshlar.

I. Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- 1.Salomlashish.
- 2.Davomatni aniqlash.
- 3.Navbatchi tayinlash.
- 4.O‘quvchilar 3 guruhga bo‘linadi.

II.O‘tgan mavzuni mustaxkamlash:

”Hunarmandlar shahriga sayohat” o‘yinini o‘tkazish.

Kerakli jihozlar: A3 format, konvertda rasmlar, yelim.

O‘tkazish tartibi:O‘quvchilarga A3 formati, konvertda topshiriq beriladi. A3 formatiga yozilgan topshiriq bo‘yicha konvertdagi rasmlarni yopishtiradilar.





Guruhlar ragʻbatlantiriladi.

Qizil rang – besh ball **Yashil rang** – toʻrt ball **Sariq rang** – uch ball



III. Yangi mavzu bayoni:

Mavzuga oid atamalar ingliz tilida doskaga yoki slaydda yozilib qoʻyiladi.

- | | |
|------------------------------|-----------------------------------|
| 1. Kashtachilik – embroidery | 6. Boʻr – chalk |
| 2. Kashta tikmoq – embroider | 7. Chok - seam |
| 3. Ip – thread | 8. Tikmoq – sew, stitch |
| 4. Asbob – instrument | 9. Ninaga ip oʻtqizmoq – thread a |
| 5. Qaychi – shears | 10. Bezak – decoration |

needle

Yangi mavzu boʻyicha “Zinama-zina” texnologiyasidan foydalaniladi.

Texnologiyani qoʻllanilishi:

- oʻquvchilarni 3 guruhga ajratiladi.
- oʻquvchilarga texnologiya maqsadi haqida tushuncha beriladi. Har bir guruhga A3 formatga kichik mavzu yozib tarqatiladi. Oʻqib chiqish uchun vaqt beriladi.
- guruhlar berilgan mavzular boʻyicha oʻqiganlarini qogʻozga yoritib berishlarini soʻraladi.
- berilgan vaqt tugagach guruh aʼzolaridan biri taqdimot qiladi. Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan material albatta doskaga tagma-tag ilinadi. Har bir guruhga taqdimot qilish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi.
- oʻqituvchi oʻquvchilar tomonidan tayyorlangan materiallarga izox beriladi va qoʻshimchalar kiritiladi.

1-guruh

Kashtachilik sanʼati tarixi

Oʻzbek milliy kashtadoʻzlik xalq hunarmandchilik sanʼatining eng qadimiy turlaridan boʻlib, u xalqning oʻz turmushini goʻzal qilish istagi natijasida yuzaga

kelgan. Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda hamda ro‘zg‘or bezak buyumlari tayyorlashda qadimdan qo‘llaniladi.

Kashtachiligimiz san‘ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. O‘zbek chevar ustalari qo‘llari bilan tikilgan kirpich, so‘zana, zardevor, gulko‘rpa, choyshab kabilar Fransiya, Italiya, Yaponiya, Germaniya, Belgiya, Amerika, Hindiston kabi xorijiy, shuningdek Respublikamizning Farg‘ona vodiysida faqat xonadonlarda emas, balki amaliy san‘at muzeylarida ko‘p namunalari to‘planib, doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan.

Hozirgacha buyumlar o‘ziga xos go‘zallik, nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda. O‘zbek kashtachiligi iqlimi, tabiiy sharoit, muhit bilan bog‘liq holda barcha kasb-hunarlar bilan birgalikda rivoj topgan. XIV - XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko‘rish mumkin. Ispan elchisi Rui Ganzalem de Klavixo Amir Temur saroyida o‘zbek milliy kashta bezaklarini ko‘rganini kundaligida yozib qoldirgan. Kamoliddin Behzod “Zafarnoma”ga ishlagan.


2-guruh

Kashtachilikda ishlatiladigan naqshlar, naqsh elementlari

Naqsh- arabcha **tasvir gul** degan ma‘noni anglatadi. Kashtachilik san‘atida har bir millatning o‘ziga xos eng ko‘p qo‘llaydigan naqshlari bo‘ladi. O‘zbek kashtalarida o‘simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko‘p bo‘lsa, rus kashtachiligida geometrik, o‘simliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko‘p tasvirlanadi, qozoq va qirg‘iz kashtachiligida esa ko‘proq hayvonlar, shox va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar tasvirlanadi.

Rang-tasvir vositalar yordamida ishlangan, nur va soyalar hajmni keltirib chiqaradigan, shu bilan birga o‘ylamay-netmay tabiatdan aynan ko‘chirishga intilmagan rasmchini naturadan yaqinroq bo‘lishi mumkin. Kashta gulini yaratishda naturaga qarab rasmni chizib oladi, keyin uni naqshga va turli naqshdor kompozitsiyaga aylantiriladi. Naqsh bilan amaliy san‘at buyumlari bezatiladi, shuning uchun u buyumning ajralmas qismi bo‘lib, o‘sha buyumning shakliga, vazifasiga va qanday materialdan tikilishiga butunlay bog‘liq bo‘ladi. Rasmni naqshga aylantirishda uning (guli va hokazo) xarakterli belgilari tanlanadi. O‘simlik, qush motivlarini aniq ko‘rsatishga intilmay, faqat asosiy chiziqlarigina bo‘rttirib kontur qilib chiziladi.


Rasmlarning ba‘zi qismlarini ixtiyoriy ravishda kompozitsiyalash ham mumkin, lekin tabiatni kuzatib, bezaklarni buyum yuzasiga joylashtirishni ham o‘ylab topish yanada qiziqarliroqdir.



Naqsh elementlari

3-guruh

Kashta tikishda ranglar tanlash



Kashta tikish rang bilan chambarchas bog‘liq. Iplarni tanlashda ranglarning yo‘g‘onlashuvini, ular bir-biriga qanday ta’sir etishini bilish zarur. O‘zaro mos ranglarni tanlashda berk spektr qatori ranglaridan iborat ranglar doirasi asos qilib olinadi.

Agar uch qirrali shisha prizmadan nur tarami o‘tkazilsa, u tarkibiy qismlarga bo‘linib ko‘rinadi, rangli yo‘l-spektr hosil bo‘ladi.



Tabiatda ranglarning bunday qo‘shilishini ko‘pincha kamalakda, quyosh nuri shudring zarralaridan o‘tishida ko‘rish mumkin. Ko‘zga ko‘rinadigan spektr uzluksiz o‘zgara boradigan qizil, to‘q sariq, sariq, yashil, zangori, ko‘k, binafsha ranglar qatoridan iborat. Bu ranglar bir-biridan oraliq tuslar gammasi bilan ajralgan bo‘ladi. Agar spektr ranglarini o‘sha tartibda doiraga joylashtirilsa, ko‘k- binafsha va qizil ranglar orasida to‘q qizil rang bo‘ladi.

Odatda, kashta guliga asosiy o‘rin berilib, gazlama rangiga qo‘shimcha o‘rin beriladi. Shuning uchun gazlama rangi naqsh rangidan ochiq bo‘lib ajralib turmasligi kerak.

Kashta gulining rangini tanlashni bajarish sanama chok, tekis chok va hokazolarga ham bog‘liq bo‘ladi.

Naqshni gazlamaga ko‘chirish

Naqsh nusxasini har xil gazlamalarda har xil yo‘llar bilan tushiriladi. Masalan, nusxa ko‘chiradigan qog‘ozlar axta yorug‘lik yordamida, naqsh chizilgan qog‘ozni gazlama ustidan ko‘klab chiqiladi keyin bu qog‘ozlar yirtib olinadi. Hamma hollarda ham oldin bezakni originaldan shaffof yoki millimetrli qog‘ozga uchi yaxshi ochilgan qalamda ko‘chirib olinadi. Shundan keyin uni gazlamaga o‘tkaziladi.

Bezakni (naqsh) nusxa ko‘chiradigan (kopiroyka) yordamida ko‘chirish

Gazlamani oldin dazmollab, tekis yuza (stol, taxta) ustiga yozib qo‘yiladi, bunda gazlamaning asos va arqoq iplari qiyshayib qolmasligiga qarash kerak. Naqsh (tekis chok, suv chok, ustki chok va hokazo bilan tikiladigan) chizilgan shaffof qog‘ozni gazlama ustiga qo‘yib, to‘g‘nog‘ich bilan qadab qo‘yiladi. Nusxa ko‘chiradigan

qog'ozini to'q tomonini gazlamaga qaratib shaffof qog'oz tagiga qo'yiladi, uchi yaxshi ochilgan qalam bilan bezak ustidan chizib chiqiladi. Turli rangdagi nusxa ko'chiradigan qog'ozlar bo'lgani ma'qul, shunda och rangdagi gazlamaga to'q rangli (qora, ko'k, yashil), to'q rangli gazlamaga och rangli (oq, sariq) nusxa ko'chiradigan qog'oz ishlatiladi.

Bezakni yorug'ga tutib ko'chirish

Yupqa shaffof gazlamalarga kashta gulni gazlama tagidan yoritish yo'li bilan ko'chirish mumkin. Tagiga lampa qo'yilgan oyna ustiga yaxshi ko'rinadigan kashta gulni qo'yib, uning ustiga yaxshi tortilgan chamberakga (kergiga) o'rnatilgan gazlama qo'yiladi. Gazlama tagida ko'rinib turgan kashta gulni uchi yaxshi ochilgan qalam bilan gazlamaga chizib olinadi.

Bezakni shaffof qog'oz yordamida ko'chirish

Movut baxmal va yaltiroq gazlamalar ustiga kashta gulni shaffof qog'oz ustidan ko'klash yo'li bilan ko'chiriladi. Buning uchun bezakni shaffof qog'ozga ko'chirib olib, uni gazlama ustiga qo'yiladigan, butun chizig'i bo'ylab mayda zich qaviqlar bilan ninani oldinga yo'naltirib tikib chiqiladi. Keyin qog'oz yirtib tashlanadi.

Bezakni axta (andaza, ulgi) yordamida ko'chirish. Axta – naqsh yoki biror rasmni shaffof (kal'ka) qog'ozga chizib, chiziq yo'llarini igna bilan teshib, buyum yuziga tushirish uchun tayyorlangan andoza.

Axtani tayyorlash uchun shaffof (xitoy) qog'ozga naqsh kompozitsiyaga moslab simmetriya o'qi bo'yicha qog'ozni ikkiga, to'rtga va hokazo buklanadi. Buklamaning bir qismiga naqsh chiziladi.

Guruh a'zolaridan biri taqdimot qiladi va tayyorlangan material albatta doskaga tagma-tag ilinadi. O'qituvchi o'quvchilar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh beradi va quydagilarni qo'shimcha kiritadi.


IV. Amaliy mashg'ulot.

O'quvchilar naqshni gazlamaga ko'chiradilar.

V. Yangi mavzuni mustaxkamlash:

“Qor parchalari” texnologiyasidan foydalaniladi.


Texnologiyani qo'llanilishi: Doskaga archa rasmi chiziladi. O'qituvchi yangi mavzu bo'yicha guruhlariga savollar beradi. O'quvchilarni javoblari izohlanib, baho qo'yiladi. Baholar qor parchalari bo'yicha ajratiladi va archalarga yopishtiriladi.



Savollar:

1. O'zbek kashtalarida qaysi naqshlar ko'p qo'llaniladi?
2. Qadimiy an'analarga ko'ra o'zbek qizlari o'z qo'llari bilan nimalar tikishgan?
3. Naqsh so'zi nima degan ma'noni anglatadi?
4. Kashta tikishda rang tanlashda nimalarga ahamiyat berish lozim?

5. Bezakni nusxa ko‘chiradigan (kopirovka) yordamida qanday ko‘chiriladi?
6. Bezakni yorug‘ga tutib ko‘cherish qanday amalga oshiriladi?
7. Bezakni shaffof qog‘oz yordamida ko‘chirish qanday amalga oshiriladi?



VI. Yakuniy bosqich: O‘quvchilar baholanadi.

Uyga vazifa beriladi. Mavzu bo‘yicha yangi ma‘lumotlar topish. Kanva, muline, chambarak, asbob – uskunalar olib kelish.

Sinf: 6-sinf

Yo‘nalish: Texnologiya va dizayn.

Polimer materiallar va ularga ishlov berish bo‘limi.

Mavzu: Plastmassa va uning turlari. Rezinalar, to‘ldirgichlar va plastifikatorlar.

Darsning texnologik xaritasi

Bosqichlar	Mazmuni	Metodlar	Vaqt
1-bosqich Tashkiliy qism	Salomlashish Davomatni aniqlash Darsga tayyorgarlik ko‘rish O‘quvchilar diqqatini jalb etish	“Motivatsiya” “BLITS” savol	5
2-bosqich O‘tilgan mavzuni mustahkamlash	O‘tilgan mavzu yuzasidab berilgan topshiriqlarni so‘rash va bajarilgan ishlarni tahlil qilish	“Taqdimot”	10
3-bosqich Yangi mavzu bayoni	Yangi mavzu o‘quvchilarga to‘liq tushuntiriladi.	“Suxbat” “Taqdimot” “Videolavha”	40
4-bosqich Mustahkamlash, mustaqil ish uchun muammoli topshiriq	Yangi mavzu turli xil metodlar yordamida mustahkamlanadi. Yuzaga kelgan muammoli vaziyatlar ustida ishlanadi.	“Muammoli vaziyat” “Domino”	15
5-bosqich O‘quvchilarni	O‘quvchilar yangi mavzuni qay darajada o‘zlashtirib olganliklari	“Baholar diagrammasi”	10

baholash	bo'yicha baholanadi. Baholar izohlanadi.		
6-bosqich Uyga vazifa, darsni yakunlash	Yangi mavzuni o'qib o'rganish. Yangi mavzu asosida test tuzib kelish. Ish joyini tartibga keltirish.	“Test”	10

Dars maqsadi:

Ta'limiy: Plastmassa va uning turlari. Rezinalar, to'ldirgichlar va plastifikatorlar haqida to'liq ma'lumotlarni berish. O'quvchilarda plastmassa va uning turlari, rezinalar, to'ldirgichlar va plastifikatorlar haqida tasaavurni paydo qilish. Fanga oid bo'lgan kompetensiyalarni to'liq shakllantirish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni tozalikka, mehnatsevarlikka o'rgatish. Turmushdagi ehtiyojlar va ulardan foydalanishni tushuntirish. Tayanch kompetensiyalarni to'liq shakllantirishga erishish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda tayanch va fanga oid bo'lgan kompetensiyalarning shakllanishiga ko'maklashish. O'quvchilarda mavjud shakllangan kompetensiyalarni ko'ra olish. Soddadan murakkablik tomon ish olib borishni tushuntirish.

Darsning turi: Yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi

Darsda foydalaniladigan metodlar: “Motivasiya”, “BLITS” savol, “Taqqimot”, “Suxbat”, “Muammoli vaziyat”, “Domino”, “Baholar diagrammasi”

Texnik vositalar: proyektor, notebook.

Darsning jihozi: tarqatma materiallar, mavzu yuzasidan tayyorlangan test materiallari, rasmlar, doska.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

- Salomlashish
- Davomatni aniqlash
- Darsga tayyorgarlik ko'rish
- O'quvchilar diqqatini darsga qaratish

“BLITS” savol metodi qo'llaniladi. Bunda o'quvchiga savollar tez-tez ketma-ketlikda berildi. Savollarga javob berish uchun vaqt berilmaydi. Savollar kundalik va turmush tarzidagi qiziqarli o'quvchini diqqatini qarata oladigan mazmunda bo'lishi kerak. Masalan: “Ko'ylagingdagi tugmalar soni nechta?”, “Bugun necha soat darsda bo'lding?”, “Bugungi sana va kun qaysi?”, “hozir nechanchi dars?” va shu kabilar.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

O'quvchilar o'tilgan mavzu bo'yicha “Salfetka uchun taglik” taglik tayyorlashgan. Salfetkalar uchun tayyorlangan taglikga oxirgi ishlov berish ishlari va uning dizayniga qo'shilgan qo'shimcha detallar o'quvchilar tomonidan taqqimot asosida taqqim etiladi. Taqqimotda o'quvchilarning ijodkorlik va ixtirochilik qobiliyatlari inobatga olinadi. Ularning ishlari amaliy mashg'ulotni qay darajada o'zlashtirganliklari orqali baholanadi. Ish sifati dizayniga alohida e'tibor qaratiladi. Eng yaxshi taqqimot qilgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

III. Yangi mavzu bayoni. (*yangi mavzu "Suxbat" va "Taqdimot" metodlaridan foydalanilgan holda tushuntiriladi*)

Polimerlar bir necha mingdan tortib, to bir necha milliongacha atomdan iborat birikmalardir. Polimerlar tabiiy va sun'iy bo'ladi. Tabiiy polimerlarga sellyuloza, jun, ipak, tabiiy kauchuk va boshqalar, sun'iyilariga esa organik shisha, polietilen, viskoza, kapron, neylon, sintetik kauchuk va boshqalar kiradi.

Yuqori molekulyar organik birikmalar yoki ularning guruhlari, ko'pincha smolalar deb ataladi.

Plastiklik barcha polimerlarga ham xos bo'lavermaydi.

Polimer materiallardan istalgan shakldagi xilma-xil buyumlar, shuningdek, ip, plyonka, list, truba va donalar tayyorlanadi.

Hozirgi vaqtga kelib, o'z xossalari jihatidan xilma-xil plasmassalar, rezina buyumlar, shu jumladan juda puxta konstruksion plasmassalar, yarim o'tkazgichlar, o'tkazgichlar va boshqa plasmassalar turmushda foydalaniladi.

Bu materiallar, ko'pgina hollarda ko'pchiligi qimmat turadigan metallar o'rnida ishlatilmoqda. Bundan tashqari texnika taraqqiyoti sanoatga plasmassalarning joriy qilinishiga ko'p darajada bog'liqdir.

Ko'pincha, plastmassalar bir necha xil moddadan iborat bo'ladi. Masalan, ular tarkibiga bog'lovchi va to'ldiruvchi moddalar, plastifikatorlar, bo'yoq moddalar va boshqalar kiradi. Ba'zi plastmassalar, masalan, organik shisha, poliamid, polietilen faqat polimerlarning o'zidagina iborat bo'ladi.

Murakkab tarkibli plastmassalarda bog'lovchi moddalar vazifasini polimerlar o'taydi. Polimerlash yo'li bilan polistirol, polivinilxlorid, poliakrilat (organik shisha) va boshqa polimerlar olinadi. Ikkita har xil monomerni birgalikda polimerlash yo'li bilan ham yangi polimer olish mumkin. Bu holda olingan yuqori molekulyar moddalar sopolimerlar deb ataladi. Sopolimerda ikkala monomerning xossalari mujassamlangan bo'ladi. Polikondensatlash usulida ikki yoki undan ortiq monomer o'zaro kimyoviy ta'sir ettiriladi. Bunda polimer bilan bir qatorda qo'shimcha mahsulot (suv, ammiak yoki boshqa modda) ham hosil bo'ladi. Masalan, fenol bilan formaldegid qizdirilgan holda va katalizator ishtirokida o'zaro ta'sir ettirilsa, polimer – fenoplast va suv hosil bo'ladi. Plastmassani ishlab chiqarishni quyidagi usullari bor: ishlov berishda bosim ostida quyish, ekstruziya, puflab yoki vakuumli shakllantirish, issiq siqish, shtamplash va boshqalar.

Plastmassa mahsulotlarining turlari.

Plastmassadan turli xo'jalik, attorlik va madaniy tovarlar ishlab chiqariladi.

Xo'jalik tovarlari ishlatilishi bo'yicha idishlar ko'zalar, non idishi, patnislar, tuzdon, elektr sovitkich idishlari, vannaxona va hojatxona buyumlari, bog' va poliz anjomlari hamda uy jihozlariga (gul tuvaklar, suyanchiqsiz kursilar, parda dorlari) bo'linadi. Plastmassadan attorlik buyumlari taroqlar, tugmalar, turli bezaklar va pardoz-andoz buyumlari, turli o'yinchoqlar, gullar, devonxona hamda fotografiya buyumlari kabi madaniy tovarlar ham ishlab chiqariladi. Mahsulotlar ishlab chiqarishda ularni bezararligi va yong'inga xavfsizligiga e'tibor beriladi. Fenoplastlardan oziq-ovqat uchun ishlatiladigan idishlar ishlab chiqarish taqiqlanadi. Ulardan ajralib chiqadigan fenol va formaldegid insonning asab tizimiga salbiy ta'sir

qiladi. Ammo plastmassalardan faqat sovuq holatda iste'mol qilinadigan oziq-ovqat uchun ishlatiladigan idishlar ishlab chiqarishga ruxsat berilgan. Poliamidlardan issiqlikda ajralib chiqadigan kaprolaktan tomir nevrozi kasalligiga yo'liqtiruvchi va jigar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Polistirol o'zidan issiq holatda asab tomirlariga zarar yetkazadigan stirol chiqaradi. Oziq-ovqat buyumlari uchun ishlatiladigan plastmassalarning sertifikatini bo'lishi kerak.

Rezinalar. Hozirgi zamon texnikasida yuqori elastiklikka ega bo'lgan materiallar juda katta ahamiyatga ega. Bunday materiallardan zarbiy kuch ta'sirini yumshatadigan vositalar (amortizatorlar) xamda tebranishni pasaytiruvchi yoki yutuvchi asbob va qurilma (dempfer)lar yasaladi. Bundan tashqari ulardan jipslovchi vositalar tayyorlashda, uskunalarni tashqi muxit ta'siridan saqlashda ham foydalaniladi. Yuqori elastik materiallarga tabiiy va sintetik polimerlarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Bunday materiallar, odatda juda kata qaytar deformatsiyaga ega bo'ladi. Rezinalardan uskuna va qurilmalarni tashqi muhitdan muxofaza qilishda, elektr simlarining sirtini qoplashda (kabellar tayyorlash) foydalaniladi.

Kauchuk vulkanizatsiyalanib, rezina maxsulotlari olinadi. Kauchuklarga turli qo'shimchalarni qo'shish bilan yorug'lik va radiatsiya nuriga chidamli arzon rezinasimon maxsulotlar olinadi. Bu yo'l bilan maxsus sharoitlarga chidamli rezinalarni ham olish mumkin. Keyingi vaqtda sintetik kauchuk ishlab chiqarish juda keng rivojlangan.

To'ldirgichlar va plastifikatorlar.

To'ldirgichlar. To'ldirgichlar tarkibi jihatidan organik va anorganik to'ldirgichlarga, strukturasi jihatidan esa tolali va donador (ba'zan kukun) to'ldirgichlarga bo'linadi. Plastmassalar ishlab chiqarishda to'ldirgichlar sifatida organik to'ldirgichlardan – yog'och kukuni, yog'och sellyulozasi, yog'och shponi (yupqa taxtalar), paxta taramlari, ip-gazlama, sintetik tolalardan to'qilgan mato; anorganik to'ldirgichlardan – asbest tolasi va to'qimasi, shisha tolasi, shisha tolasidan to'qilgan mato, qisqa, tolali asbest (kukun to'ldirgich sifatida), kaolin, kvarts kukuni, oxak va boshqalar ishlatiladi. Plastmassalar tarkibiga kirgan to'ldirgichlar ularning xossalarni yaxshilaydi, bundan tashqari, nisbatan arzon bo'lgani uchun buyumlarni arzonlashtiradi.

Termoplastik smolalarga qo'shiladigan plastifikatorlar ularning yumshash temperaturasini pasaytiradi, bu esa ularni qoliplashni osonlashtiradi. Plastifikatorlar sifatida hammadan ko'proq yuqori temperaturada qaynovchi kichik molekulyar suyuqliklar: murakkab efirlar, xlorlangan uglevodorodlar va boshqalar ishlatiladi. Polimerlar plastifikatorlarni shimib, bukadi, bunda plastifikatorning molekulyar qatlamlari zanjiriy makromolekulalar atrofida joylashib, ular orasidagi bog'lanishlarni zaiflashtiradi. Polimerning yumshash temperaturasining pasayishi va uning shishalanishiga, ya'ni qizdirilganda shishasimon holatdan qovushqoq-oquvchan holatga va sovutilganda yana shishasimon holatga o'tishining sababi ham ana shu.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: *(yangi mavzu "Domino" metodi yordamida mustahkamlanadi).*

“DOMINO” metodi	Polimerlarga nimalar kiradi?
Rezinalar, klassifikatorlar, plasmassa materiallari, kauchoklar.	To‘ldirgichlar qanday turlarga bo‘linadi?
To‘ldirgichlar tarkibi jihatidan organik va anorganik to‘ldirgichlarga, strukturasi jihatidan esa tolali va donador (ba‘zan kukun) to‘ldirgichlarga bo‘linadi.	Bo‘yash ishlari qanday bajariladi?
Buyumni bo‘yoqqa tiqib olish, sepish, cho‘tka bilan bo‘yash orqali amalga oshiriladi.	Polimerlar haqida nimalarni bilasiz?
Polimerlar bir necha mingdan tortib, to bir necha milliongacha atomdan iborat birikmalardir. Polimerlar tabiiy va sun‘iy bo‘ladi.	E‘TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!

V. O‘quvchilarni baholash: O‘quvchilar yangi mavzuni qay darajada o‘zlashtirganliklari va dars jarayonidagi ishtiroklari asosida baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish, darsni yakunlash: Yangi mavzuni to‘liq o‘qib o‘rganish. Yangi mavzu asosida test tuzib kelish. Amaliy mashg‘ulot uchun kerak bo‘lgan hom-ashyo materiallarini (plasmassa bo‘lagi, arra, chizg‘ich, qalam) olib kelish.

Sinf: 6-sinf

Yo‘nalish: Texnologiya va dizayn.

Mashina, mexanizm, stanoklar va ulardan foydalanish bo‘limi.

Mavzu: Stanoklarning asosiy qismlari va vazifalari. Stanoklar tuzilishidagi umumiylik.

Darsning texnologik xaritasi

Bosiqichlar	Mazmuni	Metodlar	Vaqt
1-bosqich Tashkiliy qism	Salomlashish Davomatni aniqlash Darsga tayyorgarlik ko‘rish O‘quvchilar diqqatini jalb etish	“Diqqat, diqqat!”	5
2-bosqich O‘tilgan mavzuni mustahkamlash	O‘tilgan mavzu yuzasidab berilgan topshiriqlarni so‘rash va bajarilgan ishlarni tahlil qilish	“Taqdimot”	10
3-bosqich Yangi mavzu bayoni	Yangi mavzu o‘quvchilarga to‘liq tushuntiriladi.	“Suxbat” “Taqdimot”	40
4-bosqich Mustahkamlash, mustaqil ish uchun muammoli topshiriq	Yangi mavzu turli xil metodlar yordamida mustahkamlanadi. Yuzaga kelgan muammoli vaziyatlar ustida ishlanadi.	“Krossvord” “Test” “Kim eng bilimdon”	15
5-bosqich	O‘quvchilar yangi mavzuni qay	“Bugungi ishni	10

O'quvchilarni baholash	darajada o'zlashtirib olganliklari bo'yicha baholanadi. Baholar izohlanadi.	ertaga qo'yma"	
6-bosqich Uyga vazifa, darsni yakunlash	Yangi mavzuni o'qib o'rganish. "Nilufar" guli chizmasini to'ldirish. Ish joyini tartibga keltirish.	"Nilufar" guli	10

Dars maqsadi:

Ta'limiy: Stanoklarning asosiy qismlari va vazifalari. Stanoklar tuzilishidagi umumiylik haqida to'liq ma'lumotlarni berish. O'quvchilarda stanoklarning asosiy qismlari va vazifalari. Stanoklar tuzilishidagi umumiylik haqida tasaavurni paydo qilish. Fanga oid bo'lgan kompetensiyalarni to'liq shakllantirish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni tozalikka, mehnatsevarlikka o'rgatish. Turmushdagi ehtiyojlar va ulardan foydalanishni tushuntirish. Tayanch kompetensiyalarni to'liq shakllantirishga erishish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda tayanch va fanga oid bo'lgan kompetensiyalarning shakllanishiga ko'maklashish. O'quvchilarda mavjud shakllangan kompetensiyalarni ko'ra olish. Soddadan murakkablik tomon ish olib borishni tushuntirish.

Darsning turi: Yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi

Darsda foydalaniladigan metodlar: "Diqqat,diqqat", "Taqdimot", "Suxbat", "Muammoli vaziyat", "Krossvord", "Kim eng bilimdon?", "Bugungi ishni ertaga qo'yma", "Nilufar" guli.

Texnik vositalar: proyektor, notebook.

Darsning jihozi: terqatma materiallar, mavzu yuzasidan tayyorlangan test materiallari, rasmlar, doska, mel.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- Salomlashish
- Davomatni aniqlash
- Darsga tayyorgarlik ko'rish
- O'quvchilar diqqatini darsga qaratish

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash:

O'quvchilar o'tilgan mavzu bo'yicha "Ramka" tayyorlashgan. Rasm solish uchun mo'ljallangan ramkalariga oxirgi ishlov berish ishlari va uning dizayniga qo'shilgan qo'shimcha detallar o'quvchilar tomonidan taqdimot asosida taqdim etiladi. Taqdimotda o'quvchilarning ijodkorlik va ixtirochilik qobiliatlari inobatga olinadi. Ularning ishlari amaliy mashg'ulotni qay darajada o'zlashtirganliklari orqali baholanadi. Ish sifati dizayniga alohida e'tibor qaratiladi. Eng yaxshi taqdimot qilgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

II. Yangi mavzu bayoni:

Yog'ochga ishlov berish stanoklarining konstruksiyasi ularning bajaradigan ishiga bog'liq. Ba'zi stanoklar yog'ochni arralash uchun, yana biri – randalash uchun,

boshqalari-parmalab, teshish va hokazolar uchun ishlatiladi. Biroq stanoklar tuzilishi jihatdan bir-biridan farq qilgani bilan ularning konstruktiv elementlari bir xil vazifani bajaradi: staninalar, stollar yoki karetkalar detallar uchun baza bo'lib xizmat qiladi, uzellari esa kesish asbobini mahkamlash va ish vaqtida asbob yoki zagotovkaga harakat uzatish uchun xizmat qiladi. Stanoklarning konstruksiyasini o'zgartirish ularning elementlari konstruksiyasining prinsipial o'zgarishiga hamma vaqt ham sabab bo'lavermaydi. Shunga ko'ra stanoklarning qismlarini bilish yangi konstruksiyadagi stanoklar va avtomatik liniyalarni tez o'zlashtirishga imkon beradi. Stanoklarning elementlari asosiy va yordamchi elementlarga ajratiladi. Asosiy elementlar jumlasiga staninalar, supportlar, ish organlari, surish mexanizmlari, yuritmalar, boshqarish organlari, tayanch va yo'naltiruvchi qurilmalar, qisqichlar, siqish moslamalari va tirkaklar kiradi. Kesish asbobini charxlash, stanokni sozlash, rostlash va moylash, chiqindidan xalos qilish uchun mo'ljallangan qurilmalar yordamchi elementlar bo'lib hisoblanadi. Ko'pgina stanoklar stanok yoniga o'rnatiladigan mexanizmlar – zagotovka bilan ta'minlab turuvchi va taxlash qurilmalari bilan jihozlanadi biroq aytib o'tilgan elementlar kompleksi bilan hamma stanoklar ham jihozlanavermaydi. Stanina stanokning asosi bo'lib, barcha uzellar va detallar staninaga mahkamlanadi. Stanina stanokning ayrim elementlari o'rtasida ta'sir kuchlarini, titrama yuklamalarni hamda ishlov berilayotgan material yuklamasini qabul qiladi. Staninalar quyib va payvandlab tayyorlangan bo'lishi mumkin. Kesish asboblari aylanadigan stanoklarning ish organlari shpindellari, pichoqlar va arralar o'rnatiladigan vallari asboblarni mahkamlash va aylantirish uchun xizmat qiladi. Kesish asbobi ilgari harakat qiladigan stanoklarda ish organlari yo kesish asbobini mahkamlash, to'g'ri chiziqli kesish harakatini uzatish, to'g'ri yo'nalishda surish uchun mo'ljallangan.

Xavfsizlik qoidalari. Stanokni dastlabki mashqlarda faqat o'qituvchining zarur tekshiruvlaridan keyin, uning ruxsati bilanya'ni nazorati ostida ishlatishga ruxsat beriladi. Bu qoidalarga stanokni boshqarish va unda xavfsiz ishlash ko'nikmalarini mukammal o'zlashtirgunga qadar qat'iy rioya qilish shart.

Stanoklar harakat uzatish mexanizmlari

Mashina va mexanizmlarni harakatga keltirish uchun eng avvalo biror energiya manbai bo'lishi kerak. Bundan tashqari, mexanikaviy uzatishlar vallarning o'zaro joylashishiga qarab, parallel, kesishgan, ayqash vali turlicha, uzatish sonining o'zgarishiga qarab esa uzatish soni o'zgarmas, pog'onali o'zgaruvchan va pog'onasiz turlarga bo'linadi. Bundan tashqari o'quvchilarga uzatishlar to'g'risida ham qisqacha va yetarli ma'lumotlar berish zarur. Energiya manbai sifatida ichki yonuv dvigateli, bug'mashinasi, dvigatellardan foydalanish mumkinligi haqida yuqorida gapirib o'tgan edik. Mashinaning ish bajaruvchi organlari bilan birga energiya manbai o'rtasida muhim vazifani bajaruvchi o'zak haqida ya'ni uzatmalar xaqida fikr yuritamiz. Energiya manbai mashinaning ish bajaruvchi qismi oralig'ida joylashib ularni o'zaro bog'lovchi hamda harakat talab qilinganidek boshqarishga imkon beruvchi mexanizmlar uzatmalar deb ataladi. Mashinasozlikda mexanikaviy, elektrik, gidravlik uzatmalardan foydalaniladi. Ulardan eng ko'p ishlatiladigani mexanikaviy uzatmalardir. Bu uzatmalar alohida va boshqa tur uzatmalar bilan birgalikda ishlatilishi mumkin.

Mexanika va uzatmalar ikki turga bo‘linadi.

1. Ishqalanish xisobiga ishlaydigan uzatmalar (funktional tasmali uzatmalar).

2. Ilashish xisobiga ishlaydigan uzatmalar (tishli uzatmalar).

Demak, mexanikaviy uzatmalarni tashkil etuvchi asosiy detallar o‘zaro tegib turadi yoki egiluvchi zveno bir tasma zanjir orqali bog‘langan bo‘ladi.

Ilashish xisobiga ishlovchi uzatmalarning asosiy detallari (g‘ildirak, shkif va shu kabilar) silliq sirtga ishqalanish xisobiga ishlaydigan uzatmalarning asosiy detallarining (tishli g‘ildirak, chervyak va shu kabilar) eng katta buruvchi manbaning uzatilishini ta‘minlaydigan tishlarga ega bo‘ladi. Agar uzatma bir necha pog‘onali bo‘lsa, har bir pog‘onaning manbai tomonidan birinchi vall ikkinchi vallga nisbatan yetaklovchi, ikkinchi vall esa pog‘onadagi yetaklanuvchi vall bo‘ladi. Yuqorida bayon qilingan mashinasozlik elementlarini o‘quvchilarga tushuntirmay va o‘rgatmay turib ularning fikrlash qobiliyatlarini, texnikaga oid bo‘lgan bilimlarini shakllantirish samarali natija bermaydi. Bundan tashqari o‘quvchilarga uzatmalar to‘g‘risida ham qisqacha va yetarli ma‘lumotlar berish zarurdir. Shuning uchun uzatmalar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.


Tasmali uzatmalar. Tasmali uzatmalarning eng oddiyi yetaklovchi, yetaklanuvchi va ularga taranglik bilan kiydirilgan tasmadan iborat bo‘ladi. Ochiq uzatmada vallar bir-biriga parallel bo‘ladi va shkivlar bir yo‘nalishda aylanadi. (rasm)



Zanjirli uzatmalar. Bir biridan uzoqda joylashgan vallar orasida aylanma xarakatda uzatish uchun tasmali uzatmalardan tashqari, zanjirli uzatmalar ham ishlatiladi. Zanjirli uzatma maxsus tuzilishdagi tishli ikkita g‘ildirak va ularga kiydirilgan cheksiz zanjirdan tuzilgan bo‘ladi.



Friksion uzatmalar. Friksion uzatmalar aylanma xarakat yetakchi zvenodan yetaklanuchi zvenoga bir-biriga siqib qo‘yilgan silindirik yoki konussimon silliq g‘ildiraklar, disklar, kataklar yordamida uzatiladi.



Tishli uzatmalar. Tishli uzatmalar sanoat jixozlarining deyarli hamma yig'ish birikmalarida bo'ladi. Shuningdek, tishli uzatmalar yordamida burovchi momentlarini o'zgartirish imkoniyati mavjud. Tishli uzatmada xarakat bir juft g'ildiraklar yordamida uzatiladi. Bu g'ildiraklar ham vallarga qo'zg'almas qilib o'rnatiladi.



Vallarning geometrik usullari ixtiyoriy burchak bilan kesishgan hollarda konussimon g'ildiraklardan foydalaniladi. Konussimon g'ildiraklarni tayyorlash silindrik g'ildiraklarni tayyorlashga qaraganda bir muncha murakkab bo'lib, tishlar uchun maxsus asbob vositalardan foydalanishga to'g'ri keladi. Konussimon g'ildiraklarni tishlab etilgan bilan yig'ish ham qiyin. Konussimon tishli g'ildiraklar tishlarning shakliga ko'ra to'g'ri tishli, qiya tishli va doiraviy profil tishli g'ildiraklarga ajratiladi.

Chervyakli uzatmalar. Chervyakli uzatmalar vallarning o'qlari bo'lgan hollarda kuzatiladi. Chervyakli uzatmalar katta uzatish sonini hosil qilishga imkon bergani uchun ular yetaklanuvchi va uncha katta bo'lmagan doira bilan aylanishi ishlarini bajarishda ishlanadi. Chervyakli uzatmalarni tishli uzatmalarga qaraganda kichikroq joyni egallashi muhim ahamiyatga ega. Chervyakli uzatma yetakchi vallga o'tkaziladigan yoki bu bilan yakka qilib tayyorlangan chervyak va yetaklanuvchi vallga maxkamlangan chervyak g'ildiraklardan tashkil topgan bo'ladi.



VI. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Tokarlik ishi deb nimaga aytiladi?
2. Yog'ochga ishlov berish tokarlik stanogining asosiy qismlari qaysilar?
3. Oldingi babka nima uchun xizmat qiladi?
4. Planshayba nima?
5. Keskich tayanchi nima uchun xizmat qiladi?
6. Qanday holatda orqa babkadan foydalaniladi?
7. Qaysi xavsizlik qoidalariga rioya qilish shart?

Krossvord:

“Stanoklar” krossvordida berilgan so‘zlarga qarab savollar tuzing.

	1	S	T	A	N	I	N	A	
	2	T	A	S	M	A			
3	Z	A	N	J	I	R	L	I	
			N						
4	S	U	P	P	O	R	T		
				K					
5	CH	E	R	V	I	A	K	L	I
	6	U	Z	A	T	M	A		
	7	F	I	K	S	I	O	N	

Mustaqil amaliy ish

1. Yog‘ochga ishlov berish tokarlik stanogi qismlari tuzilishi va bajariladigan vazifalarni o‘rganib chiqing.

2. Stanokda ishlatiladigan keskichlar shakli, ular bilan bajariladigan ishlar, ularni stanokka o‘rnatish qoidalari o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatiladi.

Jihozlar: Yog‘ochga ishlov berish tokarlik stanogi, keskichlar

V. O‘quvchilarni baholash: O‘quvchilar yangi mavzuni qay darajada o‘zlashtirganliklari va dars jarayonidagi ishtiroklari “Bugungi ishni ertaga qo‘yma” metodi asosida baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish, darsni yakunlash: Yangi mavzuni to‘liq o‘qib o‘rganish. Yangi mavzu asosida “Nilufar” guli jadvalini to‘ldirib kelish.

Sinf: 7-sinf

Yo‘nalish: Texnologiya va dizayn.

Metallarga ishlov berish texnologiyasi bo‘limi

Mavzu: Uy ro‘zg‘or, turmush va maktab uchun metal materiallardan buyumlar tayyorlash.

Darsning texnologik xaritasi

Bosiqichlar	Mazmuni	Metodlar	Vaqt
1-bosqich Tashkiliy qism	Salomlashish Davomatni aniqlash Darsga tayyorgarlik ko‘rish O‘quvchilar diqqatini jalb etish	“Eng boy o‘quvchi”	5
2-bosqich O‘tilgan mavzuni mustahkamlash	O‘tilgan mavzu yuzasidab berilgan topshiriqlarni so‘rash va bajarilgan ishlarni tahlil qilish	“Texnologik xarita”, “Loyihalash”	10
3-bosqich Yangi mavzu bayoni	Yangi mavzu o‘quvchilarga to‘liq tushuntiriladi.	“Tushuntirish”	10
4-bosqich Mustahkamlash,	Yangi mavzu turli xil metodlar yordamida mustahkamlanadi.	“Tasavvur qiling”	45

mustaqil ish uchun muammoli topshiriq	Yuzaga kelgan muammoli vaziyatlar ustida ishlanadi.	“Kim eng chaqqon”	
5-bosqich O‘quvchilarni baholash	O‘quvchilar yangi mavzuni qay darajada o‘zlashtirib olganliklari bo‘yicha baholanadi. Baholar izohlanadi.	“Bugungi ishni ertaga qo‘yima”	10
6-bosqich Uyga vazifa, darsni yakunlash	Yangi mavzuni o‘qib o‘rganish. “Krossvord” tayyorlash. Ish joyini tartibga keltirish.	“Krossvord”	10

Dars maqsadi:

Ta’limiy: Uy ro‘zg‘or, turmush va maktab uchun metal materiallardan buyumlar tayyorlash haqida to‘liq ma’lumotlarni berish. O‘quvchilarda Uy ro‘zg‘or, turmush va maktab uchun metal materiallardan buyumlar tayyorlash haqida tasaavurni paydo qilish. Fanga oid bo‘lgan kompetensiyalarni to‘liq shakllantirish.

Tarbiyaviy: O‘quvchilarni tozalikka, mehnatsevarlikka o‘rgatish. Turmushdagi ehtiyojlar va ulardan foydalanishni tushuntirish. Tayanch kompetensiyalarni to‘liq shakllantirishga erishish.

Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarda tayanch va fanga oid bo‘lgan kompetensiyalarning shakllanishiga ko‘maklashish. O‘quvchilarda mavjud shakllangan kompetensiyalarni ko‘ra olish. Soddadan murakkablik tomon ish olib borishni tushuntirish.

Darsning turi: Yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi

Darsda foydalaniladigan metodlar: “Eng boy o‘quvchi”, “Taqdimot”, “Tushuntirish”, “Muammoli vaziyat”, “Krossvord”, “Kim eng chaqqon?”, “Bugungi ishni ertaga qo‘yima”, “Krossvord”, “Test”.

Texnik vositalar: proyektor, notebook.

Darsning jihozi: stanok qismlari, terqatma materiallar, mavzu yuzasidan tayyorlangan test materiallari, rasmlar, doska, mel.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- Salomlashish.
- Davomatni aniqlash.
- Darsga tayyorgarlik ko‘rish.
- O‘quvchilar diqqatini darsga qaratish.

“Eng boy o‘quvchi” metodi qo‘llaniladi. Bu metod orqali o‘quvchilar ingliz tilida nechagacha sanay olishlari tekshiriladi. O‘quvchi “I have 10 dollars” deydi. Ikkinchi o‘quvchi shu songa yana 10 sonini qo‘shib davomm ettirishi kerak. “I have 20 dollars”. O‘yin shu tariqa davom ettiriladi. Qaysi o‘quvchi oxirida son aytib to‘xtasa va undan keyin hech kim davom ettira olmasa o‘sha o‘quvchi g‘olib hisoblanadi.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash:

O‘quvchilar o‘tilgan mavzu bo‘yicha “Texnologik xarita” tayyorlashni o‘rganishgan. Bugungi dars uchun tayyorlanadigan buyumning homaki loyahasini tayyorlab kelish topshirig‘i asosida o‘quvchilarning ishlari tekshiriladi. O‘quvchilarga yana bir marta texnologik xarita tayyorlash bo‘yicha tushunchalar beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni: (amaliy mashg‘ulot)

Metall materiallardan buyum yasash. Qirg‘ich tayyorlash texnologiyasi.

Kerakli hom ashyo va asbob moslamalar; ichimliklardan bo‘shagan tunuka idish, qaychi, marker qalam, qo‘l parmasi, chizg‘ich.

Ishni bajarish tartibi:

1. Iste‘mol qilinib bo‘lgan tunukali idish tanlab olinadi. Idish tayyorlangan tunuka o‘rtacha qattqlikda bo‘lgani maqsadga muvofiq. Chunki yumshoq tunuka idishidan qirg‘ich tayyorlab bo‘lmaydi.

2. Idishning belgilangan qismidan marker qalam yordamida chiziqlar chiziladi. Chiziqlarning oraliq masofasi bir xil bo‘lishiga e‘tibor qaratish lozim.

3. Marker qalami yordamida to‘ri chiziqlarga perpendikulyar holatda yana chiziqlar chizib chiqiladi. Bunday holatda ham chiziqlarning oraliq masofasiga e‘tibor qaratishimiz lozim.

4. Chizilgan chiziqlarning kesishgan joylari belgilab olinib qo‘l parmasi yordamida bir tekis qilib teshib olinadi.


5. Teshilgan teshikchalar qum qog‘oz yordamida silliqiladi.

6. Idishimizdagi ortiqcha metal bo‘laklarini yo‘qotish uchun suv bilan yuviladi.

7. Har bitta teshib chiqilgan teshikchalar parmaning orqa tomoni bilan tepadan pastga qarab bukiladi. Har bitta bukilayotgan teshikchani qayrilish burchagi bir xil bo‘lishi lozim. Aks holda qirg‘ichdan o‘tkaziladigan mahsulotning katta-kichikligi har xil bo‘lib qolishi mumkin.

8. Tayyor bo‘lgan qirg‘ichni sinab ko‘rish mumkin. Biz bilamizki, qirg‘ichdan turli xil mahsulotlarni maydalashda foydalaniladi. Safarga, dam olish maskanlariga sayohatga chiqqanimizda uydagi barcha buyumlarni olib ketishning imkoni bo‘lmaydi. Bunday sharoitda qo‘lbola usulda tayyorlangan qirg‘ich bizga as qotadi.

1-jadval.

T/r	Ishni amalga oshirish bosqichlari	Ishni amalga oshirish bosqichlarining rasmi tasvirda ifodalanishi
1	Iste‘mol qilinib bo‘lgan tunukali idish tanlab olinadi.	
2	Idishning belgilangan qismidan marker qalam yordamida chiziqlar chiziladi. Chiziqlarning oraliq masofasi bir xil bo‘lishiga e‘tibor qaratish lozim.	

		
3	Marker qalami yordamida to'ri chiziq'larga perpendikulyar holatda yana chiziq'lar chizib chiqiladi. Bunday holatda ham chiziq'larning oraliq masofasiga e'tibor qaratishimiz lozim.	
4	Chizilgan chiziq'larning kesishgan joylari belgilab chiqiladi.	
5	Qo'l parmasi yordamida bir tekis qilib teshib olinadi.	
6	Teshik ochish ishlari birin-ketin amalga oshirilib boriladi.	
7	Teshikchalarni barcha nuqtalarda bajarilgani tekshirib chiqiladi.	
8	Teshik teshish vaqtida hosil bo'lgan temir bo'laklarini siliqlash uchun qum qog'ozdan foydalaniladi.	
9	Teshilgan teshikchalar qum qog'oz yordamida silliq'lanadi. Qo'lni temir tilib yubormasligi uchun ish jarayoni asta-sekinlik bilan bajariladi.	

		
10	Idishimizdagi ortiqcha metal bo‘laklarini yo‘qotish uchun suv bilan yuviladi.	
11	Har bitta teshib chiqilgan teshikchalar parmaning orqa tomoni bilan tepadan pastga qarab bukiladi. Har bitta bukilayotgan teshikchanning qayrilish burchagi bir xil bo‘lishi lozim.	
12	Ishni bajarish ketma-ketligi barcha teshiklarni bukib chiqish bilan davom ettiriladi.	
13	Tayyor bo‘lgan qirg‘ichni sinab ko‘rish mumkin.	

IV.Yangi mavzuni mustahkamlash: yangi mavzu amaliy mashg‘ulot davomida mustahkamlanib boriladi.

V.O‘quvchilarni baholash: O‘quvchilarning amaliy mashg‘ulot jarayonida bajargan ishlari diqqat bilan kuzatiladi. Texnika xavfsizligi qoidalariga to‘liq rioya qilib ish bajarganliklari, tayyorlangan buyumni ish ketma-ketligini to‘g‘ri olib borganliklari, buyumning sifati kabi holatlar inobatga olinib baho qo‘yiladi. “Bugungi ishni ertaga qo‘yma” metodi yordamida bu yanada aniqroq bajariladi.

VI.Uyga vazifani e‘lon qilish va darsni yakunlash: Yangi mavzu asosida tayyorlangan qirg‘ichni uyda sinab ko‘ring. Amaliy mashg‘ulot davomida bajargan ishingiz qay darajada sifatli chiqqanligini o‘zingiz baholang. Buyumdagi ortiqcha

kamchiliklarni bartaraf etishga harakat qiling. Uy – ro‘zg‘or va maktab, turmushda foydalaniladigan yana qanday buyumlarni tayyorlay olishingiz haqida o‘ylab ko‘ring.

Sinf: 7-sinf

Yo‘nalish: Servis xizmati.

Ro‘zg‘orshunoslik asoslari bo‘limi

Mavzu: Biskvit xamirini tayyorlash texnologiyasi va bezash.

Darsning texnologik xaritasi

Bosqichlar	Mazmuni	Metodlar	Vaqt
1-bosqich Tashkiliy qism	Salomlashish Davomatni aniqlash Darsga tayyorgarlik ko‘rish O‘quvchilar diqqatini jalb etish		3
2-bosqich O‘tilgan mavzuni mustahkamlash	O‘tilgan mavzu yuzasidab berilgan topshiriqlarni so‘rash va ragbatlantirish.	”Rezyumi” texnologiyasi	10
3-bosqich Yangi mavzu bayoni	Yangi mavzu o‘quvchilarga to‘liq tushuntiriladi.	“Suxbat”, “Taqdimot”	10
4-bosqich Mustahkamlash, mustaqil ish uchun muammoli topshiriq	Yangi mavzu yuzasidan amaliy mashg‘ulot ishlari bajariladi. Amaliy mashg‘ulot davomida yuzaga kelgan muammoli vaziyatlar ustida ishlanadi.	“Qanday-qanaqa” grafikli organayzeri, “Muammoli vaziyat”	60
5-bosqich O‘quvchilarni baholash	O‘quvchilar amaliy mashg‘ulotdagi ishlari orqali baholanadi. Xato va kamchiliklar ustida ishlanadi.	“O‘zini o‘zi baholash”	5
6-bosqich Uyga vazifa, darsni yakunlash	Yangi mavzuni o‘qib o‘rganish. Biskvit xamirini tayyorlashning turli usullarini o‘rganish. Ish joyini tartibga keltirish. Ish qurollarini topshirish.	“Men ijodkorman”	5

Dars maqsadi:

Ta’limiy: O‘quvchilarga biskvit tayolash texnologiyasini o‘rgatish. Fanga oid bo‘lgan kompetensiyalarni to‘liq shakllantirish.

Tarbiyaviy: O‘quvchilarni ijodkorlikka, tejamkorlikka, ozodalikka, mehnatsevarlikka o‘rgatish. Turmushdagi ehtiyojlar va ulardan foydalanishni tushuntirish. Tayanch kompetensiyalarni to‘liq shakllantirishga erishish.

Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarda tayanch va fanga oid bo‘lgan kompetensiyalarning shakllanishiga ko‘maklashish. O‘quvchilarda mavjud shakllangan kompetensiyalarni ko‘ra olish. Soddadan murakkablik tomon ish olib borishni tushuntirish.

Darsning turi: Yangi bilim beruvchi, amaliy.

Darsda foydalaniladigan metodlar: “Rezyumi” texnologiyasi, “Taqqimot”, “Suxbat”, “Qanday-qanaqa” grafikli organayzeri, “Muammoli vaziyat”, “Men ijodkorman”.

Texnik vositalar: proyektor, notebook.

Darsning jihozi: mavzu yuzasidan tayyorlangan tarqatma materiallar, rasmlar, doska, mel, elektrpech, ko'pirtirgich, turli xajmdagi idishlar, qoshiq, bezatish uchun nasadkalar, biskvit uchun qolib.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

1. Salomlashish
2. Davomatni aniqlash
3. Navbatchi tayinlash.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

“Rezyumi” texnologiyasining qo'llanilishi

Texnologiyani o'tkazish tartibi:

- o'quvchilar soniga qarab guruhlariga ajratiladi.
- guruhlariga qog'ozning yuqori qismida yozuvi bo'lgan varaqlar tarqatiladi.
- 1-muammoli savol: “Baliq mahsulotini qanday tozalash mumkin?”
- 2- muammoli savol: “Baliq mahsulotini tozalashda foydalaniladigan asbob va moslamalarni sanab o'ting”
- 3-muammoli savol: “Baliq mahsulotiga birinchi ishlov berish jarayonida talab qilinadigan sanitariya-gigiena va texnika xavfsizligi qoidalarini ayting”
- har bir guruhga tushgan muammolarni afzalligi va kamchiliklarini aniqlab, o'z fikrlarini qog'ozda bayon etadilar. Yozma bayon etilgan fikrlar asosida ushbu muammoni yechimi topiladi va umumiy xulosa chiqariladi.
- guruhlar tayyorlangan materialni taqqimot etadilar. Xulosa qismi o'qib berilmaydi.
- o'qituvchi boshqa guruhlardan taqqimot qilgan guruhning xulosasini chiqarishni talab qiladi, so'ngra taqqimot guruhi o'z xulosasi bilan tanishtiradi.



III. Yangi mavzu bayoni.

Biskvit qolipining hajmidaga qarab o'zgaradi va asosan tuxumlar soni bo'yicha hisoblanadi. 6 talik (6 ta tuxumli), 9 talik (9 ta tuxumli), 12 talik (12 ta tuxumli) va hakoza.

Biskvit tort uchun asos hisoblanadi va uning nomi biskvit tort deb atalishi tort hamiri biskvitdan tashkil topganligidadir.

Amaliy mashg'ulot.
Xavfsizlik texnika qoidalari

1. Ovqat tayyorlashni boshlashdan oldin ishlatiladigan elektr asboblari va jihozlarning foydalanishga yaroqligini tekshirish.
2. Elektr jihozlarni tok manbaiga ulashda qo'l quruq bo'lishi shart.
3. Pichoq boshqa kishiga sop tomoni bilan uzatiladi.
4. Kastr'yulka yoki qozonda suyuqlik qaynatishda uni to'ldirib solish mumkin emas.
5. Qaynab turgan idishning qopqog'ini narigi tomondan ochish.
6. Qaynayotgan suyuqlikka turli mahsulotlarni sachratmasdan, ehtiyotkorlik bilan tashlash.
7. Oshxonada tagi qiyshiq, bandlari singan, cheti uchgan, siri ko'chgan idish-tovoqlarni ishlatmaslik.


Pazandachilik xonasida sanitariya-gigiena qoidalari








1. Ovqat pishirishda maxsus kiyimlar — oq xalat va oq qalpoq kiyish yoki oq ro'mol o'rab olish.
2. Ovqatni tayyorlashga kirishishdan, oldin qo'llarni sovunlab yuvish, tirnoqlarni olish.
3. Ovqat tayyorlashda imkon qadar yangi, sifatli mahsulotdan foydalanish.
4. Ish o'rnini tez-muntazam tozalash va ozoda saqlashga harakat qilish.

Amaliy mashg'ulot uchun zarur bo'lgan asbob va idishlar: elektrpech, ko'pirtirgich, turli xajmdagi idishlar, pichoq, qoshiq, bezatish uchun nasadkalar, biskvit uchun qoliplar.

Kerakli masalliqlar: (9 talik qolib uchun) 9ta tuxum, 1,5 ctakan shakar, 1,5 stakan un, $\frac{1}{4}$ choy qoshiq soda kukuni.

Ishni bajarish tartibi:

T/r	Ishni amalga oshirish bosqichlari	Ishni amalga oshirish bosqichlarining rasmi tasvirda ifodalanishi
1	Tuxum oqini ko'pirtirgichda ko'pirtirib olinadi.	
2	Shakarni 1 choy qoshiqdan sekin-sekin solib, ko'pirtirish davom etiriladi.	

		
3	Un elakda elab solinadi va juda ehtiyotkrlik bilan aralashtiriladi.	
4	Tuxum sarig'i shundoqligicha yoki soda kukuni solib aralashtiriladi.	
5	Qolip ostiga maxsus qog'oz solib yoki margarinni surib, massani quyamiz va 160 °C da 35-40 daqiqa pishiriladi.	 
6	Pishganligini bilish uchun maxsus cho'p biskvitga sanchib ko'riladi, agar cho'p quruq chiqsa demak biskvit pishgan bo'ladi.	
7	Ta'bga ko'ra krem tayyorlanadi.	
7	Did bilan shkolad, mevalar bilan maxsus nosatkalar yordamida bezatiladi.	




Maslahatlar: Tuxum oqi yaxshi ko‘pirish uchun idishda yog‘ yuqi bo‘lmasligi lozim. Tuxum sovutgichda sovutilgan bo‘lishi kerak. Ko‘pirtirish jarayoni shamol esib turgan joyda bo‘lmasligi lozim. Ko‘pirtirishda harakat bir yo‘nalishda (faqat o‘ngga aylantirish yoki chapga) bo‘lishi lozim.

Biskvitni bezatish usular



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: yangi mavzu amaliy mashg‘ulot davomida mustahkamlanib boriladi.

“Qanday-qanaqa” grafikli organayzeri



V. O‘quvchilarni baholash: O‘quvchilarning amaliy mashg‘ulot jarayonida bajargan ishlari diqqat bilan kuzatiladi. Texnika xavfsizligi qoidalariga to‘liq rioya qilib ish bajarganliklari, tayyorlangan biskvitni ketma-ketligini to‘g‘ri olib borganliklari inobatga olinib baho qo‘yiladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish va darsni yakunlash.

Sinf: 8-sinf

Yo'nalish: Servis xizmati.

Ro'zg'orshunoslik asoslari bo'limi

Mavzu: Izonit sana'ti tarixi. Izonitdan namunalar tikish

Darsning texnologik xaritasi

Bosiqichlar	Mazmuni	Metodlar	Vaqt
1-bosqich Tashkiliy qism	Salomlashish Davomatni aniqlash Darsga tayyorgarlik ko'rish O'quvchilar diqqatini jalb etish	“Gul yaproqlari” metodi	3
2-bosqich Yangi mavzu bayoni	Yangi mavzu o'quvchilarga to'liq tushuntiriladi.	“Suxbat” “Taqdimot”	10
3-bosqich Mustahkamlash, mustaqil ish uchun muammoli topshiriq	Yangi mavzu yuzasidan amaliy mashg'ulot ishlari bajariladi. Amaliy mashg'ulot davomida yuzaga kelgan muammoli vaziyatlar ustida ishlanadi.	“Gilamchani to'ldir” “Muammoli vaziyat”	25
4-bosqich O'quvchilarni baholash	O'quvchilar amaliy mashg'ulotdagi ishlari orqali baholanadi. Xato va kamchiliklar ustida ishlanadi.	“O'zini o'zi baholash”	5
5-bosqich Uyga vazifa, darsni yakunlash	Yangi mavzuni o'qib o'rganish. Izonit asosida panno eskizini chizib kelish. Ish joyini tartibga keltirish. Ish qurollarini topshirish.	“Loyihalash”	5

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga iplar grafikasining rivojlanishi tarixi xaqida ma'lumot berish. Tikish usullarini o'rgatish. Fanga oid bo'lgan kompetensiyalarni to'liq shakllantirish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni tejamkorlikka, tozalikka, mehnatsevarlikka o'rgatish. Turmushdagi ehtiyojlar va ulardan foydalanishni tushuntirish. Tayanch kompetensiyalarni to'liq shakllantirishga erishish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda tayanch va fanga oid bo'lgan kompetensiyalarning shakllanishiga ko'maklashish. O'quvchilarda mavjud shakllangan kompetensiyalarni ko'ra olish. Soddadan murakkablik tomon ish olib borishni tushuntirish.

Darsning turi: Yangi bilim beruvchi, amaliy.

Darsda foydalaniladigan metodlar: “Gul yaproqlari” metodi, “Taqdimot”, “Suxbat”, “Gilamchani to'ldir” rasmi topshiriq, “Muammoli vaziyat”

Texnik vositalar: proyektor, notebook.

Darsning jihozi: mavzu yuzasidan tayyorlangan tarqatma materiallar, karton, igna, qaychi, turli rangdagi iplar, rasmlar, doska, mel.

Darsning borishi:

II. Tashkiliy qism.

- Salomlashish
- Davomatni aniqlash
- Navbatchi tayinlash.

“Gul yaproqlari” medodi.

Metodni qoʻllanilishi: Doskaga savollar yozilgan gul yaproqlari yopishtiriladi. Oʻquvchilar tomonidan topilgan har bitta javoblari izoxlanib, gul yaproqlari berkitiladi. Qaysi guruhda koʻp gul yaproqlari berkitilga boʻlsa, shu guruh gʻolib hisoblanadi va baholanadi.



II. Yangi mavzu bayoni.

Yangi mavzu bayoni:

Izonit (iplar grafikasi) – bu qattiq buyumga iplar grafikasi yordamida biror-bir tasvirni yaratishdir.

Izonit (iplar grafikasi) XVII asrda Angliyalik toʻquvchilar tomonidan yaratilgan. Dastlab ular yogʻochning ustki qismiga mixlar qoqib, mixlarga iplarni tortib, turli grafik naqshlarni hosil qilingan. Keyinchalik takomillashtirilib kortonlar, disklar ustiga tasvirlar tushirilmoqda.

Izonit tikish texnikasida asosan uch turdagi usullardan foydalanib naqshlar tikiladi. Bular – 1. Burchak shaklida. 2. Duga (bargsimon, speral) shaklda. 3. Aylana shaklda.

Amaliy mashgʻulot.

Xavfsizlik texnika qoidalari:

1. Tikishda gavdani toʻgʻri tutish, koʻz bilan igna orasidagi masofa 30-35 sm boʻlishi kerak.
2. Xona yaxshi yoritilgan va yorugʻlik oʻng tomondan tushishi kerak.
3. Tikishda ishlatiladigan asboblarni sarajom qilib maxsus qutichalarda saqlanishi kerak.

4. Ninani ishlatib bo'lgandan so'ng yostiqchaga qadab qo'yish kerak.
5. Chokni tikib bo'lgandan so'ng qolgan ipni qaychi yordamida uzish kerak.

Qaychidan foydalanish qoidalari.

1. Qaychidan foydalanishda sinfda ustozingiz, uyda esa ota-onangiz ko'magi tayaning.
2. Qaychi belgilangan joyda, belgilangan holatda saqlang.
3. Qaychini uchini yuqoriga qaratib ushlang.
4. Qaychini ochiq holda qoldirmang.
5. Qaychini yurib turganida ishlatmang.
6. Qaychini faqat yopilgan holda uchidan ushlab o'rtog'ingizga uzating.
7. Qaychini ishlatayotganda kesilishning yo'nalishi hamda materialni ushlab turgan chap qo'l barmoqlarini kuzatib turing.
8. Yaroqsiz qaychini ishlatmang, uni o'qituvchingizga topshiring.





III. Yangi mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini mustahkamlash:

Iplar grafikasi usullarini tikish jarayoni.



Burchak shaklini hosil qilish jarayoni quyidagicha.

1. Kartonga kerakli burchak rasmini chizib olinadi.
2. Burchaklarni teng qismlarga bo'linadi. Qismlar kattaligi 0,5-1 sm.dan oshmasligi kerak.
3. Chap tomondan boshlab nomerlanadi hamda teshikchalar hosil qilinadi.
4. Berilgan sxema bo'yicha tikiladi.





Dugalar (bargsimon, speral) shaklini hosil qilish jarayoni quydagicha.

1. Kerakli dugalar (bargsimon, speral) rasmini chizib olinadi.
2. Teng qismlarga bo'linadi. Qismlar kattaligi 0,5-1 sm.dan oshmasligi kerak
3. Dugalarda sperallar boshidan nomerlanib tikilsa maqsadga muvofiq bo'ladi




Aylana shaklini hosil qilish jarayoni quyidagicha.

1. Kerakli aylana rasmini chizib olinadi.
2. Teng qismlarga bo'linadi. Qismlar kattaligi 0,5-1 sm.dan oshmasligi kerak
3. Soat strelkasi bo'ylab nomerlanadi hamda teshikchalar hosil qilinadi.
4. Berilgan sxema bo'yicha tikiladi.




Sxemalar yordamida o'quvchilar namuna tikadilar.

“Gilamchani to'ldir” rasmi topshiriq. Bu topshiriqda biror- bir rasm fragmentini olib tashlanadi. O'quvchilar bu fragmentlarni kekakligini topib rasmga joylashtirishlari lozim. Ushbu rasmi topshiriq o'quvchilarda kreativ qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.



IV. O‘quvchilarni baholash:

V. Uyga vazifa: Kartonga “Oq qush” tasvirini chizish, belgilangan nuqtalarda teshikchalar hosil qilish.



VI. Darsni yakunlash:

Sinf: 9-sinf

Yo‘nalish: Texnologiya va dizayn yo‘nalishi.

Kasb tanlashga yo‘naltirish.

Mavzu: Kasb tushunchasining ta’rifi. Kasbni to‘g‘ri tanlashning mohiyati va istiqboli.

Darsning texnologik xaritasi

Bosqichlar	Mazmuni	Metodlar	Vahti
1-bosqich Tashkiliy qism	Salomlashish Davomatni aniqlash Darsga tayyorgarlik ko‘rish O‘quvchilar diqqatini jalb etish	“Rasmi jumboq”	3
2-bosqich O‘tilgan mavzuni mustahkamlash	O‘tilgan mavzu yuzasidab berilgan topshiriqlarni so‘rash va ragbatlantirish.	“Taqqdimot” “Aqliy hujum”	7
3-bosqich Yangi mavzu bayoni	Yangi mavzu o‘quvchilarga to‘liq tushuntiriladi.	“Suxbat” “Tushuntirish”	20
4-bosqich Mustahkamlash, mustaqil ish uchun muammoli topshiriq	Yangi mavzu yuzasidan mantiqiy savol beriladi.Dars davomida yuzaga kelgan muammoli savollar ustida ishlanadi.	“Muammoli savollar”	5
5-bosqich O‘quvchilarni baholash	O‘quvchilar bergan javoblari orqali baholanadi.	“O‘zini o‘zi baholash”	5
6-bosqich Uyga vazifa, darsni yakunlash	Yangi mavzuni o‘qib o‘rganish. Kasbni to‘g‘ri tanlashning mohiyati va istiqboli haqida konspekt yozish. “B/B/B” jadvalini to‘ldirish	“B/B/B”	5

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga kasb tanlashdagi xatolar va qiyinchiliklarni o'rgatish. Kasbni to'g'ri tanlashning mohiyati va istiqbolini tushuntirish. Shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni har qanday kasb egasi bo'lganda ham odamiylik sifatleri yo'qolmasligiga o'rgatish. Kasbiy odob-ahloq qoidalarini singdirish. Umummadaniy, kommunikativ, faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda kasb tanlashdagi xatolar va qiyinchiliklarni yenga olish ko'nikmalarini rivojlantirish. Fanga oid hamda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish.

Darsning turi: Yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi

Darsda foydalaniladigan metodlar: "Rasmi jumboq", "Suxbat", "Tushuntirish", "Muammoli savollar", "O'z-o'zini baholash", "BBB".

Texnik vositalar: proyektor notebook, kompyuter.


Darsning jihozi: mavzuga oid ko'rgazmalar, rasm plakatlar, doska

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

- Salomlashish
- Davomatni aniqlash
- Darsga tayyorgarlik ko'rish
- O'quvchilar diqqatini jalb etish

"Rasmi jumboq" mashqi: O'quvchilarga rasm tasviri ko'rsatiladi. Rasmda nimalar tasvirlangani so'raladi. O'quvchilar fikri eshitiladi. Shu orqali o'quvchilarning diqqati darsga qaratiladi.



II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Tanlangan kasb-hunar turini egallashda inson salomatligiga qo'yilgan talablar haqida tayyorlangan referatlarni taqdimotini o'tkazish.

III. Yangi mavzu bayoni.

Kasb – ma'lum darajadagi tayyorgarlikni talab etadigan, davlatning qonun hujjatlarida taqiqlanmagan, bajaruvchiga iqtisodiy foyda keltirishi imkoniyati mavjud bo'lgan alohida faoliyat turidir. Har qanday shaxs hayotining xotirjamligiva moddiy farovonligining asosi unung kasbidir. Har qanday inson o'z hayotida muvaffaqiyatga erishishni xohlasa u to'g'ri tanlangan o'z kasbining egasi bo'lishi kerak. Faqat

muvaffaqiyatni xohlamagan befarqlar uchungina kasb tanlash muhim tuyulmaydi. Har qanday muvaffaqiyatga erishganlar o'zining kasbidan faxrlanishlari shart. Buning uchun nima ekanligini yuzaki emas, chuqur his qilgan holda tushunib olish talab etiladi. Kasb tanlash uchun zarur bo'lgan asosiy tamoyillarni o'z ichiga olgan. Ya'ni; birinchisi – tayyorgarlik, ikkinchisi – qonuniylik, uchinchisi – foydalilik, to'rtinchisi – Ixtiyoriylik (o'z xohishi bilan amalga oshiriladigan faoliyat turi sifatida), beshinchisi – alohidalik tamoyilidir.



1-rasm. Kasb tushunchasining asosiy tamoyillari.

Kasbning “tayyorgarlik” tamoyili.

Har qanday kasbni har qanday inson bajarib ketavermaydi. Qaysidir bir kasbga ko‘proq, qaysidir kasbga ozroq talablar qo‘yiladi, ishchi bunday talablarga javob berishi uchun ta’lim olishi zarur. Qaysidir bir kasbga davlat ta’lim muassasalarida tayyorgarlikdan o‘tish talab etilsa, qaysidir kasbga nodavlat ta’lim muassasalarida yoki biror ustozga shogird tushgan holda tayyorgarlikdan o‘tiladi. Har bir kasb egasi uchun amalga oshiriladigan xatti-harakatlar majmui mavjud.

- A) davlat tomonidan nazoratga olingan kasblar;
- B) ish beruvchi tomonidan nazoratga olingan kasblar;
- D) xaridor yoki iste’molchi tomonidan nazorat qilinadigan kasblar

Kasbning “qonuniyligi” tamoyili.

Faoliyat har xil bo‘lishi mumkin, eng asosiysi ular qonunlarda taqiqlanmagan bo‘lishi zarur. Qonunlarda jinoyatni keltirib chiqaradigan barcha faoliyat turlari bilan shugullanish man etiladi. Qanday faoliyat turi bilans hugullanish mumkin emasligini bilib olish uchun tegishli qonun xujjatlari bilan tanishib chiqish zarur.

Kasbning qonuniyligi tamoyili “shug’ulanishda kirishayotgan faoliyatimizda qonun meyorlari buzilishiga yo‘l qo‘yilmaydimi?” degan savolga aniq javob topganimizdan so‘ng kirishimiz zarur.

Kasbning “foydalilik” tamoyili.

Kasb pul ko‘rinishida katta foyda keltirishi mumkin, lekin bunday foydani olish uchun sarf etilayotgan soliq va vaqtni ham inobatga olish zarur ekan. Kasb jamiyatga foyda keltirsagina u biz uchun ham foydali hisoblanadi. Aks holda jamiyat a‘zolari bizning faoliyatimizga haq to‘lamaydilar. Kasb jamiyatga va jamiyat a‘zolariga foyda keltirsagina u juda kerakli va foydali hisoblanadi.

Kasbning “ixtiyoriylik” tamoyili.

Har kim o‘z xatti-xarakterini amalga oshirishda erkinlik, faqat bunday erkinlik boshqalarning huquqlarini poymol etmaslik kerak. Kasb tanlashda esa erkinlikni jamiyat beradi, siz jamiyatning mehnat bozorida mavjud bo‘lgan kasblardan birini tanlashingiz mumkin.

Kasbning “alohidalik” tamoyili.

Bu tamoyil bir kasbni ikinchisidan farqlashda ishlatiladi. Kasblar oldiga qo‘yilgan maqsaddan kelib chiqib, ularda bajariladigan ishlar va vazifalar bir-biridan farq qiladi. Masalan, uchuvchi, taksi haydovchisi va teplavoz mashinisti. Ularning bajarayotgan vazifalari bir xil lekin boshqa nom berilgan: uchuvchi, taksist, mashinist. Inson o‘z hohish va imkoniyatidan kelib chiqib tanlaydi.

IV. Yangi mavzu yuzasidan o‘quvchilar bilimini mustahkamlash:

1. Kasb tushunchasining ta‘rifi?
2. Kasb tushunchasining asosiy tamoyillarini aytib bering?
3. Kasblar doirasida bajariladigan tayyorgarlik darajalarini aytib bering ?

“Muammoli savol” topshirig‘i:

- o‘quvchi o‘zi tanlamoqchi bo‘lgan kasbidan qoniqish hosil qila olmayapdi. Bunday hollarda o‘qituvchi va o‘quvchi qanday yo‘l tutishi lozim?

- o‘quvchi ota-onasining hohish istagi orqali kasbni tanlashga majbur bo‘ldi. Lekin o‘quvchida bu tanlangan kasb bo‘yicha qiziqish umuman yo‘q. lekin ota-onasining hohishiga qarshi bora olmayabdi. Bunday hollarda qanday yo‘l tutilsa maqsadli bo‘ladi.

V. O‘quvchilarni baholash:

Darsda faol qatnashgan o‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsdagi ishtirokiga qarab baholash. O‘z-o‘zini baholay olish ko‘nikmasini shakllantirish.

VI. Uyga vazifa berish, darsni yakunlash:

O‘quvchilar o‘z qiziqishlaridan kelib chiqib “Men kelajakda tanlamoqchi bo‘lgan kasb turi” mavzusida mustaqil ish tayyorlash.

YANGI AVLOD DARSLIKLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Texnologiya fanidan 6-7 sinflar kesimida chop etilishi rejalashtirilgan yangi o‘quv darsligi mazmun-mohiyati

“Texnologiya” fani darsligi insonlar hayotida muhim o‘rin tutuvchi amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko‘rishga yordam beruvchi muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar voyaga yetib qaysi kasbni egallashmasin, kim bo‘lmasin, texnologiya fanidan olgan bilim va ko‘nikmalarini uyda, oilada, ish faoliyatida albatta foydalanadi.

O‘quvchilar texnologiya fani jarayonida materialshunoslik, asbob-uskunalar, moslamalar va ulardan foydalanishga oid bilimlarni o‘zlashtiradilar. Mahsulot ishlab chiqarish va uy-ro‘zg‘or buyumlarini ta’minlashga oid ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar.

Ijodkorlik – bu yangi g‘oyaga asoslangan moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratishdir. Ijodiy faoliyat tufayli insoniyat madaniyati rivojlanib, taraqqiy etib, hayotimiz yanada qulay va qiziqarli bo‘lib bormoqda. Sizni o‘rab turgan barcha buyumlar, jihoz va uskunalar ijodkor insonlar tomonidan yaratilgan texnik vosita va texnologiyalarning mahsuli hisoblanadi. Ular mehnati natijasida ulkan samolyotlar, zamonaviy avtomobillar, katta imkoniyatlarga ega kompyuterlar va biz uchun qadri boshqa ne’matlar yaratilgan. O‘quvchilarimiz ham kelajakda voyaga yetib, tanlagan kasbini mukammal egallab, bu taraqqiyotga o‘z hissanlarini qo‘shadilar.

Texnologiya fanining “Texnologiya va dizayn” va “Servis xizmati” yo‘nalishlarining turli mavzulari bo‘yicha murakkabroq ishlarni bajarib, o‘quvchilar olgan bilimlarini rivojlantiradilar. Bu bilan egallagan bilimlari orqali sidqidildan va ijodkorlik bilan ishlashda, ko‘zlagan maqsadga intilishda va yuksak samaralarga erishishda har qanday qiyinchilikni yenga oladilar.

Ushbu darslikda tegishli ishlarni bajarishning yo‘l-yo‘riqlari berilgan bo‘lib, ularni o‘z maktabingiz sharoitiga, o‘z sinfingiz imkoniyatiga moslab amalga oshirishingiz mumkin. Mazkur darslik ko‘zlagan buyuk maqsadlaringizga erishishingizda yaqin ko‘makchingiz bo‘ladi.

Yangi o‘quv dasturi asosida chop etilishi rejalashtirilgan darsliklar va ulardan foydalanish

Darsliklar kirish qismi, texnologiya va dizayn hamda servis xizmati yo‘nalishlarida berilgan mavzular, mundarija, qisqacha izohli lug‘atdan iborat. Darslikda berilgan barcha mavzular yangi o‘quv yilida ishlab chiqilgan kompetensiyaviy yondashuvga asoslanib ishlab chiqilgan DTSga to‘la mos keladi. Darsliklarda berilgan barcha mavzular o‘quvchi yoshiga moslab shakllantirilgan. Darsliklar bir-necha marta texnologiya fani mutaxassislari ishtirokida tuzilgan ishchi guruhi tomonidan tahlil qilinib xulosalangan. Darsliklarda nazariy ma’lumotlar ham amaliy mashg‘ulotlardan foydalanish texnologiyalari to‘liq yoritilgan. O‘quvchilar

darsliklardan qulay foydalanishlari uchun barcha ma'lumotlar tushunarli tarzda yoritib berilgan. Texnologiya fani darsliklarida umumiy tushunchalar, asbob-uskuna va ulardan foydalanish, mashina mexanizm va ulardan foydalanish, mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasi, yog'och materiallarga ishlov berish texnologiyasi, polimer materiallar va ularga ishlov berish texnologiyasi, metallarga ishlov berish texnologiyasi, elektrotexnika va elektronika ishlari, ro'zg'orshunoslik, pazandachilik asoslari, tikuvchilik texnologiyasi, gazlamaga ishlov berish texnologiyasi, kasb tanlashga yo'llash, xalq hunarmandchiligi kabi bo'limlari alohida ajratilib to'liq yoritib berilgan. Texnologiya va dizayn hamda servis xizmati yo'nalishlarida yuqoridagi bo'limlar soatlar bo'yicha taqsimlanib mavzular ochib berilgan. Darsliklar o'quvchilar uchun foydalanishga qulay tarzda shakllantirilgan bo'lib undagi chizmalar, rasmlar, muammoli savol topshiriqlari, krossvordlar bola yoshiga moslab tayyorlangan. O'quvchilar darsliklardagi muammoli savol topshiriqlarni bajarish orqali o'zlarida shakllantiriladigan tayanch va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantiriladi. O'quvchilardagi kompetentlikni rivojlantirish esa biz o'qituvchilar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Zero kelajagimiz shu yoshlar qo'lida. Keling birgalikda texnologiya fani darsliklarida chop etilishi rejalashtirilayotgan muammoli savol topshiriqlarini bajarishga harakat qilib ko'raylik.

Yangi o'quv darsliklarida chop etilishi rejalashtirilayotgan muammoli topshiriqlar:



1. Yo'nalish nomi "Pazandachilik".

Tanlangan raqam: "10"

Muammoli topshiriq: Ovqat tayyorlash jarayonida tayyorlanayotgan ovqatning mazasi sho'r bo'lib qolsa qanday yo'l tutasiz?

Muammoli topshiriqda berilgan muammo o'rtaga tashlanadi. O'quvchilar muammoli vaziyatni yechish uchun o'z fikrlarini bildirishadi. Eng to'g'ri deb olingan fikrlar belgilab olinadi. Keyin o'qituvchining javobi bilan solishtiriladi.

Javob: ovqatga yana qo'shimcha kartoshka, guruch qo'shaman, chunki ular tuzni o'ziga tez tortib oladi. Suyuq taomlarga suv qo'shib bir oz qaynatish kerak. Ovqat sal ko'payadi, lekin bu yo'l orqali sho'r ta'mdan qutilish mumkin.

2. Yo‘nalish nomi “Pazandachilik”.

Tanlangan raqam: “20”

Muammoli topshiriq: Oshirma hamirning oshmay qolishiga nima sabab bo‘lishi mumkin. Agan oshirma hamir oshmay qolganda qanday yo‘l bilan uni bartaraf etish mumkin.

Muammoli topshiriqda berilgan muammo o‘rtaga tashlanadi. O‘quvchilar muammoli vaziyatni yechish uchun o‘z fikrlarini bildirishadi. Eng to‘g‘ri deb olingan fikrlar belgilab olinadi. Keyin o‘qituvchining javobi bilan solishtiriladi.

Javob: *oshirma hamir qorilgan sut yoki suv me‘yoridan ortiq sovuq yoki issiq bo‘lib qolganda hamir oshmay qoladi. Agar suv yoki sut sovub qolgan bulsa hamir qorib bo‘lingach u yaxshilab o‘rab qo‘yiladi hamda ustidan yoki yon atroflariga issiqlikni yaxshi saqlovchi buyumlarda qaynagan suv qo‘yiladi.*

3. Yo‘nalish nomi “Yog‘ochga ishlov berish texnologiyasi”.

Tanlangan raqam: “20”

Muammoli topshiriq: Tirnoqli birikmalarni biriktirishda yog‘och iskanjasi yog‘och sirtiga botib ketsa, ya‘ni buyum sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatsa nima qilish kerak?

Muammoli topshiriqda berilgan muammo o‘rtaga tashlanadi. O‘quvchilar muammoli vaziyatni yechish uchun o‘z fikrlarini bildirishadi. Eng to‘g‘ri deb olingan fikrlar belgilab olinadi. Keyin o‘qituvchining javobi bilan solishtiriladi.

Javob: *yog‘och yuzasiga iskanja tomonidan yetkazilgan zararni qum qog‘oz yordamida ishqalansa yana o‘z holiga qaytadi, yoki uning ustidan maxsus yelim qog‘oz yelimlanadi. Iskanja siqib qolgan joyni yo‘och qipig‘iga yelim aralashtirib qorishmani surtib tekislab qo‘ysa ham nuqson bartaraf etiladi.*

4. Yo‘nalish nomi “Tikuvchilik”.

Tanlangan raqam: “30”

Muammoli topshiriq: Termo yelim bilan ishlaganda uning uch qismidan to‘xtamasdan yelim oqayotgan bo‘lsa uni to‘xtatish uchun qanday choralarni ko‘rish lozim?

Muammoli topshiriqda berilgan muammo o‘rtaga tashlanadi. O‘quvchilar muammoli vaziyatni yechish uchun o‘z fikrlarini bildirishadi. Eng to‘g‘ri deb olingan fikrlar belgilab olinadi. Keyin o‘qituvchining javobi bilan solishtiriladi. Ishning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligi amaliy mashg‘ulot vaqtida ham tekshirilib ko‘rilishi mumkin.

Javob: *Termo yelimning orqa tomonidan o‘rnatilgan yelimni bir oz orqaga tortib qo‘yilsa yelim oqishdan to‘xtaydi. Termo yelim to‘liq isimaguncha uni ishlatib ko‘rish mumkin emas. Ortiqcha qilingan harakat ham yelimning behuda sarf bo‘lishiga olib keladi.*

5. Yo‘nalish nomi “Ro‘zg‘orshunoslik”.

Tanlangan raqam: “50”

Muammoli topshiriq: ro‘zg‘orda doimiy foydalaniladigan plastmassa idishlari o‘ziga turli xil xidlarni tez saqlab qoladi. Ayniqsa piyoz va sarimsoq piyozning hidalarini yuvib ketkazish ancha muskul. Bunday hollarda qanday yo‘l tutasiz?

Muammoli topshiriqda berilgan muammo o‘rtaga tashlanadi. O‘quvchilar muammoli vaziyatni yechish uchun o‘z fikrlarini bildirishadi. Eng to‘g‘ri deb olingan

fikrlar belgilab olinadi. Keyin o'qituvchining javobi bilan solishtiriladi. Ishning to'g'ri yoki noto'g'riligi amaliy mashg'ulot vaqtida ham tekshirilib ko'rilishi mumkin.

Javob: *Plastmassa idishini yaxshilab yuvib uni sovuq suvga chayib muzlatkichning muzxonasida saqlansa idishdagi xid yo'q bo'ladi.*

Yuqorida keltirilgan muammoli topshiriq savollariga o'quvchilar bilan birgalikda yechim izlanadi. Topilgan yechimlar muhokama qilinadi. Muhokama jarayonida hato deb topilgan javoblar bilan to'g'ri deb topilgan javoblar taqqoslanadi. Eng kerakli va to'g'ri javob variantlari tanlab olinadi.

Muammoli topshiriq savollarini muhokamaga qo'yishdan maqsad o'quvchilarning kompetentlik qobliyatlarini shakllantirish, o'z ustilarida mustaqil ishlashga o'rgatish muammoli vaziyatlardan oqilona yo'l bilan chiqib keta olish ko'nikmasini shakllantirish.

O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH ASOSLARI

Uzluksiz ta'limning tarkibiy qismlari bo'lgan umumiy o'rta ta'lim hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'rtasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish faoliyatini qay darajada to'g'ri tashkil qilinishiga bog'liq. Bu esa, Respublikamizning barcha hududlarida faoliyat ko'rsatayotgan o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis xizmati tizimining mutaxassislari zimmasiga o'ta mas'uliyatli vazifalarni yuklamoqda. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini zamon talablariga moslashtirish dolzarb hisoblanadi, bu esa kasbiy axborotlar va kasbiy maslahatlar tizimini takomillashtirish, kasb-hunarga yo'naltirish xonalarini axborot materiallari bilan boyitishni taqozo etadi.

Kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis xizmati xonalarini mazmunan boyitish maqsadida Respublika tashxis Markazi tomonidan "Kasb-hunarga yo'naltirish asoslari" mavzusidagi elektron axborot-ta'lim resursi (EATR)dan ilk bor 2017 yilda ishlab chiqildi, Markazining 2017 yil 30 iyundagi ilmiy-metodik kengashida tasdiqlandi va ta'lim jarayonida foydalanish uchun tavsiya etildi.

Ushbu EATR 18 ta slyaddan iborat bo'lib, kasb-hunarlarining tuzilmalari hamda kasb-hunarga yo'naltirish bosqichlarini o'zida aks ettiradi.

Mazkur elektron qo'llanmada undan foydalanish, ular bilan xonalarni jihozlash, mutaxassislarga maslahatlar, tavsiyalar o'z aksini topgan.

Ta'lim jarayonida mazkur "Kasb-hunarga yo'naltirish asoslari" mavzusidagi EATRDan oqilona foydalanish quyidagilarga olib keladi:

o'quvchilarda axborot tafakkurni rivojlantiradi va ularda axborot-kommunikatsiya kompetensiyalarini shakllantiradi;

o'quvchilarning o'rganayotgan texnologiya faniga hamda "Umumta'lim maktablarida uzluksiz kasb-hunarga yo'naltirish Dasturi"da belgilangan mavzulariga qiziqishlarini ortiradi;

o'qitishning qulaylik darajasi oshadi, o'quvchilarda o'rganilayotgan mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni shakllanishi yengillashadi, shuningdek o'rganilgan materiallar mustaxkamlanadi;

o'qituvchi va o'quvchining mexnat va vaqt sarfini kamaytirgan holda o'qitishning yakuniy natijasiga yetishga qaratilgan, darsda bajariladigan ishlar hajmini 2-2,5 barobarga oshishiga olib keladi;

o'quvchiga - o'quv materialining o'zlashtirganlik darajasini mustaqil baholash, o'zining o'zlashtirganlik darajasini hisobini yuritish imkoniyatlarini beradi;

mashg'ulotlarni yuqori estetik va xissiy darajada tashkil qilish imkoniyatini beradi.

Mazkur EATR yordamida o'quvchi amalga oshirish mumkin bo'lgan ayrim imkoniyatlarni ko'rib chiqamiz:


mazkur EATRDan uyda hamda mashg'ulotlarining turli bosqichlarida – yangi mavzuni o'rganishda, avval o'rganilgan mavzularni takrorlash va mustahkamlashda – foydalanish mumkin bo'ladi, texnologiya fani darslari va kasb-hunarga yo'naltirish mashg'ulotlariga mustaqil tayyorgarlik ko'rish va bunga kam vaqt sarf qilinadi;

yangi o'quv materiallarini idrok etish, tushunib yetish, eslab qolish va mustahkamlash samaradorligi oshiriladi;

o'quvchilarning bilishga bo'lgan intilish faoliyatlarini yanada qiziqarli va samarali tashkil qilinadi;

dars mashg'ulotining ko'rgazmalik darajasi ortadi.

Texnologiya fani darslarida va kasb-hunarga yo'naltirish mashg'ulotlarida 8-sinfda "Texnologiya fan mazmunini kasb-hunarga yo'naltirish ishlari bilan uzviyligi" 18-mavzuni, 9-sinfda esa "Kasb tushunchasining ta'rifi. Kasbni to'g'ri tanlashning mohiyati va istiqboli" 1-mavzuni o'rganishda mazkur EATRdagi "**Kasblar turkumlari**" nomli 1-slaydidan foydalanish tavsiya etiladi.



1-slayd

Mazkur slaydorqali o'quvchilar dunyoda minglab kasblar mavjudligini hisobga olgan holda, manashu rangbarang kasblar olamida qanday qilib mo'ljallanish kerak, hayot yo'lini mehnat faoliyatini tog'ri baholash uchun qaysi kasbni tanlagan maqul degan savollarga javob topa olishlariga yordam beradi. O'qituvchi uchun mavzuni keng va tez yoritib berishiga yordam beradi.

"**Mehnat predmeti bo'yicha kasblarning tasniflari**" nomli 2-slayddan 8-sinfda "Kasblar tasnifi, kasb tiplari va turlarining ta'rifi" 19-, 20-mavzuni o'rganish uchun foydalanish maqsadga muvofiq.

Uning yordamida o'quvchilar mehnat predmetlarining nechta turga bo'linishi haqida ma'lumotga ega bo'ladilar, o'zining qiziqqan



2-slayd

kasbini qaysi turga kirishini qaysi turda ijod qilishi nimalarga ko'proq e'tibor qaratishi kelajakda uning hayot yo'li ko'proq kimlar yoki nimalarga bog'liqligi haqidagi ma'lumotga ega bo'lishadi.

Mazkur slaydda har bir belgiga mos keluvchi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tayyorlov yo'nalishlariga mos bo'lgan ayrim kasb-hunarlardan misollar keltirilgan, undan foydalanish vaqtida hududdagi mavjud kasb-hunarlar doirasida qo'shimcha to'ldiruvchi misollar keltirish mumkin.

O'qituvchi mavzularni tushuntirishda kasblar turini oson va tez yoritib berishga erishadi.


Maktab amaliyotchi psixologlari "Differentsial diagnostik so'rovnoma" metodikasi bilan ishlash jarayonida ushbu slaydni ko'rgazma sifatida ishlatishlari mumkin.

8-sinfda "Kasblarning guruhlari, turkumlari vaxususiyatlari" 21-mavzuni, **9-sinfda** "Qiziqish va qobiliyatni fniqlash usullari" 4-mavzuni o'tishda "**Mehnat**

maqsadi bo'yicha kasblarning tasniflari" nomli 3-slayddan foydalanish tavsiya etiladi.

Uning yordamida o'quvchilar kasblarning guruhlari turkumlari va xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lishadi. Kelajakda tanlagan kasbi aqliy yoki ijodiy faoliyat bilan bog'liqligi haqida ma'lumotga ega bo'lishadi.

O'qituvchi kasblarning guruhlari turkumlari va xususiyatlari haqida o'quvchilarga slayd orqali to'liq ma'lumot bera oladi.



3-slayd

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar bilan o'tkaziladigan "Qiziqishlar xaritasi" metodikasi bilan ishlash chog'ida ham ushbu slaydlar amaliyotchi psixologlarga qo'l kelishi mumkin.

"Mehnat quroli bo'yicha kasblarning tasniflari" nomli 4-slayddan 9-sinfda "Kasb tanlashga qo'yiladigan talablar. Kasbiy o'zgaruvchanlik va tanlov tushunchasi", "Kasb tanlashdagi onglik va mustaqillik. Kasb tanlashdagi xatolar va qiyinchiliklar, kasblarning murakkablik omillari", "Kasb tushunchasi, kasbiy qiziqish, moyillik, qobiliyat, yaroqlilik va o'quvchining imkoniyatlari" 5-, 6- va 7-mavzularni o'rganish uchun foydalanish tavsiya etiladi.



4-slayd


Bu slayd yordamida o'quvchilar mehnat vositalaridan foydalanishiga qarab kasblarning bo'linishi, tanlagan kasbi bilan kelajakda ko'proq mashg'ul bo'ladigan faoliyati haqida ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

O'qituvchi har bitta vositalarni ketma ketlikda kengroq yoritub bera oladi.

O'quvchilar bilan "Qiziqishlar xaritasi" metodikasi bo'yicha ishlash chog'ida ham ushbu slaydlar amaliyotchi psixologlarga qo'l keladi.

"Mehnat sharoiti bo'yicha kasblarning tasniflari" nomli 5-slayddan 9-sinfda "Kasb tushunchasining ta'rihi. Kasbni to'g'ri tanlashning mohiyati va istiqboli" 1-mavzu mazmunini o'quvchilarga tushuntirish uchun foydalanish tavsiya etiladi.

Mazkur slaydda berilgan ma'lumotlar orqali o'quvchilar kasblarni mehnat sharoiti bo'yicha to'g'ri tanlash va mohiyati haqida fikrga ega bo'ladilar.




5-slayd

O'qituvchi mavzuni o'quvchilarga bosqichma-bosqich yoritib bera oladi.

Amaliyotchi psixolog "Xolland", "Shaxs tiplari va ularga mos keluvchi kasblarni aniqlash" psixologik-pedagogik tashxis metodikalari kabilarni o'tkazishda mazkur slayddan foydalaniladi.

O'quvchining kasb-hunarni ongli ravishda tanlashi va kasbiy o'zligini anglash jarayoni "Kasb tanlash bosqichlari" nomli 6-slaydida ko'rsatilgan. Undan 9 sinfda "Kasb tushunchasining ta'rifi. Kasbni to'g'ri tanlashning mohiyati va istiqboli", "Kasb tanlashda shaxs, kasbiy qiziqish, moyillik, qobiliyat va o'quvchining imkoniyatlari. O'smir va muomala psixologiyasi" 1-, 2-mavzular mazmunini o'quvchilarga tushuntirish uchun foydalanish tavsiya etiladi.



6-slayd

Slayd bilan ishlaydigan o'quvchi o'zining orzusi bilan qiziqishi, bilimi, layoqati, moyilligi, imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tanlagan kasbga nisbatan kuchli qiziqish bor yoki yo'qligi, shu kasbni keyinchalik ham qiziqish bilan davom ettira olish yoki olmasligi haqida tushunchaga ega bo'ladi. O'quvchini qiziqishi orqali tanlagan kasbning jamiyat ehtiyojiga mos kelishi yoki yo'qligi haqida o'ylashga majbur etadi.


O'qituvchi har bir o'quvchini kasb tanlashda o'zining qiziqishi, bilimiga va jamiyatdagi ehtiyoj bilan mos kelish yoki kelmasligi haqida o'quvchilar bilan o'rtoqlashishga yordam beradi.

Mazkur slayddan kasbga yo'naltirish kursining "Kasb tanlashga doir reja tuzish", "Kasbni to'g'ri tanlashning mohiyati va istiqboli" mavzulari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tishda ko'rgazmali vosita sifatida foydalaniladi.

"Qiziqishlar xaritasi" metodikasi bilan ishlash jarayonida o'quvchilarga tushuntirish uchun ko'rgazma sifatida ishlatish mumkin.

"Bilaman. Bilim-shaxs rivojlanishi davomida egallangan axborotlar majmuidir" nomli 7-slaydidan 8-sinfda "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimi" 24-mavzuni o'quvchilarga tushuntirishda foydalanish tavsiya etiladi.

Slayd bilan ishlaydigan o'quvchi tanlagan kasblar haqidagi bilimini faqat o'qituvchidan emas oila a'zolari, yaqinlari, tanishlaridan ham olishi mumkinligi haqida ma'lumot va maslahat oladi. U o'quvchini o'zi qiziqqan kasbning ustalari haqida ham ma'lumot yig'ishga, ular bilan suhbatda bo'lishga undaydi.




7-slayd

O'qituvchi turli kasb egalarining yutuqli qirralari haqida ma'lumot yig'ishga kirishadi. Axborot vositalaridan foydalanadi.

Mazkur slayddan kasbga yo'naltirish kursining "Kasb tanlashga doir reja tuzish", "Kasbni to'g'ri tanlashning mohiyati va istiqboli" mavzulari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tishda va "Qiziqishlar xaritasi" metodikasi bilan ishlash jarayonida ham o'quvchilarga tushuntirish uchun ko'rgazma vosita sifatida foydalaniladi.

"Xohlayman. Qiziqishlar va moyilliklar" nomli 8-slayddan 8-sinfda "Kasblar tasnifi, kasb tiplari va turlarining ta'rifi" 19-20-mavzularni, 9-sinfda "Kasb tanlashda shaxs, kasbiy qiziqish, moyillik, qobiliyat va o'quvchining imkoniyatlari. O'smir va muomala psixologiyasi" 2-mavzu, "Qiziqish va qobiliyatni fniqlash usullari" 4-mavzu va "Kasbga doir shaxsiy reja tuzish. Kasbiy qiziqish vamoyilliklarni aniqlash bo'yicha amaliy mashqlar bajarish" 13-mavzularni o'quvchilarga tushuntirishda foydalanish tavsiya etiladi.

Mazkur slayd bilan ish jarayonida o'quvchi xohishi bilan qiziqishlari va moyilligi, hayot ehtiyojlari bir biri bilan mos keladimi yoki yoqligi haqida tassavur va tushunchalarga ega bo'ladi, ular to'g'risida uylab ko'radi. Fikrini jamlab kasblar haqida to'liq ma'lumot olishga undaydi.




8-slayd

O'qituvchi har bir kasblar turlari o'quvchining qiziqishi, hayot ehtiyojlarini qondirishi yoki yo'qligi haqida tushuncha beradi.

Mazkur slayddan ham kasbga yo'naltirish kursining "Kasb tanlashga doir reja tuzish", "Kasbni to'g'ri tanlashning mohiyati va istiqboli" mavzulari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tishda va "Qiziqishlar xaritasi", "Xolland", "Shaxs tiplari va ularga mos keluvchi kasblarni aniqlash" metodikalari bilan ishlash jarayonida o'quvchilarga tushuntirish uchun ko'rgazma vosita sifatida foydalaniladi.

"Uddalayman. Layoqat va salomatlik" nomli 9-slayddan 8-sinfda **texnologiya fani darslarida** "Kasb-hunar egallashda inson salomatligiga qo'yiladigan talablar, inson salomatligiga mos keluvchi kasb-hunar egallash yo'llari, kasbga yaroqlilik, yaroqsizlik, mos kelish, havas", "Tanlangan kasb-hunar turini egallashda inson salomatligiga qo'yilgan talablar haqida referat tayorlash" 22- va 30-mavzularni o'rganish jarayonida foydalanish tavsiya etiladi.



9-slayd


O'quvchi o'z qiziqishi bilan tanlagan kasbga sog'ligi uning layoqati mos kelish kelmasligi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi, tanlagan kasbining sodiq egasi bo'la oladimi yoki yo'qmi yana bir bor uylashga uning uchun harakat qilishga undaydi.

O'qituvchini har bir kasb uchun insonning sog'lig'i to'g'ri kelishi, yoki hayotda tanlagan kasbi bilan qiynalishi to'g'risida o'quvchilarga to'liq va keng yoritilgan ma'lumotni tavsiya qilishga undaydi.

Mazkur slayddan ham kasbga yo'naltirish kursining "Kasb tanlashga doir reja tuzish", "Kasbni to'g'ri tanlashning mohiyati va istiqboli" mavzulari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tishda va "Qiziqishlar xaritasi", "Kommunikativ tashkilotchilik qobiliyati", "Psixogeometriya", "Xolland" metodikalari bilan ishlash jarayonida o'quvchilarga tushuntirish uchun ko'rgazma vosita sifatida foydalaniladi.

"Kerak. Jamiyatning kasb-hunarlarga bo'lgan ehtiyojlari" nomli

10-slaydidan 9-sinfda texnologiya fani darslarida "Kasb tarbiyasi, kasbiy burch, kasb ma'suliyati va kasb etikasi", "Tanlagan kasb-hunarga doir ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish", "Xalq hunarmandchiligiga oid tanlangan bitta kasb-hunar turini tavsiflash. Kasbga tanlashga yo'llashda mahalla, oila va maktab hamkorligi" 10-11-12-mavzularni o'rganish jarayonida foydalanish tavsiya etiladi.



10-slayd

Jamiyatga barcha kasb-hunarlar kerak, biroq qaysidir kasblarga talab ko'proq qaysisigadir esa ehtiyoj kamroq bo'ladi (10-slayd). U yoki bu kasb-hunarni tanlash jarayonida uning jamiyatdagi mavqe'ini bilish muhimdir. Buning uchun shu kasb bo'yicha mehnat faoliyatining mazmuni, istiqboli, kasbga o'zining mosligi, shu yo'nalishda o'qish imkoniyatlari va kasbning ijtimoiy ahamiyatini anglab yetish dardkor.

O'quvchi bu slayd orqali qiziqishi sog'lig'i, jamiyat ehtiyojidan kelib chiqqan holda tanlagan kasbning mehnat mazmuni va istiqbollari to'g'risidagi bilimlarni egallashga kuchli bilim olishi va harakat qilishiga undaydi.

O'qituvchi barcha kasblar o'quvchining layoqatidan kelib chiqqan holda ularga kasb tanlashga yordam beradi.

Mazkur slayddan ham kasbga yo'naltirish kursining "Kasb tanlashga doir reja tuzish", "Kasbni to'g'ri tanlashning mohiyati va istiqboli" mavzulari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tishda va "Qiziqishlar xaritasi" metodikasi bilan ishlash jarayonida o'quvchilarga tushuntirish uchun ko'rgazma vosita sifatida foydalaniladi.

"Kasb-hunar tanlashida adashmaslik uchun" nomli 11-slaydidan 9-sinfda texnologiya fani darslarida "Kasbga doir shaxsiy reja tuzish. Kasbiy qiziqish vamoyilliklarni aniqlash bo'yicha amaliy mashqlar bajarish", "Men tanlagan kasbni egallashda kelgusidagi rejalarim" (Farovon hayot yo'lida) mavzusida ijodiy ish taqdimoti 13-14-mavzularni o'rganish jarayonida foydalanish tavsiya etiladi.

Mazkur slaydda kasbni-hunarni tanlashda adashmaslik uchun shaxs (o'quvchi) bilishi va uddalashi lozim bo'lgan xususiyatlar keltirilgan.

O'quvchi qiziqishi, bilimi, layoqatidan kelib chiqqan holda tanlagan kasbi haqida kelajakda bajaradigan ishlari kasbi haqida reja tuzishga va undagi kamchiliklarga qarab kamchilik o'rnini to'ldirishga harakat qiladi.

Bu slayddan o'quvchilarni ma'lum bir qarorga kelishi oldidan bilishi va uddalashi lozim bo'lgan ishlarni tushuntirishda foydalaniladi. Shuningdek bitiruvchilar uchun yuritilayotgan "Tashxis xaritasi" yoki "Tashxis daftari"ning so'nggi dagi anketa so'rovini to'ldirish jarayonida ham foydalanish tavsiya etiladi.



11-slayd

O'qituvchi o'quvchilar tuzgan reja asosida o'quvchilardagi bo'shliqni to'ldirishga harakat qiladi va to'g'ri yullanma beradi.

Mazmun mohiyati bayon etilgan 7-, 8-, 9-, 10-, 11-slaydlardan 8-, 9-sinflarda "Kasbga yo'naltirish" kursi mashg'ulotlarini o'tishda foydalaniladi. Bu ko'rgazma vositalar o'quvchilarni nafaqat kasblar to'g'risidagi axborotlar bilan tanishtirish, balki ularni o'z-o'zini baholash, kasbiy o'zligini anglash va ongli kasb tanlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ustivor soha ekanligini hisobga olib, umumiy o'rta ta'lim maktabi rahbariyati va butun pedagogik jamoasi kasb-hunarga yo'naltirish ishlariga mas'uliyat bilan yondoshmoqlari hamda kasb-hunarga yo'naltirish xonalarini mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda zamon talablariga mos keladigan darajada jihozlash bo'yicha barcha chora-tadbirlarni ko'rmoqlari darkor.

Kasb-hunarga yo'naltirish xonalarini jihozlashda tavsiya etilayotgan slaydlarning ushbu tavsiyalarda keltirilgan ketma-ketligi saqlanib qolishi lozim. Har bir slaydning (stendning) mohiyati qo'shimcha axborotlar va ko'rgazma vositalaridan foydalangan holda batafsil yoritib borilishi darkor.

Tavsiyalarda keltirilgan materiallar umumiy bo'lib maslahat ko'rinishiga ega, ular hududiy shart-sharoitlardan kelib chiqib, to'ldirilishi va amaliy tadqiqotlar hamda tajribalarga ko'ra boyitib borilishi mumkin.

DARS INTIZOMIGA SALBIY MUNOSABATGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING TAHLILI

Maktab o'quvchilarining dars intizomiga salbiy munosabatining asosiy sabablaridan biri ularning xulqidagi og'ishlik deb talqin etish mumkin.

O'quvchilardagi psixologik xususiyatlar, ularning rivojlanishidagi o'ziga xos tomonlar, ular o'rtasida salbiy odatlarning oldini olish masalalari ta'lim tizimi mutaxassislarining kundalik faoliyatlaridagi vazifalaridan biridir. Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, tarbiyasi qiyin bolalar tarbiya jarayonida pedagogik ta'sirlarga qarshilik ko'rsatadi, ularning hulqida o'zini biz hohlaganday tutmaslik holatlari kuzatiladi.

Tarbiyasi qiyin bolalardagi o'qishga nisbatan salbiy munosabatning paydo bo'lishiga qator sabablar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jumladan o'quv faoliyati usuli, malakalari to'la tarkib topmaganligi sababli nisbiy bilim olish bilan qanoat hosil qilish, o'zlashtirish qobiliyatining sust rivojlanganligi, muayyan vaziyatlarda xulosa va qaror chiqarishda qiyinchilikka duch kelishi, o'qituvchilar tomonidan o'quvchiga ob'ektiv baho berilmasligi, o'qituvchi tomonidan bolaning individual-psixologik va intellektual imkoniyatiga yetarlicha e'tibor berilmasligi, o'qitish saviyasining pastligi, darslarning qiziqarsiz o'tilishi, o'quvchining sinf jamoasi bilan yaxshi aloqada bo'lmasligi va boshqalar. O'quvchi bilan jamoa fikrining mos kelmasligi uning jamoa ichida o'z o'rnini borgan sari yo'qotib borishiga sabab bo'ladi. Jamoa a'zolari bunday o'quvchining qarashlarini vaqti-vaqti bilan hisobga olishlari yaxshi natija berishi mumkin. Natijada bola uchun kelajak rejalarining poymol bo'lish xavfi tug'ilib, o'qishdan va jamoadan yuz o'g'irgan o'smir o'z kelajagini, orzu-umidlarini maktab va tengdoshlari faoliyatiga bog'lashdan ko'ra, o'z guruhidan tashqarida topgan yangi "do'stlari" bilan aloqa qilishni afzal ko'radi yoki boshqa kishilardan najot izlaydi. Buning natijasida o'quvchi nosog'lom xulqli bolalar to'dasiga tushib qoladi va ularning xulq –atvoriga xos bo'lgan xarakterga ega bo'ladi. Bundan tashqari, oilaviy sharoitning salbiy ta'siri ham tarbiyasi og'ir bolalarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ayrim oilalarda bolaning mvaffaqiyatli o'qishi uchun zaruriy imkoniyatlar mavjud emasligi sababli bola nohush holat bilan yolg'iz kurash olib borish kechinmalari bilan yashaydi. Bolaning dunyosida oilaviy sharoitga nisbatan paydo bo'lgan norozilik hissi kundan kun avj olib, ichki qo'zg'olonga aylanib boradi. Bundan tashqari, ota-ona o'rtasidagi munosabatlarning nosog'lomligi, ba'zi ota-onalarning spirtli ichimliklar va boshqa salbiy odatlarga ruju qo'yishlari ham bolaning ruhiy dunyosiga ta'sir ko'rsatadi.

Ko'pincha bolalardagi og'ma, ya'ni deviant xulq-atvor oila va ta'lim tizimidagi pedagogik qarovsizlik natijasida yuzaga keladi Pedagogik qarovsizlik quyidagi darajalarda tavsiflanadi:

1. Past. Xatti-harakat, xulq-atvordagi beqarorlik. O'z "men"iga ortiqcha baho berish. Asosan yoshiga xos bo'lgan xarakter belgilarining ustunlik qilishi.

2. O'rta. Kattalar va tengqurlari bilan aloqaning buzilishi. O'qish va mehnatga qiziqmaslik, nizolarning egoistik yo'nalishga asoslanishi. Pedagogik ta'sir choralari to'g'ri qabul qilingani holda ularga amal qilmaslik.

3. Yuqori. Salbiy xarakterli xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Huquqbuzarlikka moyillik oshkor qilinadi. Kattalar bilan o'zaro munosabatda tajovuzkorlik paydo bo'ladi. O'zlari "to'g'ri" deb qabul qilgan "ahloq normalari"ni oqlashga urinadilar. Ular huquqbuzarlik chegaralarini tushunib yetmaydilar.

4. Kriminal. Voyaga yetmagan huquqbuzarlar bo'lib, ularning hulq-atvorini boshqarib bo'lmaydi. Bundaylar har qanday tarbiya vositalariga qarshilik ko'rsatadilar. Hatti-harakatlarida tajovuzkorlik ko'proq uchraydi. Ular o'zlarining huquqbuzarlik motivlarini o'zlari belgilagan "axloqiy me'yorlar" bilan o'lchaydilar, natijada jinoyatga qo'l uradilar.

Darslarni o'zlashtirmovchi o'quvchilar xulqidagi chekinishlarning psixologik xususiyatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularning salbiy hislatlari, tengdoshlari bilan munosabatdagi passivligi, xulqining o'zgaruvchanligi nafaqat o'z faoliyatidan, balki o'quvchilar jamoasidagi holatidan hamda u bilan do'stona munosabatlar yetishmaydigan muloqotdan qoniqmasligi oqibatida paydo bo'ladi. Bu holatlarning barchasi o'quvchining psixologik kayfiyatini keskin salbiy tomonga o'zgartirishga olib keladi.

Xulqi og'ish xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan manbaalarda xulqi og'ishning to'rt xil ko'rinishi mavjud:

1. Mavjud tartib, talablar va qoidalarga bo'ysunmaslik ko'rinishidagi og'ma xulq.

2. Ijtimoiy muhitga, jamiyat normalariga nisbatan noroziligini namoyon qilish maqsadidagi og'ma xulq.

3. Mavjud xuquqiy normalarga, qonun qoidalarga bo'ysunmaslik zamirida yuzaga keladigan og'ma xulq.

4. Shaxsning turli vaziyatlarda o'zini boshqara olmay qolishligi va o'ziga shikast yetkazishiga yo'naltirilgan og'ma xulq.

Tarbiya uzluksiz jarayon bo'lib, inson dunyoga kelishidan boshlab, to umrining oxirigacha davom etib boradi. Bu jarayon davomida atrof-muhitdagi voqea hodisalarning shaxsga salbiy yoki ijobiy ta'sir etishi uning insoniy fazilatlarini qay darajada shakllanganligini belgilaydi. Bugungi kunda ta'lim sohasi oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri ham aynan, shu maqsadga qaratilgan bo'lib, kelajak avlodni komil shaxs sifatida shakllanishida oila, maktab kabi jamiyat bo'g'inlarining hamkorligini mustahkamlashdan iboratdir.

Eng asosiysi bugungi kunda o'quvchi yoshlar tarbiyasidagi salbiy burilishlarning o'z vaqtida oldini olish, ularning shaxsi, o'ziga va jamiyat a'zolariga bo'lgan munosabatlarini o'rganishning ko'zlanganligidir. Mamlakatimizda bu borada qilinayotgan sa'y-harakatlarning ko'lamini yanada kengaytirish, zamonaviy uslubdagi ta'lim-tarbiya vositalaridan foydalanish, ta'lim va tarbiya jarayonlarining uzviyligini ta'minlash zarur.

Ana shu savollarga javob topish maqsadida umumiy o'rta ta'lim maktablarida olib borgan nazariy va amaliy tadqiqotlar natijasi o'laroq, dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'quvchilarga nisbatan konstruktiv yondashish metodlari ishlab chiqildi.

Tadqiqotda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalaridan foydalanilgan. Jumladan, 2012 yilda "O'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini o'rganish" so'rovnomasi asosida ta'lim muassasalaridagi holat tahlil etilgan.

Mazkur ijtimoiy so'rovnomaning maqsadi, o'quvchilarning bugungi kundagi turmush tarziga bo'lgan munosabatlari, Vatanga e'tiqodi, bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi hamda kelajakda oldiga qo'ygan maqsadlariga intilishlari, qolaversa, ijtimoiy fikrlari, jinoyatchilik va suitsid holatlariga munosabatlarini o'rganishdan iborat.

«O'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini o'rganish» so'rovnomasi 7 ta bo'limdan iborat bo'lib, har bir bo'limda 10 tadan savol berilgan bo'lib, jami 70 ta savolga o'quvchilardan javob olindi.

Mazkur so'rovnomaning shakli va uning mazmuni ilovada keltirilgan.

So'rovnomada Respublika bo'yicha jami 343 ta xalq ta'limi tizimi tasarrufidagi umumiy o'rta ta'lim maktablari 8-9-sinflarining jami 72437 nafar o'quvchilari qatnashib, shundan, 35648(49,2%) nafarini o'g'il bolalar, 36789 (50,7%) nafarini qiz bolalar tashkil etdi.

Birinchi bo'limdagi savollar orqali o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasiga oilaviy muhitning ta'siri, o'quvchining ta'lim-tarbiya olishida oilaviy muhitning roli qay darajada ekanligi aniqlandi.

Respublika bo'yicha jami 8-9 sinflarining o'g'il bolalaridan 15880 (44,5%) nafari va qiz bolalardan 16496(44,8%) nafari ta'lim tarbiya olishda oilaning roli yuqori ekanligini ko'rsatgan bo'lsa, o'g'il bolalardan 14097 nafar (39,5%)i va qiz bolalardan 14326 nafari (38,9%)da oilaning ta'siri o'rta darajada va 5671 nafar (15,9%) o'g'il bola va 5967 nafar (16,2%) qiz bola tarbiyasida oilaning ta'siri past, ya'ni bola tarbiyasida oiladan boshqa faktorlarning ta'siri kuchli ekanligi aniqlandi.

Ikkinchi bo'lim savollari maktab, ya'ni ta'lim olish jarayonining o'quvchilarning hayotidagi o'rni (o'qituvchi – o'quvchi, o'qituvchi – ota-ona, o'quvchi – ota-ona munosabatlari, ma'rifiy tadbirlarga munosabatlari)ni aniqlash imkonini beradi.

Respublika bo'yicha ishtirok etgan jami 8-9 sinflarining o'g'il bolalaridan 17553(49,2%) nafari va qiz bolalardan 18577 (50,5%) nafarida ta'lim tarbiya olishda maktabning roli yuqori ko'rsatkichni ko'rsatgan bo'lsa, o'g'il bolalardan 12123(34,0%) nafari va qiz bolalardan 12678 (34,5%)nafarida maktabning ta'siri o'rta darajada va 5972 (16,8%) nafar o'g'il bola va 5534 (15,0%) nafar qiz bola tarbiyasida maktabning ta'siri past, ya'ni bola tarbiyasida maktabdan boshqa faktorlarning ta'siri kuchli ekanligi aniqlandi.

Uchinchi bo'lim savollari orqali o'quvchilarning tarbiyasiga uning sinfdoshlari, do'stlarining ta'siri, shaxslararo munosabatlar o'rganildi.

Respublika bo'yicha ishtirok etgan jami 8-9 sinflarining o'g'il bolalaridan 14250 (40,0%)nafari va qiz bolalardan 15308 (41,6%)nafarida ta'lim tarbiya olishda tengdoshlarining roli yuqori ko'rsatkichni ko'rsatgan bo'lsa, o'g'il bolalardan 14675 (41,2%)nafari va qiz bolalardan 14920 (40,6%)nafarida tengdoshlarining ta'siri o'rta darajada va 6722 (18,9%) nafar o'g'il bola va 6561(17,8%) nafar qiz bola tarbiyasida

tengdoshlarining ta'siri past, ya'ni ushbu bolalarning ta'lim tarbiyasiga tengdoshlarining ta'siri kam.

To'rtinchi bo'lim savollari orqali o'quvchilarning atrof-muhitdagi voqea hodisalardan va yaqinlarining ularga bo'lgan munosabatlaridan qoniqmaslik asosida ruhiy zo'riqish, siqilish, tushkunlikka tushish natijasida hayotdan sovush yoki ularda yashashdan mazmun qolmaslik holatiga tushib qolishlari va buning natijasida o'z joniga qasd qilishgacha borishlari o'rganildi.

8-9 sinfda ta'lim olayotgan o'g'il bolalaridan 5178 (14,5%) nafar i va qiz bolalardan 5575 (15,2%) nafarida suitsidga moyillik yuqori ko'rsatkichni ko'rsatgan bo'lsa, o'g'il bolalardan 7639(21,4%) nafari va qiz bolalardan 8723 (23,7%) nafarida o'rta darajada va 22831 (64,0%) nafar o'g'il bola va 22473(61,1%) nafar qiz bolalarda suitsidga moyillik past ekanligi aniqlandi.

So'rovnomaning beshinchi bo'limi – ommaviy axborot vositalari, ya'ni o'quvchilarning tarbiyasida radio, televidenie va internetning tutgan o'rni qismini tahlil qiladigan bo'lsak, o'g'il bolalardan 12860 (36,1%) nafari, qiz bolalardan 13410 (36,5%) nafari OAV ta'siriga tez beriluvchan, 13626 (38,2%) nafar o'g'il bola va 14624 (39,8%) nafar qiz bola ommaviy axborot vositalari ta'siriga tushish darajasi o'rta, 9162 (25,7%) nafar o'g'il va 8755 (23,8%) nafar qiz bola esa OAV ta'siriga tushish ehtimoli past ekanligini ko'rsatdi.

Oltinchi bo'lim savollari yordamida o'quvchilarning ijtimoiy fikrlari o'rganilib, bunda asosan shaxsning umumiy dunyoqarashi; hayotdagi turli voqea-hodisalar, ilm, madaniyat, siyosat, sport, san'at, mehnat, din, urf-odat, sog'liq, qiziqish va hokazolarga bo'lgan munosabatlari o'rganildi. Bunda jami 35648 ta o'g'il bolalardan 18057 (50,7%), nafari qiz bolalardan 18546 (50,4%) nafari yuqori ko'rsatkich, ya'ni dunyoqarashi kengligi, o'g'il bolalarning 11796 (33,1%) nafari, qiz bolalarning 12245(33,3%) nafari o'rta ko'rsatkich, ya'ni, dunyoqarashi o'rta darajadali, o'g'il bolalarning 5795 (16,3%) nafari, qiz bolalarning 6064 (16,5%) nafari past ko'rsatkich, ya'ni psixologik korreksiyaga muhtojligi aniqlandi.

Yettinchi bo'lim –o'z-o'ziga baho. O'quvchi shaxsining kundalik faoliyatida ro'y beradigan voqea-hodisalarga nisbatan munosabati orqali o'z-o'zini anglash va o'z imkoniyatlariga to'g'ri va xolisona baho berishlarini o'rganish imkonini beradi. So'rovnoma yordamida shu narsa aniqlandiki, o'g'il bolalarning 15361 nafarida (43,1%), qiz bolalarning 16165 nafar (43,9%)ida o'z-o'ziga bergan bahosi yuqori. 13637 nafar (38,3%) o'g'il bolalarda va 13938 nafar (37,9%) qiz bolalarda bu mezon bo'yicha ko'rsatkichlari o'rta darajada ekanligi aniqlandi. 6650 nafar (18,7%) o'g'il bola va 6686 nafar (18,2%) qiz bolada o'z-o'ziga bergan bahosi past hisoblanadi. Ular uchun boshqalarni u haqda aytgan fikri doim o'zini fikridan ustun turadi.

So'rovnomada belgilangan mezonlar bo'yicha o'quvchilarning ko'rsatkichlari sinf rahbarlari va psixologlar tomonidan psixoprofilaktik va psixokorreksion tadbirlarni belgilashni nazarda tutadi. Profilaktik ishlarni tashkil etishda psixolog va sinf rahbarlari o'quvchining psixologik xususiyatlari va deviant xulq-atvorning sabablari, uni namoyon bo'lishi to'g'risidagi nazariy bilimlarga ega bo'lishlari, bunday xulq-atvorga ega bo'lgan bolalarni o'z vaqtida aniqlashlari, ularga tashxis

qo'yishlari, o'quvchilar, ota-onalar va fan o'qituvchilari bilan profilaktik ishlarni tizimli tashkil etishlari lozim.

Psixoprofilaktik tadbirlarni tashkil etishda quyidagi tamoyillarga asoslanish mumkin:

- kompleks asosda (ijtimoiy makonning turli darajalari bo'lgan oila va shaxsga ta'sirni tashkil etish);
- manzilli (yosh, jins va ijtimoiy xususiyatlarni inobatga olish);
- ommaviylik (psixoprofilaktik ishni tashkil etishda guruh shaklining ustunligi);
- beriladigan ma'lumotning asoslanganligi;
- salbiy oqibatlarni kamaytirish;
- ishtirokchilarning shaxsiy manfaatdorligi va mas'uliyati;
- shaxsning maksimal faolligi;
- kelajakka intilish (o'z hulqining oqibatini baholash, ijobiy maqsadlarni va qadriyatlarini faollashtirish, o'z kelajagini yaxshi xulq-atvorga ega bo'lish maqsadi bilan rejalashtirish).

Psixoprofilaktik ishni tashkil etishda bir-biriga o'xshash shakl va usullardan foydalanish mumkin. Ishni tashkil etish usuli bo'yicha psixoprofilaktikaning quyidagi shakllari mavjud: individual, oilaviy va guruh shakli. Xulqiy og'ishganlikning oldini olish maqsadida turli ijtimoiy-psixologik usullar qo'llaniladi. Guruh munozara, axborotga ega bo'lish, trening mashqlari, rolli o'yinlar, ijobiy xulq-atvorni modellashtirish, psixoterapevtik usullar psixoprofilaktik ishning yetakchi usullaridir.

Qanday usullardan foydalanganligiga qarab psixoprofilaktik ish trening, o'quv dasturlari (masalan, maktab maxsus kursi), keskin vaziyatlarda yordam (ishonch telefoni), psixologik maslahat shaklida amalga oshiriladi. Shu bilan birga dars intizomiga salbiy munosabatda bo'lgan bolalar bilan ishlashda quyidagi tavsiyalarni keltirdik:

1. Ta'lim-tarbiya jarayonida darsga salbiy munosabatda bo'lgan bolalarni tibbiy-psixologik jihatdan o'rganish, ota-onasi va oilaviy sharoitlari bilan yaqindan tanishish.

2. Sinf rahbarlari va ota-onalarning hamkorlik pedagogikasini yo'lga qo'yish, dars jarayoniga salbiy munosabat sabablarining tub ildizlarini o'rganish.

3. Ta'lim-tarbiya jarayonida darsga salbiy munosabatda bo'lgan bolalarga konstruktiv (amaliy, ishchan) yondashuv tamoyillari asosida ta'sir etishning psixologik, ijtimoiy-pedagogik vositalaridan keng foydalanish.

4. Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashda ularda aniqlangan aqliy, fiziologik nuqsonlarni keltirib chiqargan sabablar, oqibatlarni e'tiborga olish, tarbiyaviy ta'sirlarni shu asosda tashkil etish.

5. O'smir yoshdagi o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etishning kompleks tadbirlarini ishlab chiqish, bolalarning qiziqish hamda layoqatlarini aniqlash yo'li bilan ularni turli xildagi to'garaklarga, sport turlariga jalb qilish.

6. Ta'lim-tarbiya jarayoniga salbiy munosabatdagi bolalarning tashqi ta'sirlarga berilib ketmasliklari uchun ularni doimiy (oila bilan hamkorlikda) nazorat ostiga olish.

7. Tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ish olib borish uchun maktabda ta'sirchan psixologik xizmatni yo'lga qo'yish, ularning xulq-atvorini tarbiyalashda ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilashning amaliy, ishchan harakatlar va tadbirlar tizimini joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish.

8. O'quvchilarni kitob o'qish texnikasi bilan tanishtirish, umumiy saviyasini oshirish maqsadida o'smirning salbiy holatlarini ko'zda tutgan holda mos kitoblarni o'qishga da'vat etish, salbiy oqibatlarini keltirib chiqargan voqea va hodisalarni tahlil etish ko'nikmalarini shakllantirish.

9. O'quvchilarning salbiy munosabatlari oqibatlarining xavfli va xunuk jihatlari haqida suhbatlar o'tkazish, tarbiyaviy ta'sirning o'ziga xos metodlaridan foydalanish choralarini ko'rish.

10. Kattalar va bolalar o'rtasidagi muloqot madaniyati, kattaga hurmatda, kichikka nisbatan izzatda bo'lish, mahalla, ko'cha-kuyda o'zini tutishni insoniylik burchi ekanligini anglatish, ma'naviy yetuklikning mezonlari ekanligini tushunib yetishga zamin tayyorlash.

11. O'qituvchilarning dars o'tish jarayonida o'quvchilarga nisbatan munosabatlari, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni mensimaslik, qo'pol muomila, darsdan bezdirish holatlari sodir etilmayotganligi yoki o'qituvchi o'quvchiga yetarli bilimlarni bera olmayotganligi, ya'ni o'quvchini qoniqtira olmaslik, uning qiziqish va ehtiyojlariga hurmatsizlarcha munosabat kabi nuqsonlarga yo'l qo'yilmayotganligi yuzasidan doimiy nazorat o'rnatish.

12. Dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'quvchiga nisbatan sinfdoshlari tomonidan tazyiq o'tkazish, kamsitish va xo'rlash holatlari sodir etilmayotganligini nazoratga olish.

13. Oilada o'quvchiga nisbatan ota-onalar yoki ularni o'rnini bosuvchi katta yoshdagilar tomonidan salbiy munosabat, dars tayyorlash o'rniga boshqa oilaviy-xo'jalik ishlarini bajarishga majburlash, o'quv qurollari bilan ta'minlanmaslik holatlarini doimiy nazorat qilish.

DARS INTIZOMIGA SALBIY MUNOSABATDA BO‘LGAN BOLALARGA TA’SIR ETISH USULLARI

Intizomga rioya qilmaydiganlarga nisbatan konstruktiv ta’sir samarali bo‘lishi uchun bu xatti-harakatning asl motivlari nimadan iborat ekanligini aniqlash va shundan kelib chiqqan holda muammoning yechimini topish usullarini tanlash lozim. Bunday yondashuv o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro hurmatni shakllantiradi.

Muammoli xulq-atvorning motivlari. Intizomni buzgan o‘quvchi bu xatti-harakat noto‘g‘ri ekanligini tushunadi, lekin u o‘z xulq-atvorining motivini tushunmaydi. Har bir bola uchun bu xatti-harakatning turli sabab va maqsadlari mavjud. Pedagoglar bu motivlarning qanday bo‘lishiga qaramay ularga ta’sir etish usullarini topishlari lozim. Agar pedagoglar xulq-atvorning buzilish maqsadlarini aniqlashga qodir bo‘lsalar, u holda o‘quvchi bilan konstruktiv munosabatlarni o‘rnata oladilar, unumsiz muloqot samarali muloqotga aylanishi mumkin. Bunda to‘g‘ri strategiyani tanlash qadamba-qadam muammoning yechimini topish imkonini beradi. Bunday vaziyatga pedagogik aralashuv natijasida shunday sharoitlar yaratiladiki, bolalar o‘z intizomlarini to‘g‘rilash borasida ma’lum qaror qabul qiladilar.

O‘quvchining xulq borasidagi tanlovi, uning yomon xulq-atvorining maqsadi o‘qituvchi tomonidan aniqlanishi va inobatga olinishiga bog‘liq. Har bir o‘qituvchi o‘quvchiga o‘zini maktab hayotining to‘liq ishtirokchisi ekanligini anglashiga yordam berishi lozim. Bu borada pedagogga mazkur muammoga individual yondashish bo‘yicha amaliy reja tuzish tavsiya etiladi. Bu reja o‘quvchining xulq-atvoriga samarali ta’sir etish usulidan iboratdir.

Rejani tuzishda o‘qituvchi o‘zining strategiyasi va taktikasini ishlab chiqadi. Albatta bunda vaqt va vaziyatni tahlil etish talab etiladi, lekin natijalar o‘zini oqlaydi. O‘qituvchining qarashlari, ya’ni ustanovkasi o‘zgaradi, xavotirlik yo‘qoladi, avvallari muammoli o‘quvchidan faqatgina yomon xulq-atvorni kutgan bo‘lsa, endi yutuqqa erishishga ishonchi komil bo‘ladi.

Ushbu rejani quyidagilar tashkil etishi mumkin:

- “yomon” xulq-atvorning sababini aniqlash;
- uni bartaraf etish usullarini tanlash;
- o‘quvchini qo‘llab-quvvatlashning kelgusi taktikasini ishlab chiqish;
- muammoni hal etishga ota-onalarni va pedagoglarni jalb etish.

Rejani amalga oshirishda pedagog ketma-ketlikdagi 5ta vazifani bajaradi.

1-vazifa. Muammoli xulq-atvorni xolisona izohlash. Barcha o‘qituvchilarga o‘quvchining xulq-atvorini izohlashda xolislik yetishmaydi. Intizomni buzganda o‘quvchi aynan nimalar qilishi “hissiyotga berilmay” qisqa izohlanishi kerak. “U juda yomon bola”, “uning fikri tarqoq, parishonxotir”, “uni boshqarish juda qiyin” kabi izohlar o‘qituvchining o‘quvchiga nisbatan berilgan noto‘g‘ri bahosi hisoblanadi. Bu izohlar o‘quvchining xulq-atvoriga berilgan baho bo‘lmay, balki ayrim o‘qituvchilarning o‘quvchilar xulq-atvorini tuzatishda natijaga erisha olmaganligini bildiradi. Lekin bitta o‘quvchi hamma o‘qituvchilarga nisbatan ham bunday xatti-harakatni amalga oshirmaydi.

2-vazifa. Yomon xulq-atvorning sababini tushunib olish. Atrofdagilarning o‘ziga bo‘lgan e‘tiborini xohlaydigan o‘quvchilar o‘zlarini xuddi haqiqiy artistlarday tutadilar va ko‘p hollarda bunday xulq-atvorning sababi shu bo‘ladi. Shunday bolalar borki, ular yoki butun sinfni jonlantirishlari mumkin, yoki aksincha, barcha ishlarni juda sekinlikda amalga oshiradilar. Bunday bolalarni barcha ishlarda faol bo‘ladiganlarga nisbatan “tuzatish” qiyinroq kechadi, chunki ular intizomni rasman buzmaydilar. E‘tiborga bo‘lgan ehtiyoj psixologik jarayon bo‘lib, ovqat va suvdek zarur. Uydagi e‘tiborning kamligi uning maktabdagi xulq-atvoriga ta’sir etadi. Bunday bolalar ijobiy muloqot qilishni bilmaydilar. Pedagogdan bunday o‘quvchilarga imkon qadar ko‘proq e‘tibor qaratish talab etiladi.

Ular o‘zlarini ko‘rsatish uchun turli usullardan foydalanadilar, ya’ni barcha ishlarning aksini qilishga, masalan, nazorat ishini hammadan keyin bajaradilar yoki umuman topshirmaydilar, sinf oldida o‘qituvchining obro‘sigacha putur yetkazadigan so‘zlarni aytadilar. Bu esa o‘z navbatida xavotir va zo‘riqishni yuzaga keltiradi. Shunday bolalar ham borki, ular bir qarashdan intizomli, xushmuomala bo‘lib ko‘rinadilar, lekin o‘zlari hohlagan ishni qiladilar, diqqatlarining tarqoqligi va xotiraning pastligi, jismoniy holatlari bilan o‘zlarini oqlaydilar. Ular tartib-qoidalariga va o‘zidan kattalarga bo‘ysunish kerakligini aniq anglab yetmaydilar. Agar o‘qituvchi o‘quvchidagi bunday xarakterli xususiyatlarni tuzatishga erishsa, bunday o‘quvchilar shaxsida liderlik va mustaqil fikrlash qobiliyatlari shakllanadi. Ular mustaqil fikrlashni, qaror qabul qilishni va o‘z hayotlarini nazorat qilishni xohlaydilar. Murakkablik tomoni shundaki, bunday tomonlarni ular boshqalarga ham nisbatan qo‘llashga, ularni boshqarishga ham harakat qiladilar.

O‘quvchi intizomni buzganda aynan qanday xatti-harakatni amalga oshirishi, qanday vaziyatlarda buni qilayotganini qayd etish va nima uchun bunday qilayotganini aniqlash muammoli xulq-atvorni xolisona izohlash imkonini beradi.

E‘tibor va birinchilikni talab qilayotgan bolalar o‘ta yoqimli va xushmuomala bo‘lishlari mumkin. Nojo‘ya hatti-harakatlarni qasd olish maqsadida amalga oshiradigan o‘quvchilar esa agressiv, xo‘mraygan, jahldor bo‘ladilar. Bunday xulq-atvor bolaning nimadandir noroziligi va ranjiganligining oqibatidir. O‘qituvchi har kuni bolaning oldida bo‘lganligi sababli u boshqalardan ko‘rgan alaming qasdini o‘qituvchidan oladi. U darsga xalaqit beradi, kitoblarni yirtadi, sinfdoshlari bilan janjallashadi, muntazam ravishda kechikib keladi. Bunday o‘quvchilar o‘qituvchini turli yo‘llar bilan jahlini chiqarishga harakat qiladilar. Ayrim hollarda qasd olish uchun o‘ylab topilgan nojo‘ya xatti-harakatlar bolalarning o‘zlariga katta zarar yetkazishi, ya’ni ular ichkilikka, giyohvandlikka ruju qo‘yishlari, erta jinsiy aloqa va jinoyatga (qasd olishning faol shakllari) qo‘l urishlari mumkin. Lekin odamovilik, tortinchoqlik, befarqlik kabi qasdning passiv shakllari ham mavjud. Bunday holatlarda o‘qituvchi bolaga yordam bermoqchi bo‘ladi, lekin natijaga erishish biroz qiyin kechadi.

“Yomon” xulq-atvorning motivlari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- e‘tibor talab etish;
- o‘z so‘zini o‘tkazishga harakat qilish;
- qasd olish istagi;

-omadsizlikdan qochish.

Bunday bolalar boshqalarni xafa qilish orqali o'zlarini himoya qiladilar. Agar odamovi, g'amgin bolalardagi bunday ruhiy holatlarning o'z vaqtida oldi olinmasa, ular depressiyaga tushib, suitsid holatlarini ham sodir etishlari mumkin.

Shunday o'quvchilar ham borki, ular hech kimga zarar yetkazmaydilar, lekin yana omadsizlikka uchrayman deb, o'qituvchi sezmaydi deb, hech nima qilmaydilar. O'zlarini "harakat qilsam, buni qilaolaman, lekin o'zim xohlamayman" deb oqlaydilar. Fanlar bo'yicha nazorat yozma ishlarida birdan kasal bo'lib qoladilar yoki darsdan ketish uchun asosli sabab topadilar. Bunday tarzda ular o'zlarini anglanilmagan holda himoya qiladilar. O'qituvchida ko'p hollarda o'quvchining samimiyligiga shubha uyg'onadi. Mana shunday bolalar o'qituvchidan ko'proq "Sen buni uddalaysan, qo'lingdan keladi!" degan so'zlarni eshitishlari kerak. Muntazam ravishda ular o'qituvchining qo'llab-quvvatlashini sezsa, ularda o'ziga nisbatan hurmat va ishonch ortadi, o'zini bunday xatti-harakatlar bilan himoya qilish istagi esa kamayadi.

3-vazifa. O'qituvchining nuqtai nazari va munosabatining o'zgarishi. O'quvchining xususiyatlarini tahlil qilgan holda o'qituvchining shaxsi, uning o'quvchilar bilan muloqot va munosabatlari muhim ahamiyatga egadir.

O'qituvchilar o'quvchi bilan ma'lum qoidalar doiralari asosida munosabat qilishlari lozim.

1-qoida. O'quvchining shaxsiga emas, balki uning ayni vaqtdagi xulq-atvoriga diqqatingizni qarating. O'quvchining xulq-atvorini muhokama qilayotganda unga xolisona baho berishga harakat qiling. Bunda ayni vaqtda sodir etilgan xatti-harakat haqida "shu yerda va hozir" gapiring. O'qituvchi tomonidan bunday xatti-harakatni avval ham sodir etgansan yoki kelajakda ham sodir etishing mumkin deb tanbeh berilsa, o'quvchi tushkunlikka tushib, bu xatti-harakatni tuzatib bo'lmas xato deb o'ylaydi. O'qituvchi o'quvchiga nisbatan qat'iyatli, shu bilan birga xayrixoh bo'lishi kerak. O'qituvchining: "mening senga munosabatim juda yaxshi, inson sifatida men seni hurmat qilaman, bu qilayotgan ishingni hoziroq bas qilishingga ishonchim komil" degan so'zlari o'quvchi uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, uning o'zini hurmat qilishga, xulqini yaxshi tomonga o'zgarishiga turtki bo'ladi.

2-Qoida. O'zingizning salbiy his-tuyg'ularingizni nazorat qiling. Biz ayni vaziyatda o'quvchiga jahl qilsak, g'azabimizni bildirsak, bunga javoban u o'zini yanada qasdma-qasd yomon tutishi mumkin. O'qituvchi qachonki, o'z his-tuyg'ularini nazorat eta olsa, o'quvchiga o'zini yomon tutishiga imkon bermaydi va kelgusida yaxshi shaxslararo munosabatlar uchun zamin hozirlaydi.

3-Qoida. Vaziyatni yanada keskinlashtirmang. O'ta baland ovozda gapirish, "bu yerda o'qituvchi men, sen emas" degan iborani ishlatish, piching va istehzo bilan gapirish, shaxsiyatga tegish, nizoga boshqalarni ham jalb etish, tashqi ko'rinishini tanqid qilish, o'quvchilarni kalaka qilish kabi xarakteristik qat'iyatlar man etiladi. Bularning ba'zilari qisqa vaqtga o'quvchini tinchlantirishi mumkin, lekin unda o'qituvchiga nisbatan hurmat uyg'onmaydi va ishonchli muloqotga kirisha olmaydi.

4-Qoida. O'quvchining xatti-harakatini butun sinf oldida emas, balki darsdan so'ng bir o'zi bilan muhokama qiling.

5-Qoida. O'quvchilar odatda o'qituvchining barcha aytganlarini "o'zlari xohlagandek", ya'ni aftlarini bujmaytirib, shoshmasdan, bajaradilar. Agar o'qituvchi bunga ahamiyat bermasa, o'quvchi o'z-o'zidan qoidalarga bo'ysunishi mumkin, ular o'rtasida qarama-qarshilik paydo bo'lmaydi.

6-Qoida. O'quvchiga do'q-po'pisa qilish, baqirish, uni ayblash kabi agressivlikni namoyon qilmang. Ular bu hatti-xarakatni sizga nisbatan ham "qo'llash mumkin" deb tushunadi.

Muammoli xulq-atvorda pedagogik ta'sir usullari. Agar bola e'tiborni talab etsa quyidagi usullarni qo'llash mumkin:

1. E'tiborni kamaytirish:

- ko'p hollarda bolaning namoyishkorona xulq-atvorini to'xtatishning eng samarali usuli – unga ahamiyat bermaslikdir;

- ko'zlar orqali aloqa o'rnatish. O'quvchiga razm solib qarab turing-ko'z qarashlaringiz orqali o'quvchi sizni uning xatti-harakatidan norozi bo'layotganingizni tushunadi;

- hech qanday qarashlarsiz va so'zlarsiz uning yoniga kelib turing. Bolalar nimanidir noto'g'ri qilayotganlarini tushunadilar va ularni oldiga yaqinlashgan zahotiingiz nojo'ya harakatlarini to'xtatadilar;

- dars davomida intizomni buzmoqchi bo'lgan bolaning ismini dars mavzusiga bog'lab aytib o'ting. U tinchlanish kerakligini tushunadi;

- yozma tarzda ogohlantiring. Shunchaki bolaning oldiga "iltimos, shu ishingni qilmagin" degan mazmundagi yozuvni qo'yib keting. Bolaga bu qanday ta'sir qilganini kuzating;

- o'z noroziligingizni to'g'ri izhor eting. Ba'zida "hoziroq bas qiling!" deb baqirgizingiz keladi. Lekin buni boshqa tarzda aytish ham mumkin: "Lola, men darsni tushuntirayotganimda seni gaplashib o'tirishing mening xayolimni chalg'itadi, iltimos, gaplashmay o'tirgin".

2. Dars davomida o'quvchilarga birmuncha vaqt xohlagan ishlarini qilishga ruxsat bering ("ta'qiqlangan meva doim shirin"):

- nojo'ya harakatlar (o'tirishni xohlamasalar turaversinlar, bir-birlari bilan gaplashaversinlar) va be'ma'nigarchilikka ma'lum vaqt ruxsat bering;

- "hamma narsa mumkin" usulini qo'llang. Bu usul shundan iboratki, o'quvchilar intizomni faqat avvaldan kelishib olingan hajmda buzishlari mumkin. Shuningdek bu hajm kichrayishi mumkinligi ham aytilgan bo'lishi kerak. Bu usul faqatgina o'quvchiga e'tibor kerak bo'lganda qo'llaniladi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi bunday alohida munosabatlar natijasida o'quvchi o'ziga nisbatan e'tiborning kerakli ekanligini his etadi.

3. O'quvchilarning yomon xulq-atvorini ular kutmagan tarzda to'satdan to'xtatish:

- kulgi va yumordan foydalaning;

- past ohangda gapirishni boshlang. Ko'p o'quvchilar "Maktabda siz uchun eng yoqmagani narsa nima?" deb savol berilganda "Baqirib va o'dag'aylab gapiradigan o'qituvchilar" deb javob beradilar. Qachonki, o'qituvchilar sekin gapirsalar o'quvchilar ham shunga javoban qo'pollik qilmaydilar.

- darsni birmuncha vaqtga to'xtatib turing: "Avval tinchlanib olinglar va qachon darsni davom ettirish mumkinligini aytasizlar" deb, sinfga murojaat qilish mumkin. O'qituvchining bunday yengil bosimi tezda ta'sir etadi.

4. O'quvchilarni chalg'iting:

- "Sen bu savolga qanday javob bergan bo'larding?", "Sening fikring qanday?" kabi to'g'ridan-to'g'ri savollar bilan bolani "yomon" xulq-atvordan chalg'iting;

- unga biror bir vazifani (daftarlarni yig'ib olish, bo'r olib kelish, sinf jurnalini olib kelish va boshq.) yuklating;

- o'quvchilarning faoliyatini o'zgartiring (har biriga alohida topshiriq bering).

5. Sinfning diqqatini intizomga rioya qilayotganlarga qarating:

- sizni topshirig'ingizni bajargan o'quvchilarga minnatdorchilik bildiring;

- ularni maqtang.

6. O'quvchilarning joyini o'zgartiring. Ularni boshqa joyga o'tkazsangiz "tomoshabinlardan" mahrum etasiz va ular tinchlanadilar.

Agar bola qasddan yoki boshqalarning ustidan hukmronlik qilish xulq-atvorini qo'llasa quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1. Nizo kelib chiqmasligi uchun diplomatik yo'l tuting.

2. O'quvchining nimaga qodir ekanligini tan oling. O'quvchiga qanchalik ko'p bosim o'tkazsangiz, u shunchalik qarshilik ko'rsatadi "Sen topshiriqni bajarmasligingni men tushundim" degan mazmunda murojaat qilsangiz o'quvchi buni buyruq ham, nasihat ham emas deb qabul qiladi. Darsni davom ettirish mumkin va aksariyat hollarda o'quvchi hech qanday e'tirozsiz boshqa o'quvchilarga qo'shilishi mumkin.

3. Agar yuzaga kelgan nizoli vaziyatni muhokama qilmoqchi bo'lsangiz buni dars vaqtida emas, balki tanaffus vaqtida bajarish maqsadga muvofiq. Chunki atrofdagilarning guvohligi qarama-qarshilikni yanada kuchaytiradi. "Tomoshabinlarsiz" o'quvchi o'zgaradi.

4. Yuzaga kelgan vaziyatning muhokamasini keyinroqqa qoldiring: "Men hozir buni muhokama qilmoqchi emasman", "Balki, sen haqdirsan, kel bu haqida keyin gaplashamiz".

5. Muhokama uchun maxsus vaqt belgilang. "Sen bilan buni muhokama qilishga roziman. Oltinchi darsdan so'ng vaqting bo'ladimi?". Va yana xotirjam darsni davom ettirish mumkin.

6. O'quvchilarga topshiriq bering. "Balki, sen haqdirsan... Lekin hozir darsni davom ettirsak", "Men albatta bu haqida o'ylab ko'raman, hozir esa mavzuga qaytamiz...". O'quvchilarning nojo'ya so'zlari albatta qattiq ta'sir etadi, agar ularga javob bera olmasangiz mavzuni o'zgartiring, vaziyatni yumshating va o'quvchilarga topshiriq bering.

7. O'quvchilarni vaqtincha darsdan chetlashtirish texnikasini qo'llang. Lekin shu yerda aytish kerak-ki, ularni koridorga yoki "manzilsiz" chiqarib yuborib bo'lmaydi. Sinf ichidagi boshqa partaga, boshqa sinfga, psixologning, direktorning xonasiga chiqarish mumkin. Bu eng so'nggi choralardir. O'quvchiga taklif qiling: "Aziz, senga nima ko'proq ma'qul, darsda biz bilan o'tirishmi yoki direktorning xonasiga borishmi? Seni ko'rinishingdan direktorning xonasiga borishni tanlaganingni

sezdim". O'quvchi ikkitasidan birini tanlashi kerak. Agar shunday davom etsa darsdan chiqib ketishi mumkin.

8. Jarima belgilash. Intizomni buzish oqibatsiz kechmasligini bolalar tushunishlari lozim. Intizom buzilishining har bir ko'rinishi uchun ma'lum jarimalar belgilanishi mumkin. Jarimalar nojo'ya harakatning yoki intizom buzishning xarakteriga mos bo'lishi, masalan, stulni sindirdingmi-tuzatib qo'y, xonani iflos qildingmi-tozala, haqorat qildingmi-uzr so'ra kabi mazmunda bo'lishi kerak. O'quvchilarga nisbatan bunday jarimalar kelgusida bu kabi xatti-harakatlarni takrorlamasligi uchun qo'llaniladi. Jarimalar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- o'quvchini tanaffusga chiqishdan mahrum qilish, darsdan so'ng birmuncha vaqtga olib qolish;

- darslikdan, jismoniy tarbiya darsida biron-bir sport inventaridan, kompyuterdan foydalanishdan mahrum qilish;

- zarar o'rnini to'ldirish;

- maktab ma'muriyati bilan uchrashish;

- ota-onalar bilan uchrashish.

Pedagogik ta'sirning usullari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- o'quv materialini tushuntirish usulini o'zgartirish. Masalan, Montessorining ta'rifiga ko'ra, past o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun dars mavzusini tushuntirishda noan'anaviy usullardan foydalanish samara beradi. Ular uchun maxsus topshiriqlar tayyorlash, juft bo'lib ishlash, o'quvchilarni bir-biriga biriktirish, "sen buni uddalaysan, qo'lingdan keladi" degan so'zlar bilan yutuqqa erishishi uchun sharoit yaratish, muvaffaqiyatga qozonishga ishonchni shakllantirish, xatolikka yo'l qo'yganda tushkunlikka tushmaslik, o'quvchining kuchli tomonlarini ochib berish, o'quvchiga individual yordam berish muhimdir.

4-vazifa. O'quvchilarni qo'llab-quvvatlash strategiyasi

1). Biz bolani qanday bo'lsa shundayligicha, ya'ni uning ahmoqona qiliqlariga, kamchiliklariga, nojo'ya harakatlariga qaramay qabul qilishimiz kerak. Bu ularga o'zini hurmat qilish va o'z xulq-atvorini o'zgartirishiga imkon beradi.

2). O'qituvchi o'quvchiga dars davomida qanchalik e'tibor qaratsa, uni eshitsa, uni maqtasa, shunga javoban o'quvchi tomonidan intizom buzish hollari kamayadi.

3). O'zining tan olinganligini his etish inson uchun juda muhimdir. O'quvchilarning fikri hurmat qilinishi, ularning qilayotgan ishlari sinf va maktab uchun foydali ekanligini ko'rsating. To'g'ri maqtov orqali intizomni tuzatishga erishish mumkin.

4). Ma'qullash. O'quvchilarga ularning ijobiy xarakter xususiyatlari yoki biron narsani amalga oshirish uchun qilayotgan harakatlari, ularning qiziqishlari, erishgan yutuqlari haqida gapirib turish lozim. Chunki ularning ijobiy xususiyatlari o'qituvchi tomonidan tan olinsa ular o'qituvchilarga ham yaxshi munosabatda bo'ladilar.

5). Iliq munosabatlar. O'qituvchi kelgusida ham quvonch bilan eslab turiladigan iliq emotsional muhitni yarata olishi lozim. Chunki o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi yaxshi munosabatlar sinfda intizom bo'lishi uchun eng yaxshi vositadir.

5-vazifa. Ota-onalar va boshqa fan o'qituvchilarini jalb etish. O'qituvchining mazkur muammo bo'yicha olib borayotgan ishining samaradorligi bu jarayonga ota-

onalarni jalb qilish orqali ham ortadi. Qachonki o'qituvchilar va ota-onalarning harakatlari birlashsa, bir maqsad sari hamkorlikda ish ko'rsalar natijaga tezroq erishiladi. Sir emaski, tarbiyasi qiyin bolalarning oilalari, ota-onalari ham shundaylar qatoriga kiradi. Oilaviy tarbiyaning avtoritar yoki beparvolik usuli ta'lim olishda yaxshi natijalarga erishish imkonini bermaydi. Shuning uchun ota-onalar munosabatlari usulini o'zgartirish o'quvchining xulq-atvorining o'zgarishiga va uning fanlarni o'zlashtirishiga sabab bo'ladi. Tarbiyasi qiyin bolalarning ota-onalari bilan o'zaro munosabatlarini yo'lga qo'yish uchun bir necha qoidalarga rioya qilish zarur hisoblanadi.

Ota-onalar bilan o'zaro munosabatlarning qoidalari.

Ota-onalarga farzandining yomon xulq atvori haqida shunchaki umumiy tarzda emas ("Sizni o'g'lingiz...barcha o'qituvchilarga halaqit beradi"), balki aniq dalillar keltirgan holda ma'lum qiling.

Ota-onalarga birdaniga farzandining barcha nojo'ya ishlari haqida gapirmang, aks holda ota-onalar darg'azab holda bolalarini do'pposlashga tushadilar. O'quvchi esa bunga o'qituvchini aybdor qiladi.

Ota-onalar bilan shunchaki sodir bo'lgan vaziyatni ("ikki" baho olganligi, kimdir bilan janjal, uy vazifasini bajarmaganligi, intizomni buzganligi) muhokama qilish kifoya. Oqibati nima bo'lishi haqida gapirmagan ma'qul.

Ijoby holatlarni bashorat qilish esa foydali bo'lishi mumkin. O'quvchining ijobiy sifatlari, uning oz bo'lsada yutuqlariga urg'u berish va kelajakda ota-onalarning o'z farzandlariga yordami bilan yaxshi natijalarga erishish mumkinligiga ishonch bildiring.

Ota-onalar ham oddiy odamlar ekanligini unutmang. Ularning e'tiborsizligidan ranjimaslik lozim. Ko'p hollarda sizning talablaringiz o'qituvchilarning muammosi (masalan, biron-bir o'quv predmetiga bo'lgan munosabati, biron-bir o'qituvchi yoki o'quvchiga nisbatan qo'pol muomalasi) bo'lishi mumkin.

Hamkorlikka faqatgina ota-onalarni emas balki, o'quvchilarning o'zlarini ham taklif eting. Bu bilan ularga ham qandaydir mas'uliyatni yuklagan bo'lasiz. Ba'zida o'quvchilar o'zlarida qandaydir o'zgarishlarni kattalarga nisbatan tezroq anglyadilar. Shu bilan birga agar o'quvchilar ularning xulq-atvorini ota-onalari va o'qituvchilar birgalikda tuzatishga harakat qilayotganlarini ko'rib yaxshi tomonga o'zgarish kerakligini tushunadilar.

Dars intizomiga salbiy munosabatdagi bolalarga nisbatan korreksion (qayta tuzatish) ishlarni amalga oshirishda **ota-onalarga** tavsiyalar:

1. Siz o'zingizning o'quvchilik davringizni eslang; dars jarayonida o'quvchi va o'qituvchi munosabatlari, sinfxonasidagi tartib-intizom, uy vazifasi, o'tilgan darsni so'rash, baholash, yangi mavzuni tushuntirish, uyga vazifa berish va h.k., bu yaqin o'tmishimizdagi an'anaviy darsning shakli shunday edi. Zamon o'zgardi, dars shakllari ham o'zgardi, bugun yangi pedagogik texnologiyalar asosida darsning noan'anaviy shakllari paydo bo'ldi. Lekin, nima bo'lganda ham, dars intizomiga bo'lgan munosabat o'zgarmadi. To'g'ri talablar oshdi, avval ham o'quvchilardan o'quv dasturi materiallarini yuqori saviyada o'zlashtirish talab qilingani holda, hozir ham o'quv materiallarini Davlat ta'lim standartlari talablari asosida bilim, ko'nikma

va malaka (BKM) larni egallash majburiy shart qilib qo'yildi. Siz bundan albatta xabardorsiz. O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlarni qo'llab-quvvatlagan holda albatta farzandingizni yetuk inson bo'lishini xohlaysiz, lekin xohishning o'zi yetarlimi, farzandingiz risoladagidek ta'lim va tarbiya olayotganligiga ishonchingiz komilmi? Iltimos, shu masalada bir shug'ullanib ko'ring va hech qachon yodingizdan chiqarmang;

2. Oilada sog'lom ijtimoiy muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olgan holda farzandlarda ota-onaga, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirishni ta'minlashga harakat qiling;

3. Farzandlarga chuqur dunyoviy bilim berish, ularning ma'rifatli va madaniyatli yuksak kishilar bo'lib yetishishlarini ta'minlash burchingiz ekanligini unutmang;

4. Farzandingiz oiladan maktabga har doim uyga berilgan topshiriqlarni bajargan holda, ya'ni o'quv jarayoniga har tomonlama psixologik jihatdan yaxshi kayfiyat bilan kelishini nazorat qilib boring;

5. Siz, ota-ona sifatida farzandingizni maktabda DTS talablari asosida bilimlarni egallashi uchun barcha o'quv qurollari va darsliklar bilan ta'minlashingiz shart. Uyingizda shaxsiy kutubxonangiz, dars tayyorlash uchun yetarli sharoit yaratilgan bo'lishi, kundalik ommaviy axborot vositalari; gazeta, jurnallar, radio, televideniya dan to'g'ri foydalanish ham bolani ilm olishga bo'lgan qiziqishini oshirishini unutmang;

6. Farzandingizni jamoatchilik asosida o'tkaziladigan tadbirlarga faol ishtirok etishga da'vat qiling, bu bilan siz uning qobiliyatlarini rivojlanishi, muloqot madaniyatini shakllanishiga sababchi bo'lasiz;

7. Zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan, ya'ni kompter, internet xizmatidan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish zarurat ekanligi, ulardan yoshiga mos ravishda foydalanishni nazorat etib boring;

8. Har doim farzandingizning maktabda, mahallada, jamoat joylarida o'zini tutishi va boshqalar bilan muomilasidan xabardor bo'lishga harakat qiling. Ta'lim muassasasi va mahalla oldida farzandingizning barcha xatti-harakatlari uchun javobgar ekanligingizni unutmang;

9. Agar farzandingizni darslarga yomon ishtirok etayotganligi, xulq-atvoridagi salbiy o'zgarishlardan xabar topsangiz zudlik bilan sinf rahbari, o'qituvchilari va maktabning amaliyotchi psixologi bilan uchrashing;

10. Dars intizomiga salbiy munosabatni keltirib chiqargan faktorlarni aniqlashga harakat qiling, salbiy munosabat qachon va qanday paydo bo'lganligini diqqat bilan o'rganing;

11. Bolaning o'zini tutishi, muomalasida oldingiga nisbatan salbiy o'zgarishlarning paydo bo'lishi, uning xulq-atvorining buzilishi bilan bog'liqligini e'tiborga olib, unga nisbatan yaqinlik va mehribonlik bilan yondashish, u yolg'iz emasligi, ota-ona sifatida barcha muammolarni hal qilish uchun tayyorligingizni sezdirishni unutmang;

12. Bolaning ko'ngliga yo'l topsangiz va ishonchiga kirsangiz uning ongiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni bilib olasiz, vaziyatni yaxshi tomonga o'zgartirish oson yekchadi;

13. Agar farzandingiz bilan biror masalada nizoga borgan bo'lsangiz, uning noo'rin talablarini bajarish, oilaviy imkoniyatlar chegarasidan oshib ketish hollari yuz bergan bo'lsa, avval o'zingiz tushuntirishga harakat qiling. Bu ishga bobo-buvilarning yordami ham asqotishi mumkin;

14. Farzandingizga biror masalada avval o'ylab, keyin va'da bering, va'da berdingizmi uni bajaring, aks holda beburd bo'lib qolasiz, farzandingizning sizga nisbatan ishonchi yo'qoladi, bunga yo'l qo'ymang;

15. O'quvchining darsdan qoniqmayotganligi intizomga salbiy ta'sir etayotgan bo'lsa, unda maktab rahbarlari va sinf rahbariga sekingina bildiring. Hatto, o'qituvchi bilan ham uchrashib xushmuomalalik bilan gaplashing, o'quvchining o'qituvchiga nisbatan qo'yayotgan ayblari qanchalik o'rinli ekanligini aniqlash mumkin bo'ladi;

16. Agar o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida kelib chiqqan nizo asosli bo'lib, ular o'rtasidagi munosabatlar chegaradan chiqqan bo'lsa, yaxshisi, o'quvchini boshqa sinfga yoki boshqa maktabga o'tkazish haqida maktab rahbarlari, sinf rahbari va maktab psixologi bilan maslahatlashib bir qarorga keling;

17. Farzandingizning o'rtoqlari kimlar, albatta qiziqing, chunki nosog'lom muhitga tushib qolgan o'quvchining xulq-atvorida salbiy o'zgarishlar bo'lishi tabiiy;

18. Farzanddingizning sababsiz dars qoldirish sabablarini aniqlang, har kuni kundalik daftarida o'qituvchi tomonidan qilingan qaydlarni tekshirib o'z munosabatingizni bildirib boring;

19. Farzandingizning bo'sh vaqti qanday taqsimlanganligi muhim ahamiyatga ega. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalaridagi to'garaklar uning qiziqishi asosida tashkil etilgan bo'lsa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Vaqtingizni qizg'anmang, farzanddingizning kelajagiga nisbatan befarq bo'lmang;

20. Agar farzandingizning jamiyatda qabul qilingan qonun va qoidalarga nisbatan hurmatsizlarcha munosabatda bo'layotganligini sezsangiz o'zingizning ko'rayotgan chora-tadbirlaringiz ta'sir etmayotgan bo'lsa, maktab, mahalla va oila hamkorligida muammoni hal qilish uchun yordamchi kuchlarni jalb qiling, hech qachon bolaning "chegara"dan chiqqanligini yashirmang. Huquqni himoya qiluvchi organlarning yordamiga tayaning;

21. Bolaga ishonch bildiring, undagi qobiliyat va sabr-toqat natijasida yo'l qo'ygan xatolarini tuzatib olishiga, kelajakda undan yaxshi inson chiqishiga ishora qiling va sinab ko'ring;

22. Bolaning injiqlik sabablarini psixolog maslahati, qolaversa, tibbiyot mutaxassisleri maslahati bilan bir qarorga kelish mumkinligini unutmang;

23. Jismoniy va ruhiy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarga nisbatan ikki hissa e'toborli bo'ling, ularga hayot talablariga mos ravishda kasb-hunar egallashlari uchun shart-sharoitlar yaratishni o'zingizning vazifa-burchingiz deb biling;

24. Farzandingizga tejamkorlik va ishbilarmonlik sifatlarini, ona tabiatga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirishni unutmang;

25. Farzandlaringizga sanitariya-gigienik, ekologik bilim va ko'nikmalarni singdirish, diniy aqida parastlik, ichkibozlik hamda giyohvandlikka qarshi tushuntirish ishlarini olib borishni unutmang;

26. Oilada milliy va umuminsoniy tarbiyaning barcha yo'nalishlarini uyg'un holda bosqichma-bosqich amalga oshirishni ta'minlash sizning vazifangiz ekanligi yodingizda tursin.

Maktab, oila, mahalla hamda keng jamoatchilikning vazifalari

Ma'lumki, barqaror rivojlanayotgan jamiyatda barkamol shaxsni yetishtirish masalasi keng qamrovli dolzarb vazifa bo'lib, uni amalga oshirish oiladan tortib, barcha ta'lim va tarbiyaga daxldor bo'lgan hokimiyat, tashkilot, muassasa, huquqni muhofaza etuvchi organlar zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Umumiy o'rta ta'limning sifat darajasini ta'minlash ana shu hamkorlikning harakat dasturini tashkil etmog'i lozim.

Shu nuqtai-nazardan har bir bo'g'inning alohida-alohida vazifa va burchlarini ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Ta'lim sifatini ta'minlashda oilaning ishtiroki har jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun eng avvalo farzandi maktabda ta'lim olayotgan turli darajadagi ma'lumotga ega bo'lgan ota-onalarning bola tarbiyasidagi tajribasi hamda pedagogik tayyorgarlik darajasini aniqlash zarurati borligini unutmang kerak. Buning uchun esa sinflar kesimida ota-onalarning kasb-kori, ma'lumotlilik darajasi, oilada bola tarbiyasidagi tajribasini kabi mezonlar asosida ularni toifalarga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu ish maktabda amalga oshiriladi, toifalarga ajratilgan ota-onalarni maxsus dastur asosida o'quv-seminarlari tashkil etish orqali tayyorlash mas'uliyati ham maktab pedagogik jamoasi zimmasiga yuklatiladi. Agar biz ta'lim sifatini ko'tarishda ota-onalarning yordami, qo'llab-quvvatlashini bitta mezon sifatida qaraydigan bo'lsak, shu ishni amalga oshirish maqsadga muvofiqligi ayon bo'ladi. Demak, ta'lim sifati darajasini aniqlashning bitta **mezoni – ota-onalarni tayyorlash yoki malakalarini oshirish** tizimini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi.

Bu ish qanday amalga oshiriladi?

- Maktabda ta'lim olayotgan o'quvchilar ota-onalarining ma'lumotlilik darajalari aniqlanadi;

- Ota-onalarning bola tarbiyasidagi tajribalari tahlil etiladi;

- Ota-onalar maxsus testlar yordamida sinovdan o'tkazilib, bilim darajalariga ko'ra toifalarga ajratiladi;

- Maxsus ishlab chiqilgan dastur asosida haftada bir marta ota-onalar uchun qulay bo'lgan vaqtda o'quv-seminari tashkil etiladi;

- Ota-onalar va maktab ma'muriyati o'rtasida ikki tomonlama shartnoma tuziladi, shartnomada ikki tomonning majburiyatlari belgilanadi;

- Ushbu o'quv-seminarni tashkil etishda ota-onalar ishtiroklarini ta'minlash maqsadida tuman, shahar hokimiyatlaridan amaliy yordam so'raladi;

- O'quv-seminar dasturi toifalarga ajratilgan ota-onalarning bola tarbiyasidagi ehtiyojlaridan kelib chiqib tuziladi;

- O‘quv-seminarning davomiyligi turli toifadagi ota-onalarning malakalari shakllanganga qadar davom etadi, yakuniy mashg‘ulotda test savollari yordamida ularning malaka darajalari aniqlanib, ularga sertifikatlar beriladi.

- Farzand taqdiriga befarq bo‘lmagan, namunali oila boshliqlaridan iborat ota-onalardan jamoatchilik asosida ta‘lim sifatini ta‘minlashga yo‘naltirilgan guruhlarni shakllantirish va ular faoliyatlarini harakatlantiruvchi mexanizmlarni yaratish maqsadga muvofiqdir.

Mahalla fuqarolar yig‘ini o‘z hududidagi ta‘lim muassasalari faoliyatini nazorat qilish yuzasidan quyidagi tadbirlarni amalga oshirishi lozim.

1. “Oila, mahalla va maktab” konsepsiyasi talablarining bajarilishi yuzasidan monitoring ishlarining olib borilishi;

2. Mahalla hududida joylashgan maktablar, maktabgacha va boshqa tarbiyaviy muassasalar haqidagi ma‘lumotlarning mavjudligi;

3. Mahalla oqsoqoli va uning yordamchilari tomonidan oilada bola tarbiyasi masalalari bilan shug‘ullanishning mavjudligi;

4. Mahalladagi kam ta‘minlangan, boquvchisini yo‘qotgan oilalar farzandlarini o‘quv qurollari va darsliklar bilan ta‘minlashga amaliy yordamining mavjudligi;

5. Serfarzand, namunali oilalarning bola tarbiyasidagi tajribalarini targ‘iboti, ulardan o‘rnak olishga bo‘lgan munosabatlarning shakllanganligi;

6. Mahalladagi noqobil, qarovsiz oilalarda tarbiya olayotgan bolalar nazorati uchun birlashtirilgan jamoatchi nazoratchilar, ular faoliyatlarining monitoringi;

7. Maktab va mahalla hamkorligini tasdiqlovchi hujjatlarning mavjudligi, dolzarb masalalarda vaziyatli yondoshuvlar yuzasidan qabul qilingan qarorlar, tavsiyalar, xulosalar;

8. Ota-onalar ishlaydigan korxonalarining rahbarlariga farzandlarining maktabda erishgan yutuqlari hamda nuqsonlari yuzasidan bildirishnomalar kiritib borish;

9. Korxonalar rahbarlari farzandlarining namunali xulqi va a‘lo baholardagi o‘qishini inobatga olib, ish joylarida ota-onalarni moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirishni yo‘lga qo‘yishni tashkil etish;

10. Har chorakda bir marta maktab rahbariyati, voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat va qonunbuzilishlar profilaktikasi tuman komissiyasi bilan hamkorlikda sodir etilgan holatlar va ularni oldini olish yuzasidan masalalarni muhokama etish hamda chora-tadbirlar belgilash.

ILOVA

O‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini o‘rganish so‘rovnomasi

№	1-BO‘LIM SAVOLLARI	Ha	Yo‘q	Ba‘zida
1	Har xil avlod vakillari, haqiqatdan ham, bir – birini tushunishi qiyin, deb o‘ylaysizmi?			
2	Ota-onangizni fikrini doim inobatga olasizmi?			

3	Sizda ota-onangiz va opa–akalaringizning fikrlarini rad etish holatlari ham uchrab turadimi?			
4	Biron-bir ish qilishdan oldin siz ota–onangiz(oila a’zolaringiz) bilan maslahat qilasizmi?			
5	Siz tufayli oilangizda yoki maktabda turli nizolar paydo bo‘lib turadimi?			
6	Ota–onangiz oldida farzandlik burchingizni ado etishda doimo ma’suliyatni his qilasizmi?			
7	Ota–onangizdan shaxsiy xarajatlaringizdan ortiq pul talab qilasizmi?			
8	Sizda vaziyatdan chiqish uchun oila a’zolaringiz (ota-ona, opa-singil, aka-uka)ga yolg‘on gapirish holatlari uchrab turadimi?			
9	Muammolaringiz yuzasidan oila a’zolaringiz bilan o‘rtoqlashasizmi?			
10	Oilangizda sizning fikringiz inobatga olinadimi?			
Jami to‘plangan ball (“Ha”-3 ball, “Yo‘q”-1 ball, “Ba’zida”-2 ball)				
№	2-BO‘LIM SAVOLLARI	Ha	Yo‘q	Ba’zida
1	Ota–onangiz o‘quv faoliyatingiz xususida sizga tanbeh berishadimi yoki maktabga ularning qistovi bilan borasizmi?			
2	Fanlardan beriladigan uy vazifalarini mustaqil, o‘z vaqtida va muntazam bajarasizmi?			
3	Ustozlaringizning siz xaqingizdagi fikrlarini har doim ham to‘g‘ri deb hisoblaysizmi?			
4	Siz maktabda bo‘ladigan tadbirlarda, jamoat ishlarida qatnashasizmi?			
5	Maktabda o‘qish birinchi vazifam va maktabdagi yutuqlaringiz tirishqoqligingizga bog‘liq deb o‘ylaysizmi?			
6	Sizning bilimingiz o‘qituvchi tomonidan haqqoniy baholanadimi?			
7	O‘z bilimingizni oshirish maqsadida maktab to‘garaklariga va qo‘shimcha kurslarga qatnashishga ehtiyoj sezasizmi?			
8	O‘z bilimingizni oshirish uchun aqliy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan mashg‘ulotlar Sizga yoqadimi?			
9	O‘quv fanlarini bo‘sh o‘zlashtirishda o‘zingizni aybdor deb hisoblaysizmi?			
10	Bilimli inson omadli bo‘ladi deb o‘ylaysizmi?			
Jami to‘plangan ball (“Ha”-3 ball, “Yo‘q”-1 ball, “Ba’zida”-2				

ball)				
№	3-BO‘LIM SAVOLLARI	Ha	Yo‘q	Ba‘zida
1	O‘rtoqlaringiz bilan dam olish vaqtlaringizni mazmunli o‘tkazishga harakat qilasizmi?			
2	Tengdoshlaringiz erishgan yutuqlaridan xursand bo‘lasizmi?			
3	Atrofdagilar bilan kelishgan holda barcha masalalarni maslahatlashib hal etasizmi?			
4	Yutuq va muvaffaqiyatsizliklaringiz boshqalar tomonidan to‘g‘ri baholanadimi?			
5	O‘z kechinmalariningizni tengdoshlaringiz bilan ular kim bo‘lishidan qat‘iy nazar o‘rtoqlashasizmi?			
6	Tengdoshlaringiz biror ish yoki o‘qish yuzasidan biror muayyan muammoni hal etishda yordam berishingizni iltimos qilganda, ensangiz qotadimi?			
7	Tengqurlaringiz o‘rtasida mas‘uliyatni o‘z zimmangizga olishdan o‘zingizni olib qochish hollari ham uchraydimi?			
8	Tengqurlaringiz erishgan yutuqlarga Siz ham qanday qilib yaxshiroq, tezroq, kam vaqt va kuch sarflab bajarish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘rganmisiz?			
9	Tengdoshlaringiz yolg‘on gapirganini sezsangiz, o‘g‘irlik qilsa yoki giyoxvand modda istemol qilganini bilsangiz o‘rtog‘ingiz yoki dugonangizga tanbeh berasizmi?			
10	Do‘stlaringiz bilan (diskoteka, tungi klub) va shunga o‘xshash joylarga borish sizga yoqadimi?			
Jami to‘plangan ball (“Ha”-3 ball, “Yo‘q”-1 ball, “Ba‘zida”-2 ball)				
№	4-BO‘LIM SAVOLLARI	Ha	Yo‘q	Ba‘zida
1	Sizda kelajakka umidsizlik hissi paydo bo‘lgan holatlar uchraydimi?			
2	Kayfiyatingiz o‘zgarib, shodlik o‘rnini g‘am egallashi hollari uchraydimi?			
3	Muvaffaqiyatsizlikka uchraganingizda maqsadga erishishning osonroq yo‘llarini qidirishga kirishasizmi?			
4	Tanbehni xotirjamlik bilan qabul qilib, xatolarni tezda to‘g‘rilashga harakat qilasizmi?			
5	Sizda ba‘zida o‘zingizni boshqara olmaslik holatlari uchrab			

	turadimi?			
6	Sizda yolg'iz qolish istagi tug'ilib turadimi?			
7	O'zingizni keraksiz odamday his qilasizmi?			
8	Ertalab uyqudan o'yg'onganda o'zingizni og'ir his qilasizmi?			
9	O'rtoqlaringiz (dugonangiz) orasida sizga nisbatan ko'raolmaslik, g'arazgo'ylik borligini sezasizmi?			
10	Ko'pincha qo'rquv, qayg'u hislaridan ozor chekasizmi?			
Jami to'plangan ball ("Ha"-3 ball, "Yo'q"-1 ball, "Ba'zida"-2 ball)				
№	5-BO'LIM SAVOLLARI	Ha	Yo'q	Ba'zida
1	Gazeta va jurnallarda, biron – bir joyda jinoiy voqeda beayb inson javobgarligini o'qisangiz, o'sha insonga befarq bo'la olasizmi?			
2	Sizning hayotingizda internet muhim o'rin tutadimi?			
3	Axborot vositalarida (televidenie, radio) yoshlarning hayoti va dunyoqarashlari to'la aks ettirilmoqdami?			
4	Sizning kompyuter o'yinlariga qiziqishingiz turli xil moliyaviy muammolarni tug'diradimi?			
5	Bugungi kunda ko'p miqdorda namoyish etilayotgan jangari va qo'rqinchli kinofilmlar inson ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi deb o'ylaysizmi?			
6	Sizga gazeta yoki kitob o'qishdan ko'ra, kino hamda videofilmlar (kinoseriallar)ni tomosha qilish yoqadimi?			
7	Siz biror bir film tomosha qilayotganda shu film voqealari, qahramonlari kechinmalari bilan birga bo'lasizmi?			
8	Siz har bir ko'rsatuv va eshittirishdan, gazeta sahifalaridagi maqolalardan o'zingiz uchun xulosa chiqara olasizmi?			
9	Shaxsning shakllanishida ommaviy axborot vositalarining o'rni katta deb o'ylaysizmi?			
10	Siz hayot saboqlarini ta'lim muassasalaridan ko'ra ko'proq ommaviy axborot vositalaridan olasizmi?			
Jami to'plangan ball ("Ha"-3 ball, "Yo'q"-1 ball, "Ba'zida"-2 ball)				

№	6-BO'LIM SAVOLLARI	Ha	Yo'q	Ba'zida
1	Doim "Etti o'lchab, bir kesish" "Avval o'ylab, keyin			

	so‘ylash” qoidalariga rioya etasizmi?			
2	Dunyoda bo‘layotgan global muammolar (spid, narkomaniya) ning oldini olishga yordam bera olaman deb o‘ylaysizmi?			
3	Inson hayotidagi erinchoqligi tufayli malaka, ko‘nikma va bilimga ega bo‘lmay turib kelajakda muvaffaqiyatga erishishi mumkinmi?			
4	Tug‘ilib o‘sgan joyingizni rivojlanishi uchun o‘z hissangizni qo‘shishga tayyormisiz?			
5	Inson tarbiyasi uchun diniy bilimga ega bo‘lish kerak deb o‘ylaysizmi?			
6	Sizningcha insonlar doimo bir–birlariga ko‘mak berishlari kerak deb o‘ylaysizmi?			
7	Sport to‘garaklariga qatnashish Sizning jismoniy chiniqishingizga yordam beradi deb hisoblaysizmi?			
8	Xulq–atvor me‘yorlari va qonun-qoidalariga rioya qilasizmi?			
9	Ijtimoiy hayotning rivojlanishiga putur yetkazuvchi har qanday vaziyatga qarshilik ko‘rsata olasizmi?			
10	Milliy urf-odatlar va qadriyatlarga amal qilish har bir insonning burchi deb o‘ylaysizmi?			
Jami to‘plangan ball (“Ha”-3 ball, “Yo‘q”-1 ball, “Ba’zida”-2 ball)				
№	7-BO‘LIM SAVOLLARI	Ha	Yo‘q	Ba’zida
1	O‘z so‘zingiz va va’dangizni bajarishga qodirman deb o‘ylaysizmi?			
2	O‘z zimmangizdagi majburiyat va vazifalarni to‘la-to‘kis bajarayapman deb o‘ylaysizmi?			
3	Hech qachon, hech narsada adashmayman deb o‘ylaysizmi?			
4	Shaxsiy manfaatlaringizni o‘zgalar manfaatlaridan ustun qo‘yasizmi.			
5	O‘zaro munosabatlarda o‘zingizni madaniyatli tutasizmi?			
6	Har qanday xarakter xususiyatga ega bo‘lgan insonlarga to‘g‘ri baho bera olasizmi?			
7	O‘z–o‘zingizga va hatti–harakatingizga to‘g‘ri baho bera olasizmi?			
8	Har bir ishga qo‘l urish uchun faqat o‘z kuchingiz va bilimingizni zarur deb hisoblaysizmi?			

9	Muvaffaqiyatsizlikka uchraganingizda o'zingizni aybdor deb hisoblaysizmi?			
10	Yorqin taassurotlarni va ularni tez-tez almashinishini yoqtirasiz-u, lekin bunga jon – jahdingiz bilan intilmasligingiz rostmi?			
Jami to'plangan ball ("Ha"-3 ball, "Yo'q"-1 ball, "Ba'zida"-2 ball)				

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998 y.
3. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998 y.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilning 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-sonli Qarori. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 11-son, 167-modda.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 187-sonli Qarori. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 14-son, 230-modda.
7. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2009 y.
8. Muslimov N.A., Sh.S.Sharipov, O.A.Qo‘ysinov. Mehnat ta’limi o‘qitish metodikasi, kasb tanlashga yo‘llash. – T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2014.-456 b.
9. Tohirov O‘.O. Texnologiya o‘quv fani davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturini ta’lim amaliyotiga joriy etish metodikasi. // Metodik tavsiyanoma. – T.: RTM, 2017. - 72 b.
10. Sayfurov D.M. Ta’lim sifatini boshqarishda “Elektron axborot ta’lim resurslari”ning o‘rni Ta’lim sifatini boshqarishda “Elektron axborot ta’lim resurslari”ning o‘rni. <http://fikr.uz/blog/10211.html>, 16 noyabr, 2012 y.
11. Qo‘ysinov O.A., Sattorov V.N., Yakubova H.S. Mehnat ta’limidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi. Metodik qo‘llanma. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2011 y.
12. Qo‘ysinov O.A., Aripova D.F. Mehnat ta’limidan o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati. “Uzluksiz ta’lim tizimida barkamol avlodni tarbiyalashning ustuvor vazifalari va ularni amalga oshirish yo‘llari” ilmiy-amaliy konferensiya materiali. – T.: 2017 y.
13. Ergashev Sh., Kolantarov A. “Umumta’lim maktablarda axborot-kommunikatsion muhitni shakllantirishda elektron axborot – ta’lim resursning o‘rni va ahamiyati”, “Xalq ta’limi jurnali”, 2016 yil, 4-son.

Internet Veb-saytlari ro‘yxati:

14. <http://texnologiya.zn.uz>

MUNDARIJA

Soʻz boshi	3
Amaliy fanlar boʻyicha oʻquvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yoʻnaltirilgan davlat taʼlim standartini amaliyotga joriy etish yoʻllari	4
Texnologiya fanini oʻqitishda pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish orqali taʼlim samaradorligini oshirish	7
Texnologiya fanidan amaliy mashgʻulotlarni tashkil etishda interfaol metodlardan foydalanish (sinflar kesimida dars ishlanmalardan namunalar)	12
Yangi avlod darsliklaridan foydalanish metodikasi	45
Oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirish asoslari	49
Dars intizomiga salbiy munosabatga taʼsir etuvchi omillarning tahlili	56
Dars intizomiga salbiy munosabatda boʻlgan bolalarga taʼsir etish usullari	62
Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati	78

**SH.S.Sharipov, O.A.Qo‘ysinov, SH.T.Ergashev,
O‘.O.Tohirov, Z.S.Shamsiyeva,
F.Nasrullayeva, U.Talipova**

**TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISH
VA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISHDA
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

**Umummiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘qituvchilari
uchun metodik qo‘llanma**

Kompyuterda sahifalovchi – O‘.Tohirov
Texnik muharrir va
korrektor – Z.Shamsiyeva

Bichimi 60x84 ¹/₁₆ “Times New Roman” garniturasini.

Ofset usulida bosildi.

Bosma tabog‘i _____. Adadi _____.

_____.
Toshkent sh., _____ ko‘chasi _____-uy.